

B. T. SUYUNOV

O'ZBEK TILIDA  
OMOLEKSEMALARNING  
YUZAGA KELISH OMILLARI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**B. T. SUYUNOV**

**O‘ZBEK TILIDA  
OMOLEKSEMALARNING YUZAGA  
KELISH OMILLARI**

Monografiya

**TOSHKENT – 2023**

UO'K 811.512.133.

KBK: 81.2

S 25

**B. T. Suyunov. O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari.** Monografiya. /Mas'ul muharrir Z.Xolmonova/ – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023. 104 bet.

ISBN 978-9910-748-22-6

Ushbu monografiyada o'zbek tili lug'aviy boyligi va bu boyligni tashkil qiluvchi leksemalarning semantik tuzilishi, ularning lug'aviy-ma'noviy guruhlari, so'zlarning o'zaro semantik aloqalari, lingvistik xususiyatlari ilk bora tizimli ravishda tadqiq etilgan.

Monografiyada o'zbek tilining lug'aviy-ma'noviy kategoriyalaridan biri bo'lgan omonimlar, ulardagi shakliy va ma'noviy munosabatlarga oid qonuniyatlar, omonimlarga yondosh bo'lgan ba'zi hodisalar (polisemiya, ko'chimplarning turlari, nominativ konversiya bilan bog'liq xususiyatlar va b.) ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Monografiya oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, pedagoglari, doktorantlar, magistr va bakalavr talabalari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, shuningdek, filologiya va tilshunoslik nazariyasi bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir: Z.Xolmonova**, f.f.d., professor (TDO'TAU)

**Taqrizchilar: R.Rasulov** – f.f.d., professor (CHDPU)

**S.Muhamedova** – f.f.d., professor (TDO'TAU)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashining  
2023-yil 15-dekabrda 20-son qaroriga asosan chop  
etishga tavsiya etildi

ISBN 978-9910-748-22-6

© Suyunov B.T., 2023  
© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023.

## KIRISH

Jamiyat rivojlanishning qizg'in pallasiga kirgani sari tilimizda o'ziga xos taraqqiyot yuz berishi, tabiiydir. Binobarin, tildagi so'zlarning shakl va ma'no jihatdan taraqqiy etishi ulardagi ushbu munosabatlarni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi. So'zlarning o'zaro shakl va ma'no munosabatlari turlicha. Ayrim so'zlar shaklan har xil, lekin ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa, boshqalari shaklan bir xil, ammo ma'nolari turlicha bo'ladi.

“Adabiy tilda til birliklarini o'zaro omonim deyish uchun ular bir xil talaffuz qilinadigan va yoziladigan fonemalar tizimi bilan ifodalanishi kerak”.<sup>1</sup>

O'zbek tili tasviriy ifodalar, shuningdek, polisemantizmga boy bo'lgan tillardan biridir. Xususan, omonimiya hodisasining o'zi ham tilimizning boyligini, undagi ma'no imkoniyatlarining naqadar kengligini ko'rsatuvchi dalillardan hisoblanadi. Biroq omonimiya va polisemiya hodisalarini bir-biridan farqlab olishda ta'lim sohalarida va lug'atchilikda muayyan qiyinchiliklar, o'zaro ziddiyatli fikrlar mavjud.

O'zbek tilida so'zlarning o'ziga xos semantik taraqqiy etish qonuniyatlari tilshunoslardan fundamental tadqiqotlarni talab qiladi. O'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida omonimiya va polisemiya hodisalari, ularning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqida ma'lum izlanishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, omonimlarning yuzaga kelish sababi va omillari, bunda polisemiya bilan omonimiyaning o'zaro munosabati, omonimlar yuzaga kelishida ko'p ma'nolilik hodisasidan tashqari, boshqa yo'llarning roli va o'rnini belgilash ushbu muammoni talqin qilish va tushunishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalaga bunday yondashish nafaqat semasiologiya, balki leksikografiya, stilistika, lug'atchilik uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki ikki tilli, izohli, etimologik lug'atlar tuzishning ancha murakkab va qiyin o'rinlarini xuddi shu masala tashkil etadi.

Omonimiya tildagi ko'hna hodisa bo'lib, uning yuzaga kelishi, qadimiy holatlari ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Xususan,

<sup>1</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 56 b.



o'zbek tilshunosligida ham omonimlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ko'pgina monografik tadqiqotlar va ilmiy maqolalar mavjud.

Jumladan, tadqiqotchi Z.M.Musabayevaning yozishicha, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida o'zak holatida bo'lgan 100 ga yaqin omonimlar mavjud. Masalan, *qap* (qopmoq), *qap* (qop-meshok), *qap* (organizm qismi), *qap* (yaqin qarindosh) singari.<sup>2</sup>

Ayniqsa, o'zbek tili leksikasining lug'aviy qatlamlari. ushbu qatlamlarning shakllanish va boyish manbalari, til birliklarini semantik maydon asosida tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlar diqqatga sazovor.

Shuningdek, keyingi yillarda jahon tilshunosligida lug'aviy birliklarni tizimli asosda tadqiq qilish, leksemalar semantikasini lisoniy ongdagi aloqadorlik negizida yoritish, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini semik tahlil asosida o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, o'zbek tilini sistem tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham so'zning semantik strukturasi xususiyatlarini ochish bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borildi.

Tilshunoslar "ilk omonimlar" deb yuritishgan bunday shakldosh so'zlarning paydo bo'lishi haqida turkiyshunoslikda xilma-xil fikrlar aytilgan. Jumladan, qirg'iz olimasi B.O.Oruzbayeva<sup>3</sup> bir o'zakli omonimlarni turkiy tillardagi qadimiy so'z yasash usulidan biri deb talqin qilgan.

Umuman, ilk (dastlabki) omonimlarning vujudga kelishini o'zakning fonetik qisqarishi (styajeniye), fe'l o'zakdan boshqa turkumlarning yasalishi, ot va fe'l turkumining bir o'zak, bir xil shaklda mos kelib qolishi yoki bir-biriga aloqasi bo'lmagan mustaqil o'zaklarning shaklan mosligi (K.Grebenkin, A.K.Hasanova, B.M.Yunusaliyev, I.V.Kormushin va b.) kabi talqin qilishlar ham uchraydi.

Tahlil qilinayotgan davrga oid bir qator tadqiqotlarda omonimiya hodisasi keng yoritilgan. Buni rus tilshunoslari, shuningdek, ayrim xorijiy tilshunoslarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin:

<sup>2</sup> Мусабеева З.М. Омонимы в "Дивану лугатит турк" Махмуда Кашгарского (XI в.). Автореф. дис. ... канд. филол. наук - Фрунзе: 1975. -11 с.  
<sup>3</sup> Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. - Фрунзе: 1964. -262 с.

Professor V.D.Arakin "Об омонимах в турецком языке" nomli maqolasida omonimiyaga olib keluvchi manbalar xususida to'xtalib, bir so'zning ko'p ma'nolilikning taraqqiy etishi natijasida ikkita leksemaga bo'linishini xarakterli xususiyat sifatida ko'rsatib o'tgan.<sup>4</sup> Aynan shunday fikrlar, ya'ni omonimiya hodisasiga ko'p ma'noli so'zning ikkiga ajralishi, bo'linishi yoki ma'noning differentsiatsiyasi, ma'no zanjirining uzilishi kabilarni asos qilib olish ko'pchilik tilshunos olimlarning tadqiqotlarida uchraydi.<sup>5</sup> Bu ishlarda omonimlarning paydo bo'lishi xususidagi fikrlar ko'pincha bir yoqlama bo'lib qolgan. Masalan, Ya.Pinxasovning "Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi" kitobida "Ba'zi so'zlarning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida omonimlar yuzaga keladi", deb ta'kidlangan.<sup>6</sup>

Slovakiyalik tilshunos olim B.Grnka: "Ba'zi tillarda, masalan, turkiy tillarda hamma omonimlar chatishmalardangina iborat emas",<sup>7</sup> - deb turkiy tillarning o'z ichki imkoniyatlarini alohida tushuntiradi.

Prof. E.Begmatovning yozishicha, tilning lug'at tarkibidagi so'zlar orasida muayyan sistemaviy aloqadorlik bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi ma'lum qonuniyatlar mavjud. Muallif ana shu qonuniyat-larni ochar ekan, so'zlarning o'zaro munosabatlarini quyidagicha ko'rsatadi:

So'zlarning o'zaro semantik munosabatlari: ma'noda yaqinlik (sinonimlar), ma'noda moslik (dubletlar), teskari ma'noga egalik (antonimlar), bir tematik qatorga mansublik (terminlar, professionalizmlar), shaklan moslik (yaqinlik) va mazmunan uzoqlik (omonimlar).<sup>8</sup>

Muallifning yozishicha, leksikada sistemaviylikni yuzaga keltiruvchi qonuniyatlar so'zlarning ma'lum ma'noviy guruhlarini ham yuzaga chiqaradi. Ular: 1) bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli so'zlar (polisemiya) guruhi; 2) o'z va ko'chma ma'noli so'zlar guruhi; 3) sinonimlar; 4) omonimlar; 5) antonimlar; 6) paronimlar guruhi.

<sup>4</sup> Аракин В.Д. Об омонимах в турецком языке // Советская тюркология. - Баку: 1978. - № 2. С. 56-57.

<sup>5</sup> Галкина-Федорук Е.М. К вопросу об омонимах в русском языке // Русский язык в школе. - М.: 1954. - № 3. - С. 14-19. Абаев В.И. О подаче омонимов в словаре // Вопросы языкознания. - М.: 1957. - № 3. - С. 32-33.

<sup>6</sup> Григорьев В.П. Обсуждение проблемы омонимии // Вопросы языкознания. - М.: 1958. - № 2. - С. 162-163.

<sup>7</sup> Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. - Toshkent: 1960. -19 b.

<sup>8</sup> Grnka B. Bemerkungen zur Homonymie, Travaux du cercle Linguistique de Prague: 1931. - № 4. -153 z.

<sup>8</sup> Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - Toshkent: Fan, 1985. - 24 b.

Demak, omonimlar til leksikasining tizim sifatidagi xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi hodisalardan biridir.

Ko'rinadiki, yuqorida tilga olingan omoleksemalar va polisemantik so'zlar hamda ularning yuzaga kelishi haqidagi fikrlar har tomonlama chuqurroq o'rganilishi kerak. Lekin shu narsa shubhasizki, "ip uzildi – ip uzilmadi" kabi izohlashdan ko'ra sememalarning semik tarkibiga suyanib ish tutish, garchand sub'yektivizmni to'la bartaraf etmasa-da, ma'no taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan omonimiyani polisememiyadan farqlab olish masalasiga ozmi-ko'pmi aniqlik kiritish imkonini beradi. Omonimiya va polisemiya hodisalarining yuzaga kelishi xususidagi xilma-xil, ayniqsa, o'zaro ziddiyatli fikr-mulohazalarning mavjudligi mazkur hodisalar ustida maxsus monografik tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirish, avvalo, davlat tilida ish yuritilishini ta'minlash, ona tilimizga yangi so'z va terminlarni tatbiq etish, xorijiy so'zlar va terminlarning o'zbekcha muqobilini yaratish, so'zlarining shakl va ma'no munosabatlarini yanada chuqurroq o'rganish kabilarni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'zbek tili va o'zbek tilshunosligiga oid dastur, darslik va qo'llanmalarni hozirgi kun talablari asosida qayta nashr etish, o'quv fanlari bo'yicha yangi dastur, darslik, qo'llanma va metodik ko'rsatmalar yaratishni ham ko'zda tutadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzini, davlat tiliga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi<sup>9</sup>.

Ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarining o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovasion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, davlat tilining

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi // 2019-yil, 22-oktabr, 218-son.

axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda tilshunoslik sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Uning natijalari o'zbek tili leksikasini rivojlantirish, takomillashtirish va to'g'ri tartibga solishga, shu bilan birgalikda, so'z shakllaridan to'g'ri foydalanish, ularning ma'no xususiyatlarini o'zlashtirish masalasiga ma'lum darajada hissa bo'lib qo'shiladi.

Tadqiqot ishida o'z qatlam hamda o'zlashgan qatlam omoleksemalarining ilmiy jihatdan o'rganilishi muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tiliga yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish (kompyuter dasturlarini yaratish) va uni yangi axborot resurslari bilan boyitishga ko'maklashadi.

Unda leksik birliklarning bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli so'zlar (polisemiya), o'z va ko'chma ma'noli so'zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, paronimlar kabi guruhlarga ajratilib o'rganilishi nafaqat tilshunoslar va lug'atshunoslar, balki barcha shu soha mutaxassislari va xodimlari uchun muhim manba bo'lib hisoblanadi.

## I BOB.

### OMOLEKSEMALARNING O'RGANILISH TARIXI

Tildagi so'zlar doimiy harakatda bo'lib, uning tarkibi o'zgarib, taraqqiy etib boradi. O'zbek tilining lug'at boyligida tub so'zlar bilan bir qatorda yasama so'zlar ham katta o'rin egallaydi. Omoleksemalarning yuzaga kelishida so'z yasalishi hodisasining sezilarli ishtiroki bor. Bundan tashqari, tovush o'zgarishlari, so'z ma'nolarining taraqqiyoti natijasida omoleksemalarning yuzaga kelishi ham tilning ichki imkoniyatlari hisoblanadi.

So'z yasash – turli vositalar, har xil usullar orqali yangi so'z yaratish tilning deyarli barcha sohalari bilan bog'lanadi. So'z yasalishi hodisasiga tarixiy nuqtai nazardan – diaxronik va hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan – sinxronik yondashuvlar mavjud. Har ikki yondashuv tilda so'z yasalishi qonuniyatlari hamda ularning tarixiy xususiyatlarini o'rganishda ahamiyatlidir.

O'zbek tilida so'z yasalishining bir necha usullari bor:

1) semantik usul; 2) fonetik usul; 3) sintaktik-leksik usul; 4) affiksatsiya; 5) kompozitsiya.<sup>10</sup> Omoleksemalarning yuzaga kelishida so'z yasash usullari o'zlarining mahsuldor yoki kammahsul ekanligi jihatidan o'zaro farqlanadi. Faqat kompozitsiya usulidan tashqari, qolgan barcha usullar vositasida omoleksemalar yuzaga keladi.

O'zbek tili leksikografiyasi tarixida so'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini ilmiy asosda tadqiq etish XX asrning 60-yillaridan boshlangan. Tilshunosligimizda so'zlarni semantik tahlil va talqin qilishni dastlab F.Kamolov, S.Mutallibov, S.Usmonov, A.G'ulomov, M.Ko'sayev, K.Axanov, S.Djafarov, B.Yunusaliyev, T.Aliqulov kabi olimlar boshlab berganlar. Bu davrdagi ilmiy izlanishlar MDH tilshunoslari V.I.Abayev, O.S.Axmanova, V.V.Vinogradov, A.Gvozdev, L.Novikov, R.A.Budagov, V.P.Grigoryev, V.A.Zveginsev, A.Smirniskiy, N.Shanskiy, A.A.Reformaskiy, Ye.I.Shendels, A.N.Kononov, shuningdek, xorijiy tilshunoslari V.D.Arakin, L.Durovich, E.Eman, M.Breal, K.Gronbech, Ye.Koxler,

S.Ulmann kabilarning tadqiqotlari bilan hamohang, ba'zan qiyosiy holda olib borilgan.

Omonimiya va polisemiya hodisalarini semantik tahlil qilish o'zbek tilshunoslaridan S.Usmonov, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, T.Aliqulov, N.Rajabov, U.Tursunovlarning ilmiy tadqiqotlarida kuzatiladi. Shuningdek, so'zlarning semantikasi bo'yicha A.Hojiyev, E.Begmatov, N.Mahmudov, M.A'lamova, M.Jo'raboyeva, M.Ravshanov singari olimlarimiz maxsus izlanishlar olib borganlar.

Mahmud Ravshanov "O'zbek tilining izohli lug'atidagi omonimlar" mavzusidagi nomzodlik ishida quyidagicha yozadi: "Shu kungacha vatanimiz lingvistikasida omonimiya va polisemiyaning o'rganishda ikki qarama-qarshi nuqtai nazar, ikki har xil yondashuv mavjud edi. Shulardan birinchi (an'anaviy) nuqtai nazarga ko'ra, fonetik jihatdan bir xil, genetik jihatdan o'zaro bog'lanmagan va faqat tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida bir-biri bilan mos bo'lib qolgan so'zlar omonimlar deb hisoblangan. Qolgan holatlar, ya'ni har xil mazmundagi leksemalarning material jihatdan bir xil bo'lib qolishi ko'p ma'nolilik deb qaralgan.

Kengroq tarqalgan ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari haqiqiy (geterogen) omonimlardan tashqari, dastavval bir so'z bo'lib, keyinchalik, semantik bog'lanishning uzilishi natijasida paydo bo'lgan so'zlar – semantik (gomogen) omonimlar ham mavjud deb hisoblaydilar. Bunday nuqtai nazar O.S.Axmanova, R.A.Budagov, V.V.Vinogradov, Ye.M.Galkina-Fedoruk, N.P.Kolesnikova, L.A.Novikov, S.I.Ojegov, A.A.Reformaskiy, A.I.Smirniskiy, I.I.Fomina, A.Ya.Shaykevich, N.M.Shanskiy, D.N.Shmelyov va boshqalarning tadqiqotlarida ham berilgan".<sup>11</sup>

Turkshunos olim V.D.Arakin omonimiya hodisasini turk tili misolida quyidagicha izohlaydi: "Dalillar shuni ko'rsatadiki, omonimlarning muayyan qismi turk tili negizida vujudga kelgan. Fanda ma'lum bo'lgan eng qadimgi yozma manbalar VII-VIII asrlarga taalluqli bo'lib, bir qator omonimlarni qadimgi turk yozuvidagi Urxun-Enasoy yodgorliklarida, shuningdek, hozirgi turk adabiy tilida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, *kurt* - "bo'ri", *kurt* - "chuvalchang";

<sup>11</sup> Ravshanov M. Omonimiyalar in the Uzbek dictionary. Author's dis. ... cand. philol. nauk. – T.: 1991. – 5 c.

<sup>10</sup> Shoabdurahmonov Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". – T.: O'qituvchi, 1980. – 170 b.

*jas* - "yosh - yil", *jas* - "ko'z yoshi". Boshqa ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli yuqoridagi omonimlarning paydo bo'lishini tushuntirish qiyin. Shuning uchun har ikki komponenti turkcha bo'lgan omonim juftliklar bilan chegaralanamiz va ularni gap bo'laklari bo'yicha tasniflaymiz:

a) ot - ot: *at* - "ot" (hayvon), *at* - "ism"; *ot* - "olov", *ot* - "o'simlik".

b) ot - sifat: *dolu* - "do'l", *dolu* - "to'ldirmoq"; *düz* - "aroq", *düz* - "tekis"; *kalin* - "evaziga beriladigan pul", *kalin* - "qalin".

d) ot - fe'l: *boğmak* - "bo'g'im", *boğmak* - "bo'g'moq"; *oymak* - "angishvona", *oymak* - "o'ymoq".

e) ot - olmosh: *ben* - "xol", *ben* - "men"; *biz* - "bigiz", *biz* - "biz".

f) ot - son: *yüz* - "yuz", *yüz* - "yuz" (sanoq son)..

Til taraqqiyoti jarayonida shunday hodisalar ham kuzatiladiki, dastlabki bir so'z (leksik birlik) ko'p ma'nolilikning taraqqiy etishi natijasida ikkita leksemaga bo'linadi va ular ma'nolari tizimi jihatdan, kategorial va so'z hosil qilish qatorlari jihatdan alohida xarakterlanadi, chunki boshqa so'z turkumiga, yangi so'zga o'tishga olib keladi, masalan, *sovuq* - "xolodnyy" va *sovuq* - "xolod ..".<sup>12</sup>

Professor M.Mirtojiyevning yozishicha, o'zbek tilida omonimiyaning yuzaga kelishida so'z yasashning 4 ta usuli: 1) konversiya; 2) semantik taraqqiyot; 3) fonetik taraqqiyot; 4) affiksatsiya ishtirok etadi. Kompozitsiya usulida esa yasaliş kuzatilmaydi.<sup>13</sup> U omonimiyaning yuzaga kelish yo'llaridan birini shunday izohlaydi: "Adabiy tildagi omonimlarning bitta chegarasi adabiy til talab qilgan talaffuz va yozilish normasi hisoblanadi. Masalan: *kunda* (Xorazm dial.), *o'ra* (Xorazm dial.), *uymak* (Farg'ona dial.). O'zbek tili dialektlarida shunga o'xshash omonimlar boshqa yo'llar bilan ham vujudga keladi, ya'ni so'zlarning leksik, semantik taraqqiy etishi natijasida va boshqa hodisalar orqali".<sup>14</sup>

Kelib chiqish nuqtai nazaridan aslida ko'p ma'noli so'z bo'lib, keyinchalik boshqa turkum doirasiga o'tib, ayni paytda ikki yoki undan

ortiq kategoriyada ishlatilib kelinayotgan so'zlarni o'rganish leksikografik jihatdan muayyan tamoyillarni ishlab chiqish, shuningdek, omonimlarning paydo bo'lish qonuniyatlari va usullarini muayyan tillar materiallari asosida maxsus tadqiq qilish lozimligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek adabiy tilining asoschilaridan biri Alisher Navoiy o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklari - sinonimlar, omonimlar, xalq maqollari va matallaridan, frazeologik va idiomatik birikmalardan keng foydalanib, fors-tojik so'z san'atkorlari bilan XV asrdayoq ijodiy musobaqalashgan edi. Bu musobaqada katta muvaffaqiyat qozonib, o'zbek tilining leksik va grammatik boyliklarini namoyish etdi.

Navoiy o'z asarlarida omonimlarning semantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni ona tilining boyliklaridan hisoblaydi va o'zbek tili omonimlarga boy ekanligi, ular orqali go'zal tuyuqlar yaratish mumkinligini ta'kidlaydi:

"*Ot* lafziki, bir ma'nisi alamdur, yana bir ma'nisi markabdur va yana bir ma'nisi amrdurki, toshni yo o'qni ot, deb buyurg'aylar..".<sup>15</sup>

O'zbek tilidagi omonimlarni ilmiy tadqiq qilishga prof. M.Mirtojiyev katta hissa qo'shdi. Uning 1963-yil "O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi" mavzusida himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi ushbu muammoga bag'ishlangan. Mazkur dissertatsiyada quyidagilarni o'qiyamiz:

"Omonimiya masalasi yuz yillar muqaddam N.I. Grech tomonidan ilgari surilgan.. Shunga qaramay, biror tilda hanuzgacha omonimlarning vujudga kelishi yuzasidan hech qanday monografik asar yo'q. Ma'nolari bir bosh ma'no orqali bir-biri bilan aloqador so'zlar ko'p ma'noli - polisemantik so'z deyiladi. Polisemantik so'zlarning ma'nolari har qancha ko'p bo'lmasin, u baribir bir so'zdir. Uning ma'nolari esa shu so'zning turli qirralaridir. Omonimlarning birinchi belgisi - o'zicha mustaqil ma'noga ega ikki va undan ortiq so'zlar bo'lishidir. Ikkinchi belgi - nomlarning bir xilligidir..

Leksik omonimlar lug'at boyligi taraqqiyotining quyidagi hodisalari natijasida vujudga keladi:

1. O'zbek tilining boshqa tillar bilan munosabati natijasida. Masalan, *sir*, *alam*, *banka*, *bog'*.

<sup>15</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-tom. - Toshkent: Fan, 2000. -17 b.

<sup>12</sup> Аракин В.Д. Об омонимах в турецком языке // Советская тюркология. - Баку: 1978. - № 2. - С. 48-61.

<sup>13</sup> Mirtojiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan, 1981

<sup>14</sup> Mirtojiyev M. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida leksik omonimlarning vujudga kelishi // O'zbek tili va adabiyoti. - T.: 1962. - № 1. - B. 63-64.

2. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida. Masalan, *bo'lishmoq, shoti, chavoq*.

3. So'zlarning leksik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *ort, g'arch, ko'k*.

4. So'zlarning semantik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *banoras, teri, yaramoq, qiziq, is*.

5. So'zlar fonetik o'zgarish orqali o'zaro ham talaffuz, ham yozilish jihatidan bir xil bo'lib qolishi natijasida. Masalan, *o't, uch, chag'ir, bog', oz, yor ...*

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida polisemantik so'zlar omonimlarni vujudga keltirib turadi. Polisemantik so'zning ma'nolaridan birortasi boshqa ma'nolarga bog'langan aloqasini yo'qotsa, u mustaqil ma'noli so'zga aylanadi, ya'ni omonim vujudga keladi. Demak, tilda polisemantik so'zlarning omonimga o'tish jarayoni yuz berib turadi. Bu hol, albatta, omonimlar bilan polisemantik so'zlarni ajratib olish uchun xalaqit beradi. Shuningdek, ularning chegarasini belgilashda ham qiyinchilik tug'diradi".<sup>16</sup>

Prof. M.Mirtojiyevning omonimiya haqidagi ba'zi qarashlari "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida o'z ifodasini topgan. Ushbu asarda o'zbek tilidagi so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ikkiga ajratilgan: birinchisida muallif shakliy o'xshashlik va shakliy bir xillik, ya'ni paronimiya hodisasini, ikkinchisida esa omonimlar, omograflar, omofonlarni ko'zda tutadi.<sup>17</sup>

M.Mirtojiyev omonimlarni ta'riflar ekan, uni omofoniyaga qiyoslagan holda tushuntiradi: "Birdan ortiq so'zning aynan bir xil talaffuz etilishi omonimiya deb qaraladi. Bunda, albatta, birdan ortiq so'zning fonetik strukturasidagi bir xillikka ko'ra, bir xil talaffuz etish nazarda tutiladi. Shunisi bilan omonimiya omofoniyadan farq qiladi. Omofoniya esa ikki so'zning fonetik strukturasidagi ayrim tafovutidan qat'i nazar, so'zdagi pozision, kombinator – umuman ma'lum shart-sharoitlardan kelib chiqib, bir xil talaffuz etilishidir. Omofoniyani yuzaga keltiruvchi komponentlar miqdori ham chegaralangan – ikkitadir. Omonimiyani yuzaga keltiruvchi komponentlar miqdori esa

chegaralanmagan bo'ladi. Uni esa biz o'zbek tilida ikkitadan oltitagacha miqdorda uchratamiz".<sup>18</sup> Ushbu ishda o'zbek tilidagi omonimlarning yuzaga kelishida o'z va o'zlashma qatlam so'zlarning ishtiroki, lug'aviy, fonetik va boshqa omonimlarning o'rni tahlil qilingan.

U omonimiyaning yuzaga kelish yo'llaridan birini shunday izohlaydi:

"Polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi omonimlarning vujudga kelishi uchun asos bo'la oladi. Agar polisemantik so'z ma'nolari quyidagi yo'llar bilan taraqqiy etsa, uning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uziladi, ya'ni u birdan ortiq so'zga differensiatsiya bo'lib, omonim vujudga keladi. Leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'zlar vujudga kelishi uchun ham sabab bo'ladi. Masalan, *musht* so'zidagi ma'no taraqqiyotiga e'tibor beraylik. Uning birinchi ma'nosi "qo'l uchining barmoqlari yumuq holati"dir. "Uning zarbi"ni ifoda etuvchi leksik ma'no esa tobelik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nodir".<sup>19</sup>

Yuqoridagi fikrdan ko'rinadiki, omonimiya hodisasini polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi yuzaga chiqaradi. Aslida esa so'zlardagi ma'no taraqqiyoti asosga olinishi kerak. Omonim so'zning polisemiya bosqichini o'tashi shart emas.

Chunonchi, leksemalarning ifoda planida tasodifan teng kelib qolishi natijasida omonimiyaning yuzaga kelishi ham ko'pgina adabiyotlarda qayd etilgan:

"Omoleksemalarning voqe bo'lishiga olib keladigan sabablar asosan quyidagicha: leksemalarning ifoda planida tasodifan teng kelib qolishi natijasida voqe bo'ladi. Asli har xil ifoda planiga ega leksemalar davrning o'tishi bilan til taraqqiyotining ma'lum bosqichida o'zaro ifoda planida teng kelib qoladi. Demak, bunday omonimiyada leksemalar tovush jihatidan o'zgarishlarga uchragan deb qaraladi. Bunday o'zgarishga ko'pincha unli tovush uchragan bo'ladi. Masalan,

<sup>16</sup> Mirtojiyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi. Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – T.: 1963. -124 b.

<sup>17</sup> Mirtojiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. - 255 b.

<sup>18</sup> O'sha manba, - 267 b.

<sup>19</sup> Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. - 31 b.

bir bo'g'inli leksemalardagi ko'pgina omonimiya asli unli tovushga xos cho'ziqlikning, yumshoqlikning yo'qolishi sababli hosil bo'lgan (bunday farqlanish ba'zi o'zbek shevalarida hozir ham mavjud). Ifoda planining tasodifan teng kelishi natijasida voqe bo'lgan omonimiya:

1. O'zbekcha leksemalar orasida bo'ladi. Ularning ko'pchiligini shunday omonimiya tashkil etadi: *yoq I* ("tomon") – *yoq II* ("yondirmoq") – *yoq III* ("xush kelmoq"); *bel I* ("kishi a'zosi") – *bel II* ("ish qurolining nomi").

2. O'zbekcha leksema bilan o'zlashma leksema orasida: *yor I* ("ikkiga ajratmoq") – *yor II* (toj. "mahbuba").

3. O'zlashma leksemalar orasida:

*soz I* (toj. "musiqa asbobining nomi");

*soz II* (toj. "yaxshi").

*safar I* (ar. "sayohat");

*safar II* (ar. "marta") va boshqalar".<sup>20</sup>

O'zbek adabiy tiliga o'zga tillardan so'z o'zlashtirilishi va buning natijasida o'zbekcha so'z bilan o'zlashma so'z o'rtasida tasodifiy bir xillikning, ya'ni omonimiyaning yuzaga kelishini M.Mirtojiyev quyidagicha izohlagan:

"O'zlashma so'zlarning hech qanday o'zgarishsiz qabul qilinib, o'zbek adabiy tilida omonimiyani yuzaga keltirishi bir necha holatga ko'radir:

1. O'zlashma so'z o'zbek tilidagi o'z leksikaga oid biror so'z bilan fonetik struktura jihatidan tasodifan bir shaklga kelib qoladi. Masalan, tojikcha *bog'* (mevali daraxtzor) so'zi bilan o'zbekcha *bog'* (tugun) so'zi; inglizcha *jaz* (jazz – mis trubali cholg'u asboblari orkestri) so'zi bilan o'zbekcha *jaz* (bir to'g'ram pishgan go'sht yoki yog') so'zi o'zbek adabiy tilida omonimdir.

Bu o'rinda esa o'zlashma so'zlarning fonetik qurilishi turkiy tub so'zlar fonetik qurilishi doirasida bo'lgani omonimiyani yuzaga keltiruvchi tasodifni ro'yobga chiqargan.

2. Turli tillardan o'zlashgan o'zlashma so'zlar o'zbek adabiy tilida omonimiyani yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, forsha *mil* (miltiq stvoli) so'zi bilan latincha *mil* (mille – uzunlik o'lchovi) so'zi; italyanacha *banca* (banca – pul bilan muomala qiluvchi tashkilot) so'zi

bilan polyakcha *banca* (banca – silindrsimon idish) so'zi o'zbek adabiy tilida o'zlashma so'z holatida tasodifan omonimiyani yuzaga keltirgan. Bu o'rinda esa omonimni tarkib toptiruvchi so'zlar geneologik jihatdan bir tarmoqqa oid turli tillardan ekanligi va ular fonetik strukturasi jihatidan bir xil kelishi mumkinligi omonimiyani yuzaga chiqargan.

3. Biror tildagi mavjud omonim o'zbek adabiy tiliga qabul qilinishi mumkin. Masalan, arabcha *asr* (yuz yil va shom); forsha *ud* (cholg'u asbobi va iforli o'simlik ildizi); fransuzcha *kadr* (mutaxassis va kinolentadagi surat) omonimlari o'zbek adabiy tiliga komponentlari bilan qabul qilingan. Bu omonimlar har ikki komponenti bilan bir yo'la o'zlashtirilgan emas. Ularning komponentlari turli davrlarda qabul qilingan".<sup>21</sup>

Prof. Shavkat Rahmatullayev omonimiya va polisemiya hodisalarini o'zaro farqlab olish xususida quyidagicha fikr yuritadi:

"Qiyin masalalardan biri – ma'no taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan omonimiyani polisemiya bilan farqlab olish. Bular orasidagi chegara quyidagicha belgilab yuriladi: "Ma'nolarni bir-biriga bog'lab turuvchi ip, zanjir uzilsa, omonim bo'ladi. Bunday ip, zanjir uzilmagan bo'lsa, ko'p ma'noli so'z bo'ladi". Bunday izohlarni aniq ilmiy talqin deb bo'lmaydi. *Ip, zanjir* deganda nimani tushunish kerak? Bu so'roqqa: "Ma'nodagi umumiylikni, yaqinlikni", - deb javob beriladi. Sememalar orasidagi umumiylik, yaqinlik qay darajada bo'lsa, *ip, zanjir* saqlangan bo'ladi-yu, qay darajada bo'lsa, uzilgan bo'ladi? Buni ob'yektiv belgilash juda qiyin. Bir kishi ip uzildi deb o'ylagan ayni bir hodisani boshqa bir kishi hali ip uzilmagan deb bilishi, ya'ni sub'yektivizmning aralashuvi, tabiiy. Bu masalani hal etishda sememalarning semik tarkibiga suyanib ish tutish ma'qul.

Avvalo, sememaning semantik tuzilishiga mansub "turkum" semasiga asoslanish lozim: sememalar boshqa-boshqa turkumga mansub bo'lsa, ma'nodagi umumiylikning darajasidan qat'i nazar, ularni omonimlar (omoleksemalar) deb hisoblash kerak.

Agar sememalar ayni bir turkumga mansub bo'lsa, ularni bir leksemaga birlashtirishga, demak polisemem leksemaning sememalari deb qarashga moyillik juda kuchli. Asli polisemem leksemani

<sup>20</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 1992. -131 b.

<sup>21</sup> Mirtojiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. - 269 b.

omoleksemalardan farqlab olish xuddi shunday holatlarda muammoga aylanadi.

O'z-o'zidan aniqki, bu o'rinda emotsional-ekspressiv, stilistik semalar nazardan soqit qilinadi. "Turkum" semasi ham (bir xil bo'lgani sababli) bu masalani hal etishda neytrallashadi. Demak, leksik semalar asosga olinadi. Bunda, avvalo, leksik semalarning integral sema yoki differensial sema ekaniga suyanib ish ko'rish ma'lum ijobiy natija beradi. Agar qiyoslanayotgan sememalarning leksik semalar tarkibida integral sema bo'lmasa (ular boshqa-boshqa leksik semalar tarkibiga ega bo'lsa), bu sememalar omoleksemalar deb qaralishi lozim (garchand biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bu sememalar ayni bir turkumga mansub bo'lsa ham): *oy I* ("yerning tabiiy yo'ldoshi") - *oy II* ("o'rta hisobda 30 kunlik vaqt") kabi.

Agar qiyoslanayotgan sememalarning leksik semalar tarkibida integral sema mavjud bo'lsa, yana qo'shimcha kriteriyga murojaat etish zarur bo'ladi. Bunda, jumladan, leksik semalarning dominant sema yoki periferik sema ekani va ularning mavqei hisobga olinadi. Masalan: *kun I* monosemem leksema bo'lib ("yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta"), uning semalar tarkibida dominant sema deb "planeta" semasini ko'rsatish mumkin; *kun II* esa polisemem leksema bo'lib (*kun II* - "ertalabdan kechqurungacha bo'lgan vaqt"), uning sememalari uchun dominant semalik vazifasini "vaqt" semasi bajaradi. Bunday integral dominant sema oshkora yoki potensial holatda qatnashib, sememalarni bir leksemaga birlashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi. Demak, dominant semalarning keskin farqlanishi (har xil bo'lishi) omonimiyaning yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Chuqurroq kuzatsak, *kun I* leksemasining semalar tarkibi bir butun holda (sinonimi *quyosh* leksemasi yordamida) *kun II* leksemasining semalar tarkibida bitta sema tarzida qatnashadi. Xuddi shunday holatni *nafas I, II, tor I, II* kabi omoleksemalarda ham ko'ramiz. Semalar tarkibida kuzatiladigan bunday munosabat ham omoleksemalar haqida gapirish uchun ishonchli asos bo'la oladi.<sup>22</sup>

Prof. B.M.Yunusaliyev omonimlarni so'zning lug'aviy-grammatik rivoji mahsuli, ya'ni bitta so'zga bir necha ma'noni yuklash natijasi deb

hisoblaydi.<sup>23</sup> E.V.Sevortyan omonimlarni fe'l - ot tipli ilk o'zaklar deb nomlagan.<sup>24</sup> Ba'zi olimlar omonimlarni bir so'z turkumiga xos so'zning boshqa turkumga o'tishi natijasi, ya'ni konversiya deb biladilar.<sup>25</sup>

Bir qator olimlar o'zak omonimlarni turkiy tillarning qadimiy rivojlanish davri mahsuli deb qarashadi<sup>26</sup> va bu hodisani so'z yasashning ko'hna usullaridan biri deb hisoblaydilar.<sup>27</sup> Bunday fikrlar A.G'.G'ulomov, G.G.Musaboyev, B.O.Oruzbayeva, I.R.Bekjanovalarning ishlarida mavjud. Yana shunday ilmiy xulosalarning ko'rinishi omonimlar bo'yicha monografik tadqiqot olib borgan K.Axanov,<sup>28</sup> R.Bekjanova,<sup>29</sup> M.Mirtojiyevning<sup>30</sup> tahlillarida ham o'z ifodasini topgan. Omonimlar yuzasidan rus tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.<sup>31</sup>

Turkiy til omonimlarining ilk tadqiqotchisi Mahmud Koshg'ariydir. U yuqorida ham ta'kidlanganidek, omonimlarning materiallarini to'plab-gina qolmasdan, ularga ilmiy izohlar, sharhlar ham bergan. Jumladan, "Devonu lug'atit turk" asarida *o't* so'zining o'simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to'rt xil ma'noda ishlatilishini ko'rsatib o'tgan.<sup>32</sup> Hozirda *o't* so'zi olov, o'tmoq fe'lining o'zagi kabi yangi ma'nolar bilan boyigan.<sup>33</sup>

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, olov ma'nosidagi *o't* so'zi tamoman boshqa o'zakdandir. M.Koshg'ariy bu so'zning aslini *o'rt* deb ko'rsatadi. Buni Alisher Navoiy asarlari ham tasdiqlaydi:

*Quyoshdek olam aro bazm chog'i,  
Jahonga o'rt solib razm chog'i.*

<sup>22</sup> Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология. вып. I., - Фрунзе: 1955. -63 с.

<sup>23</sup> Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. - М.: 1962. -365 с.

<sup>24</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. - Москва. 1956. С.160-61., Реформатский А.А. Введение в языкознание. - Москва: 1967. -88 с., Арнольд И.В.Лексикология современного английского языка. - Москва: 1954. -296 с.

<sup>25</sup> Мелиоранский П.М. Памятник в честь Кюль-Тегина. ЗВД, Т. XII, вып. I-III. -СПб.: 1899. Примичание -22., Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. - Москва: 1952. -178 с.

<sup>26</sup> Севортян Э.В. Соотношение грамматики и лексики в тюркских языках // Вопросы теории и истории языка. - Москва: 1952.

<sup>27</sup> Аханов К. Омонимы в казахском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук - Алма-Ата: 1956. С. 24-30.

<sup>28</sup> Бекжанова Р. Омонимы в киргизском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Фрунзе: 1967. -11 с.

<sup>29</sup> Mirtojiyev M. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida leksik omonimlarning vujudga kelishi // O'zbek tili va adabiyoti. - T.: 1962. - № 1. - B. 63-64.

<sup>30</sup> Bu haqda qarag: WWW. Wikipedid. org.; WWW. Lingvotech. com. Omonim.; http // rachat. net. na / referat.; http // mirrabot. Com / work / work.

<sup>31</sup> Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'atit turk. - T.: 1960. T.I

<sup>32</sup> Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar // Sovet maktabi. - T.: 1954. - № 9. - B. 29-30.

<sup>33</sup> Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar // Sovet maktabi. - T.: 1954. - № 9. - B. 29-30.

<sup>22</sup> Rahmatullayev Sh. Lug'at boyligini o'rganish va o'rgatishda qayta baholash zarur bo'lgan ba'zi masalalar // O'zbek tili va adabiyoti. - T.: 1990. - № 3. - B. 31-32.



Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi tarixiy omonimiyani tadqiq qilish diaxronik aspektida olib boriluvchi alohida ishning ob'yektidir. Bu muammoning ba'zi tomonlari S.Mutallibovning ishlarida qisman tahlil qilingan.<sup>34</sup>

Tarixiy omonimlarni M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi materiallar asosida o'rganish bo'yicha qirg'iz tilshunosi Z.M.Musabayeva keng ko'lamda tadqiqot olib borgan. Ushbu ishda turkiy tillarda omonimlarning yuzaga kelish sababi va usullari haqidagi ilk qimmatli mulohazalar mavjud.<sup>35</sup> Biz o'z ishimizda bularga o'rni bilan murojaat qilamiz va fikrimizni bildiramiz.

O'tgan asr, ya'ni 1950-1960-yillarda turkiy tillar leksikasini tadqiq qilish bo'yicha bir qator sezilarli ishlar qilindi. Binobarin, B.M.Yunusaliyev,<sup>36</sup> G.Musaboyev,<sup>37</sup> Ya.Pinxasov,<sup>38</sup> F.Kamol,<sup>39</sup> va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida omonimiya hodisasiga ham to'xtaldilar.

Tilshunos Faxri Kamol omonimga quyidagicha ta'rif beradi: "Shakli bir, ma'nosi boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar omonimlar gruppasiga kiradi. Omonimlar, asosan bir xil ohangda aytiladi va bir shaklda yoziladi".<sup>40</sup> U o'zining "O'zbek tili leksikasi" ishida omonimlarga kengroq to'xtalgan. Masalan, omonimlarni yuzaga keltiruvchi omillardan quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

1. Ba'zi bir so'zning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashuvi natijasida. Masalan, *kun, oy* so'zlari.

2. Ma'lum so'z, o'zak – negizdan yangi so'zlar yasalishi natijasida. Masalan, *oylik* – "maosh", *oylik* – "reja".

3. Bir tilga ikkinchi bir tildan so'z va termin qabul qilinishi natijasida. Masalan, *tom* – "uyning tepasi", *tom* – "kitobning jildi" ma'nosida.

<sup>34</sup> Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: 1953. – 15 b., O'sha muallif. Omonim va polisemiya so'zlar // Sovet maktabi. – T.: 1954. – № 9. – B. 24-30.

<sup>35</sup> Мусабоева З.М. Омонимы в "Дивану лугатит турк" Махмуда Кашгарского (XI в.). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Фрунзе: 1975.

<sup>36</sup> Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология. ч.1. – Фрунзе: 1955. – 63 б.

<sup>37</sup> Мусабоев Г. Лексика современного казахского языка. Автореф. дис. ... док. филол. наук – Алма-Ата: 1960. – Б. 15-19.

<sup>38</sup> Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. – Toshkent: 1960.

<sup>39</sup> Hozirgi zamon o'zbek tili. – T.: O'zR FA nashriyoti, 1957. – B. 72-77.

<sup>40</sup> Hozirgi zamon o'zbek tili. – T.: O'zR FA nashriyoti, 1957. – B. 72 b.

4. So'zlarning ba'zi tovushlari o'zgarib, boshqa shaklga ko'chishi natijasida omonimlar paydo bo'ladi.<sup>41</sup>

O'zbek tilidagi omonimlar, ularning vujudga kelish yo'llari haqida Ya.Pinxasov,<sup>42</sup> U.Tursunov va N.Rajabovlar<sup>43</sup> ham o'z fikrlarini aytganlar. Bu ishlarga dissertatsiyaning keyingi sahifalarida o'rni bilan to'xtalamiz.

Leksikologiya sohasidagi keyingi tadqiqot ishlari, jumladan, S.Usmonovning "Hozirgi zamon o'zbek tilida omonimlar va sinonimlar" (1958); M.A'lamovaning "Hozirgi zamon o'zbek tilida – ish omomorfemasi haqida" (1962); U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1975); M.Mirtojiyevning "O'zbek tilida polisemiya" (1975); Semasiologiya (O'zbek tili leksikologiyasi, 1981); Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (1984) kabilarda omonimiya hodisasiga olib keluvchi yo'llar haqidagi qarashlar ko'p jihatdan konkretlashgan va umumiy bir fikrga yaqinlashgan. Biroq, ma'no taraqqiyoti bilan bog'liq o'rinlarda omonimiya, shuningdek, polisemiya hodisalarining ko'pincha har xil talqinlardan iborat bo'lib qolishi ilmiy xulosalarda ishonchsizlik va noaniqlikni yuzaga keltiradi. Masalan, tilshunos S.Mutallibov shunday yozadi: "Shuning uchun ham bir-biridan mazmunan farqli va uzoq so'zlar omonim, anglatgan mazmunlari bir-biriga yaqin va bog'liq bo'lgan so'zlar polisemiya so'zlar deb ataladi. Omonim so'zlar bir necha mustaqil so'zlarning alohida sharoit natijasida birlashishidan iborat bo'lsa, polisemiya so'zlar bir so'zning til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq yangi mazmun va ottenkalar bilan boyishining natijasidir".<sup>44</sup>

"O'zbek tili grammatikasi" kitobida: "So'zning tovush tomoni, tabiiy, uning grammatik tomonini ham bildirib turadi. O'zbek tilida so'zning fonetik strukturasi undagi so'zlarning eng ko'pi, asosiy qismi, bir va ikki bo'g'inli so'zlardan iborat ekanligi (bir bo'g'inli so'zlarning asosiy qismi tarixan ko'p ma'noli). Masalan, *paqir* so'zi aslida metalni, mis, jezni bildirgan, bu metallardan ishlangan chelak va tanga – mayda

<sup>41</sup> Faxri Kamol. O'zbek tili leksikasi. – Toshkent: O'zR FA nashriyoti, 1953. – B. 29-30.

<sup>42</sup> Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. – Toshkent: 1960.

<sup>43</sup> Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.

<sup>44</sup> Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar // Sovet maktabi. – Toshkent: 1954. – № 9. – B. 29-30.

chaqa pul ham shu soʻz bilan atalgan, keyin bu soʻzlar orasidagi bogʻlanish uzilib, leksik omonimlar hosil boʻlgan. Umuman, tilda bir boʻgʻinli soʻzlarning koʻp boʻlishi va polisemiyaning keng tarqalishi bir-biri bilan bogʻliq<sup>45</sup>, deb taʼkidlanadi.

Darsliklarning yana birida “Omonimiyaga olib keluvchi asosiy hodisalardan yana biri, birdan ortiq soʻzning talaffuz jihatdan tasodifan mos kelib qolishidir”<sup>46</sup> - deb taʼkidlanadi.

Oʻzbek tilining soʻz zahirasi boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar koʻp uchraydi. Xususan, “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da ham maʼlum miqdorda oʻzlashgan soʻzlar ishtirokini koʻrish mumkin.

Professor M.Mirtojiyev oʻzbek adabiy tilini boyituvchi manbalardan quyidagi ikki usulni koʻrsatib oʻtadi<sup>47</sup>:

1. Chet tillardan soʻz oʻzlashtirish;
2. Dialektlardan adabiy tilga soʻz olish.

Oʻzbek adabiy tiliga chet tillardan soʻz oʻzlashtirilishi ham omo-  
leksemalarni yuzaga keltiradi. Bunday omo-  
leksemalar tilshunoslikka  
oid koʻpgina adabiyotlarda chatishma omonimlar deb beriladi. Omo-  
nimiyaning bu koʻrinishi turkiy tillarda koʻplab uchraydi.

Oʻzbek xalqi tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida eroniy xalqlar, arablar, moʻgʻullar va ruslar bilan madaniy munosabatda boʻldi, ulardan allaqancha soʻzlar oʻzlashtirildi. Shuningdek, rus tili orqali bir qator Yevropa xalqlari tilidan ham oʻzbek tiliga soʻzlar qabul qilindi. Oʻzbek tiliga turli tillardan qabul qilingan baʼzi soʻzlar fonetik strukturasi jihatidan bir shaklga kelib qolishi ham omonimiyani yuzaga keltiradi.

Omo-  
leksemalarning yuzaga kelish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni oʻz ichida quyidagicha guruhlariga boʻlish maqsadga muvofiqdir:

- 1) oʻzbekcha leksemalarning omonim boʻlishi;
- 2) oʻzbekcha leksema bilan oʻzlashgan leksemaning omonim boʻlishi;
- 3) oʻzlashgan leksemalarning oʻzaro omonim boʻlishi.

<sup>45</sup> Oʻzbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1975. T. I. -19 b.

<sup>46</sup> Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. -112 b.

<sup>47</sup> Mirtojiyev M. Soʻzlarning shakliy munosabatiga koʻra tiplari // Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. - 268 b.

## II BOB.

### OʻZBEK TILIDA OMOLEKSEMALARNING YUZAGA KELISHI

#### 2.1. Tovush oʻzgarishlari natijasida hosil boʻlgan omo- leksemalar

Tildagi soʻzlarning tovush tarkibi oʻzgarishi natijasida ham omo-  
leksemalar yuzaga keladi. Bunday tovush oʻzgarishlari turlicha boʻlib, bir tilning oʻzida, koʻpincha, soʻzlar shaklda tasodifan oʻzaro teng kelib qoladi. Aslida har xil shaklli soʻzlar vaqt oʻtishi bilan til taraqqiyotining muayyan bosqichida, soʻzlarning tovush tarkibida asta-sekin oʻzgarishlar yuz berishi natijasida oʻzaro shaklan teng kelib qoladi.

“Omo-  
leksemalar asli har xil fonemalar tarkibiga ega boʻlib, til taraqqiyotining keyingi bosqichida tovush oʻzgarishiga uchrab, bir xil talaffuz qilinadigan boʻlib qoladi.”<sup>48</sup>

Soʻz tarkibidagi tovush oʻzgarishi – tovush almashinishi, tushishi, ortishi va boshqalar shu soʻzning boshqa bir soʻz bilan bir xil aytilishi va yozilishiga olib keladi. Baʼzan soʻzlarning tovush tarkibida miqdor oʻzgarishlari bilan birgalikda sifat oʻzgarishlari ham kuzatiladi. Bunday tovush oʻzgarishlarini quyida misollar vositasida tadqiq etamiz:

#### 1. Oʻzbekcha leksemalarning omonim boʻlishi

Omo-  
ifodadagi birinchi leksemaning unlisi aslida choʻziq talaffuz etilgan. Keyinchalik unda miqdor oʻzgarishi roʻy bergan, yaʼni unlidagi choʻziqlik yoʻqolgan. Bu esa leksema tarkibidagi unlining qisqa aytilishiga va boshqa bir leksema bilan bir xil yozilishiga sabab boʻlgan.

Nutq jarayonida tovushlarning farqlanuvchi belgilari har qanday sharoitda ham saqlanib qoladi, farqlanmovchi belgilari esa tovushning soʻzdagi tutgan oʻrni gapiruvchining nutqiy xususiyatlariga koʻra oʻzgarib turishi mumkin. Har qanday oʻzgarish yangi nutq tovushini, yaʼni yangi fonni tashkil etadi.<sup>49</sup> Soʻzlarning talaffuzidagi tadrijiy

<sup>48</sup> Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1984. - 8 b.

<sup>49</sup> Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. - 31 b.

o'zgarishlar uning yozuvida ham tegishli o'zgarishlarni ro'yobga chiqaradi. Masalan:

**bit I** ot, unlisi cho'ziq, "odam yoki hayvon tanasida uning qonini so'rib yashaydigan parazit hasharot". *Qizchaning boshida bit paydo bo'libdi.*

Qadimgi turkiy tilda ushbu so'zning i unlisi cho'ziq va shunday ma'noni anglatgan, **bi:t** tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, II, 152; O'TEL, 54), keyinroq **i**: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (DS, 103): **bi:t** → **bit**.

**bit II** fe'l, "tuga", "tamom bo'l". *Ishi bitdi, eshagi loydan o'tdi.* (Maqol) Qadimgi turkiy tilda bu fe'l asli **bu:t** tarzida talaffuz qilingan. keyinroq **u** unlisi i unlisiga almashgan (DS, 133; ESTYA, II, 153): **bu:t** → **but** → **bit**.

**bit III** fe'l, "o'sib-un", "hosil ber". *Bu yerlarda turup yaxshi bitadi.* Bu fe'l qadimgi turkiy tilda ham xuddi shu ma'noni anglatgan (Devon, II, 340; DS, 133).

**och I** sifat, unlisi cho'ziq, "qornida, me'dasida ovqat qolmagan, ochiqqan, ovqat tusab qolgan". *Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q.* (Maqol) Ayrim lug'atlarda mazkur leksemaning "holat", "ingichka", "kichkina" kabi ma'nolari ham qayd etilgan (O'TIL, I, 551). Qadimgi turkiy tilda bu sifat **a:ch** tarzida cho'ziq talaffuz qilingan (Devon, I, 108; ESTYA, I, 208), keyingi davrlarda **a**: unlisi o'zining cho'ziqlik belgisini yo'qotgan (DS, 3; PDP, 353). O'zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan **a:ch** → **ach** → **och**

**och II** sifat, "kuchsiz, nimxush" (rang-tus haqida). *Daraxtlarning och yashil barglari shamolda tebranadi.*

**och III** fe'l, "ochiq holatga keltir". *Qori tugunchani ochib, o'rikdan ikkitasini Siddiqjonga uzatdi.* (A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari") Qadimiy turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu fe'l asli **ach** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 176; DS, 3; PDP, 353). Keyinchalik **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: **ach** → **och**.

**uch I** ot, unlisi cho'ziq. 1) "biror narsaning boshlanish yoki tugash qismi". *Tayoqning uchi bo'lma, o'rtasi bo'l.* (Maqol) Qadimgi turkiy tilda bu ot **u:ch** tarzida cho'ziq talaffuz qilingan (ESTYA, I, 611); keyinchalik **u**: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (Devon, I, 79; DS, 603): **u:ch** → **uch**.

2) "narsalarning ingichkalashgan o'tkir tomoni". *Nayzaning uchi yerga qadaldi.*

3) "qo'l, oyoq va boshqalarning tanaga qarama-qarshi tomoni, tugallanish qismi". *Cho'chib-cho'chib, yurak urib, oyoq uchi bilan yurib o'likka yaqinlashdik.* (G'afur G'ulom, "Shum bola")

4) "to'rtburchak buyumlarning tomonlari tutashgan joyi, burchagi". *Qiyiqning qarama-qarshi uchlarini bog'lab tugmoq.* (O'TIL, II, 285)

**uch II** son, "ikki bilan to'rt oralig'idagi butun, sanoq son". *Soat uch bo'ldi.*

Qadimgi turkiy tilda bu so'z **o'ch** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 71; DS, 621; PDP, 440; ESTYA, I, 641). O'zbek tilida **o'** unlisi **u** unlisiga almashgan: **o'ch** → **uch**.

**uch III** fe'l. 1) "havo bo'ylab harakatlan". *Qush uchsa, qanoti kuyadi.* (O'TOIL, 145)

2) "biror qirradi cho'rt uzilib tushmoq". *Bitta tokchadagi cheti uchgan uch-to'rtta piyola va bir qora qumg'on ...* (Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar")

3) "beixtiyor berilmoq", "laqillamoq". *Dildor uning so'zlariga uchgan, menga bergan va dasidan qaytgan.* (Hamid G'ulom, "Binafsha atri")

**o'ch I** ot, unlisi cho'ziq, "adovat", "qasos". *Shundan keyin u o'ch olish payida bo'ldi.*

Qadimgi turkiy tilda bu so'z tarkibidagi **o'** unlisi cho'ziq talaffuz qilingan **o':ch** (ESTYA, I, 558). O'zbek tilida, keyinchalik bu unlining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (Devon, I, 79; DS, 376; PDP, 405): **o':ch** → **o'ch**.

**o'ch II** sifat, "nihoyatda berilgan", "hirs qo'ygan". *O'g'lim shirinlikka juda o'ch.* (O'TEL, 496)

Bu sifat ham qadimgi turkiy tilda **o':ch** tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, I, 559). Keyingi davrlarda bu so'z tarkibidagi unlining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: **o':ch** → **o'ch**.

**o'ch III** fe'l, unlisi qisqa, "yonishdan to'xta", "so'n". *Samandarov... o'chib qolgan maxorkasini chiroqdan tutatib oldi.* (Abdulla Qahhor)

Yuqoridagi omoleksemalarning yuzaga kelishida unlilar tarkibidagi miqdor o'zgarishlari asos bo'lsa-da, ba'zan ular bilan birgalikda sifat o'zgarishlari ham kuzatildi. So'zning turli o'rinlarida keladigan tovushlarni ifodalaydigan harflar imlosiga ham o'ziga xos tarzda yondashishga to'g'ri keladi.<sup>50</sup> Bundan keyingi tahlillarimiz aniqroq bo'lishi uchun omoleksemalardagi tovush o'zgarishlarini o'z o'rnida tasvirlab boramiz.

Unli tovushlar yumshoq yoki qattiq talaffuz etilishiga qarab o'zaro farqlanadi. Ana shu sifatlarning biri vaqt o'tishi bilan barham topishi ham mumkin. Xuddi shunday sifat o'zgarishlari ro'y berganda, tabiiy ravishda so'zlar tarkibida bir xillik yuzaga keladi, ya'ni omonimiya hosil bo'ladi.

#### *Unlisi qattiq – unlisi yumshoq:*

**tuz I** ot, unlisi qattiq. 1) "kislota tarkibidagi vodorod o'rnini biror metall egallashi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalarning umumiy nomi". *Sulfat kislota tuzlari*. (O'TIL, II, 218)

2) "ovqatga namagini rostlash uchun solinadigan, oq, kristall modda", "natriy xlorid". *Taom tuz bilan, tuz o'lchovi bilan*. (Maqol)

3) "kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati". *Men sizga uy berdim, vaqtida tuz berdim, peshonangizni siladim*. (Abdulla Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari")

Bu ot qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan (ESTYA, III, 288) va **tu:z** tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik **u:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (Devon, III, 308; DS, 594; PDP, 435): **tu:z** → **tuz**.

**tuz II** ot, unlisi yumshoq, "tekis yer", "tekislik". *Tuganmas konimizdir: tog' bilan tuz*. (Habibiy)

Qadimgi turkiy tilda bu ot **to'z** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 314, III, 135; PDP, 436). O'zbek tilida **o'** unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 355): **to'z** → **tuz**.

**tuz III** fe'l, unlisi yumshoq, "qismlarni tartibga sol, yarat". *Ertangi ishga bugun ryeja tuz*. (Maqol)

**o'r I** fe'l, unlisi qattiq, "biror o't-o'lanni yer sathidan kesib ol". *Nima eksang, shuni o'rasan*. (Maqol)

**o'r II** ot, unlisi yumshoq, "tepalik".

*Suluv qizsan, senga tolib ko'p bo'lar*,

*O'rdan, qirdan necha turli gap bo'lar* ("Ravshan").

Bu ot qadimgi turkiy tilda "tepaga harakatlan" ma'nosini anglatgan **o:r** fe'lidan ajralib chiqqan (ESTYA, I, 542). Keyinchalik **o** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (DS, 388). O'zbek tilida esa yumshoqlik belgisi barham topgan (O'TEL, 484): **o:r** → **or** → **o'r**.

**o'r III** fe'l, unlisi yumshoq, "bir-biriga chirmab esh". *Kampir nevarasining sochini o'rib qo'ydi*.

Qadimgi turkiy tilda bu fe'lning unlisi yumshoq va cho'ziq talaffuz qilingan (ESTYA, I, 544). Keyinroq unli tovushning mazkur sifatlari barham topgan (Devon, I, 183; O'TEL, 484): **o:r** → **or** → **o'r**.

**o'r IV** ot, "chuqurlik", "xandaq". *Front orqasida o'r qazib turganda Mulla Obiddan o'ttiz metrcha nariga bir katta to'p o'qi tushib, qattiq tovush chiqarib yoriladi*. (Abdulla Qodiriy, "Obid ketmon")

Bu ot aslida "kavla" ma'nosini anglatuvchi **o'r** fe'lidan kelib chiqqan (ESTYA, I, 466). Hozirgi o'zbek tilida kam ishlatiladi. Xalq jonli tilida **o'r (a)** shaklida ham qo'llanadi: *O'raga tushding – guldurgup*. (Maqol)

**is I** ot, unlisi qattiq, "tutun", "dud". *Xazon yoqqan edim, hovli isga to'ldi*.

Qadimgi turkiy tilda bu ot **ish** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 73; DS, 220). O'sha davrlardayoq **sh** undoshi **s** undoshiga almashgan (ESTYA, I, 380). O'zbek tilida **is** unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 122): **ish** → **is** → **is**.

**is II** ot, unlisi qattiq, "tutun yoki chang sababli hosil bo'ladigan ipir-ipir narsalar". *Yozgi oshxonaning shipidan islar osilib turibdi*.

**is III** ot, unlisi yumshoq, "hid", "bo'y". *Bog'ma-bog' oshib shamol dimoqqa allaqanday xushbo'y islarni olib keladi*. (Said Ahmad, "Hukm") Bu ot asli qadimgi turkiy tilda **yi:s** shakliga ega bo'lib (ESTYA, I, 381), eski o'zbek tilida **y** undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan (KRS, 304; TRS, 281), hozirgi o'zbek adabiy tilida **i:** unlisining cho'ziqlik belgisi barham topgan (O'TEL, 123): **yi:s** → **i:s** → **is**.

<sup>50</sup> Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 6 b.

**Unlisi cho'ziq-unlisi qisqa va qattiq:**

**o't I** ot, unlisi cho'ziq, "olov". *Yer to'ydirar, o't kuydirar.* (Maqol) Qadimgi turkiy tilda bu ot **o:t** tarzida cho'ziq talaffuz qilingan (ESTYA, I, 143). O'sha davrlardayoq **o:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qola boshlagan (DS, 373; PDP, 405): **o:t** → **ot** → **o't**.

**o't II** ot, unlisi qisqa va qattiq, "giyoh". "ko'kat", "yashil o'simlik". Qadimda bu so'z ham **o:t** tarzida cho'ziq talaffuz qilingan, keyinchalik **o** unlisi **o'** unlisiga almashgan (O'TIL, II, 517). *Tog'da yovvoyi o'to'lanlar ko'p bo'ladi.*

**o't III** ot, unlisi qisqa va qattiq, "jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish-yashil rangli, achchiq suyuqlik". Jigarning pastki qismida **o't** pufagi joylashgan. Bu ot qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noda ishlatilgan va asli **o:d** tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, I, 504), keyinchalik **o:** unlisining cho'ziqlik belgisi barham topgan (Devon, I, 79, DS, 391; PDP, 407). O'zbek tilida bu unlining yumshoqlik belgisi yo'qolgan hamda so'zning tarkibidagi undosh almashgan (O'TEL, 491): **o:d** → **o:t** → **o't** → **ot** → **o't**.

**o't IV** fe'l, unlisi qisqa, "bir nuqtadan boshqa bir nuqtaga harakatlan". *Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi.* (Maqol) Bu fe'l qadimda **o't** tarzida talaffuz qilingan va xuddi shu ma'noni anglatgan (Devon, I, 182; DS, 391; PDP, 407). Hozirgi o'zbek adabiy tilida **o** unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 491); **o't** → **ot** → **o't**.

O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelishida so'zlar tarkibida miqdor, sifat o'zgarishlari bilan birgalikda tovush almashishi, tovush ortishi va tovush tushishi kabilar ham ishtirok etadi. Ularni o'z ichida guruhlaymiz.

So'zning boshida undosh tovush almashadi:

**paqir I** ot, "chelak". *Bog'dan bir paqir anor uzib chiqdi.* Bu so'z qadimgi turkiy tilda "mis" ma'nosini anglatgan **baqyr** so'zidan kelib chiqqan (Devon, I, 341; DS, 82). Mis → misdan yasalgan idish (ESTYA, II, 46). So'zning tarkibida quyidagicha tovush o'zgarishlari ro'y bergan: **b** undoshi **p** undoshiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 267): **baqyr** → **paqyr** → **paqir**.

**paqir II** ot, "qiymati ikki tiyinga teng bo'lgan, misdan yasalgan pul". *So'zimga ishon, boshqa bir paqir ham pulim yo'q.* (I. Akram, "Adolat") Bu so'z ham birinchi leksema singari tovush o'zgarishlarini

boshdan kechirgan va **baqyr** so'zidan o'sib chiqqan (Devon, I, 341; DS, 82). Mis → misdan yasalgan pul (ESTYA, II, 45).

**So'zning boshida undosh tovush ortadi:**

**yut I** fe'l, "bo'g'iz muskullari ko'magida og'izdagi narsani tomoqdan ichga o'tkaz". *Yutganim – o'zimniki, chaynaganim – gumon.* (Maqol) Bu fe'l qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noda ishlatilgan, **yu:t** tarzida talaffuz etilgan (Devon, II, 363; DS, 282). Keyinchalik **u:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 189): **yu:t** → **yut** → **yut**.

**yut II** fe'l, "muvaffaqiyat qozon", "yutuqqa erish", "g'olib bo'l, yeng". *Ukam erkin kurashda barcha raqiblarini yutdi.* Qadimda bu fe'l asli **ut** tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik so'z boshida undosh tovush ortgan (Devon, I, 181; DS, 617; KRS, 809; PDP, 439): **ut** → **y + ut** → **yut** → **yut**.

**So'zning boshida unli tovush almashadi:**

**ot I** "ism". *Oting nima, jiyon? – Otim Yo'lchi.* (Oybek, "Qutlug' qon") Bu so'z qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan, **a:t** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 107; ESTYA, I, 198). Keyinchalik tilning ma'lum bir taraqqiyot bosqichida **a:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (DS, 64; PDP, 361). O'zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan (O'TEL, 258): **a:t** → **at** → **ot**.

**ot II** "yirik ish-ulov hayvoni". *Itni qopmas deb bo'lmas, otni tepmas deb.* (Maqol) Bu so'z qadimda **at** deb talaffuz etilgan (DS, 65; PDP, 361). Turkiy tilda qiyosiy tilshunoslikning asoschilaridan biri Mahmud Koshg'ariy bu so'zni "qattiq talaffuz qilinadigan alif bilan" deb alohida ta'kidlagan (Devon, I, 70). O'zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan (O'TEL, 258): **at** → **ot**.

**ot III** fe'l, "tashla", "uloqtir". *Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.* (Xalq iborasi)

**So'zning o'rtasida unli tovush almashadi:**

**yoz I** fe'l, "yoyiq holatga o'tkaz". *Bostirmada Ziyodaxon supra yozib, un elab o'tirar edi.* (Abdulla Qahhor) Bu fe'l qadimgi turkiy

tildagi ya soʻzidan yasalgan (ESTYA, IV, 71). Oʻzbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan (OʻTEL, 162): ya + z → yaz → yoz → yoz.

**yoz II** feʼl, “tovushlarni maʼlum shakllar bilan qogʻozda yoki boshqa biror narsada aks ettir”. *Qachon xat yozgandim senga, bilmayman.* (Muhammad Yusuf, “Koʻnglimda bir yor”) Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu feʼl yaz tarzida talaffuz qilingan (Devon, III, 66; DS, 250; PDP, 386). Oʻzbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan (OʻTEL, 161): yaz → yoz → yoz.

**Yoz** soʻzining “fasl” maʼnosi ham mavjud boʻlib, ilmiy adabiy manbalarda bunga omoleksema sifatida qaralgan (OʻTIL, I, 253; OʻTEL, 161), bizningcha, bu soʻzga yuqoridagi feʼllardan birinchisining hosila maʼnosi deb, yaʼni polisemiya deb qarash maqsadga muvofiq.

**yop I** feʼl, “berkit”. *Qutidor darvozani yopib, shildir-shildir zanjir-larni bogʻlay boshladi.* (Abdulla Qodiriy, “Oʻtgan kunlar”). Bu soʻz qadimda yap tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, IV, 127). Oʻzbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan (OʻTEL, 170): yap → yop → yop.

**yop II** feʼl, “tandirda pishir”. *Har kuni ikki yuz qozon osh damlanar, sakkiz yuz tandir non yopilar edi.* (Abdulla Qodiriy, “Mehrobdan chayon”)

Omoifodadagi ikkinchi leksema asli “yopishtir” maʼnosidagi feʼldan kelib chiqqan (Devon, III, 65). Uning keyinchalik paydo boʻlgan “tandirda pishir” maʼnosi soʻzlardagi maʼno taraqqiyotining mahsulidir. Oʻzbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan. Mana shu tovush oʻzgarishi omonimiya hodisasini yuzaga chiqargan.

## 2. Oʻzbekcha leksema bilan oʻzlashgan leksemaning omonim boʻlishi

Tovush oʻzgarishlari natijasida yuzaga kelgan omonimlar oʻzbekcha leksema bilan oʻzlashgan leksemalar orasida ham mavjud. Bunda bitta omoifodaga birlashuvchi soʻzlarning biri oʻzbekcha boʻlsa, boshqasi oʻzlashgan soʻz boʻladi. Odatda ulardan biri – oʻzbekcha soʻz yoki oʻzlashgan soʻz tarkibida muayyan tovush oʻzgarishlari roʻy beradi. “Turli oilaga mansub tillarning leksemasi boʻlgani sababli bunday omoleksemalar oʻz-oʻzidan asli farqli talaffuz qilingan, oʻzbek

tili manbaida talaffuzdagi farq yoʻqolib, omoleksemalar yuzaga kelgan”.<sup>51</sup>

Soʻzning tarkibidagi tegishli tovush oʻzgarishi tabiiy ravishda uning boshqa bir soʻz bilan bir xil talaffuz etilishi va fonetik yozuv meʼyorlariga asosan bir xil yozilishiga olib keladi. Quyida ana shunday omoleksemalarni tovush xususiyatlari va ularning oʻzgarib borishiga qarab tasnif qilamiz:

**chang I** ot, unlisi qattiq, “mayda zarra kukun holiday tuproq yoki boshqa moddalar”. *Yolgʻiz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongʻi chiqmas.* (Maqol) Bu oʻzbekcha leksema qadimda chang tarzida qattiq talaffuz qilingan (KRS, 844), hozirgi oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan (OʻTEL, 413): chang → châng. Soʻz oʻrtasidagi unli oʻzining qattqlik belgisini yoʻqotgan. Bunday tovush oʻzgarishi ushbu soʻzning boshqa bir oʻzlashgan soʻz bilan bir xil aytilishi va yozilishiga sabab boʻlgan.

**chang II** (tojikcha) ot, unlisi yumshoq “simli, urib chalinadigan cholgʻu asbabi”. *Choyxonada dutor, chang, shaxmat, devor soati paydo boʻldi.* (Abdulla Qahhor, “Qoʻshchinor chiroqlari”) Shu leksemadan keyinchalik ogʻizda puflab, barmoqlar yordamida chalinadigan oʻzbek milliy musiqa asbobi – changovuz soʻzi (ayrim shevalarda changovuz deb ham aytiladi) paydo boʻlgan.

**chang III** (tojikcha) ot, unlisi yumshoq, “panja, changal”. *Endi qutulasan Rustam changidan.* (“Rustamxon”)

**avra I** feʼl, “ishontirish maqsadida yolgʻon – yashiq gaplar gapir”. *Baqqol bu soʻzlarni eshitmaganday avrayverdi: - Men sizning foydangizni oʻylayman.* (Oybek, “Qutlugʻ qon”) Bu feʼl qadimgi turkiy tildagi “tinch” maʼnosini anglatuvchi **абыр** sifatidan –а qoʻshimchasi bilan yasalgan (ESTYA, I, 59). Keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan, oʻzbek tilida **b** undoshi **v** undashiga almashgan (OʻTEL, 20): **абыр+а** → **абыра** → **abra** → **avra**.

Koʻrinadiki, mazkur oʻzbekcha leksema tarixan bir necha tovush oʻzgarishlari: sifat oʻzgarishlari, tovush almashinishi kabilar bilan birgalikda soʻz yasalihi ham amalga oshgan. Bular oʻz navbatida quyidagi tojikcha leksema bilan omonimiyani vujudga keltirgan:

<sup>51</sup> Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1984. - 9 b.

**avra II** (tojikcha) ot, “kiyim yoki ko‘rpaning tashqi qismi”. *To‘ning avrasida mayda chiziqlar bor edi.* Bu tojikcha so‘z o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan va o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan **avra I** leksema bilan omonim bo‘lib qolgan.

**chakka I** ot, “bosh suyagining yonoq bilan peshona oralig‘idagi ikki yon qismi”. *Qudrat tomog‘idan ovqat o‘tmay, ikki qo‘li chakkasida, xayol surib ketdi.* (Hakim Nazir) Bu o‘zbekcha leksema asli “poyon”, “chegara” ma‘nosini anglatuvchi **chek** otidan - a qo‘shimchasi bilan yasalgan sifat bo‘lib (O‘TEL, 407), keyinchalik sifatlanmishsiz qo‘llanib, otga ko‘chgan. Qo‘shimcha qo‘shilganidan keyin **k** undoshi ikkilangan, ye unlisi **a** unlisiga almashgan: **chek + a** → **chekka** → **chakka**.

Tildagi so‘zlarning ma‘no taraqqiyoti, shuningdek, tovush o‘zgarishlari yoki tovush taraqqiyoti to‘xtovsiz jarayon bo‘lib, ular turli munosabatlarni, jumladan, shakl va ma‘no munosabatlarini ham ro‘yobga chiqaradi. Xususan, tildagi omonimiya hodisasi so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatlaridan biridir. Xuddi shunday **chakka I** leksemasi tarkibidagi tovush o‘zgarishlari uni tojik tilidagi **chakka II** leksemasi bilan bir xil shaklga olib kelgan: **chakka II** (tojikcha) ot, “erigan qor yoki yomg‘ir o‘tib, tomdan, shipdan uying ichiga tomayotgan suv, tomchi”. *Tomdan chakka o‘taypti.* (O‘TIL, II, 350)

**bog‘ I** (tojikcha) ot, “mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni, mevazor”. *Kuzda olma va behilar, uzum boshlarini terib olar ekan, saxovati uchun bog‘ga minnatdorchilik bildirardi* (Fotima Sharipova, “Abadiyat ibtidosi”).

**bog‘ II** ot, “bog‘lash uchun xizmat qiladigan buyum”, “to‘dalab, dastalab bog‘langan narsa”. *Ho‘l novdalardan qilingan bog‘. Ikki bog‘ piyoz, bir bog‘ kashnich oldim.* Bu ot leksema qadimgi turkiy tildagi “biriktir” ma‘nosini anglatgan **ba:** fe‘lidan (DS, 76) -g‘ qo‘shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, II, 16), keyinchalik **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan (Devon, III, 166), o‘zbek tilida **a** unlisi o unlisiga almashgan (O‘TEL, 63): **ba:+g‘** → **ba:g‘** → **bag‘** → **bog‘**.

Tojik tilidan o‘zlashgan **bog‘ I** leksema o‘zbek tilidagi bog‘lash (mahkamlash) uchun xizmat qiladigan narsa ma‘nosidagi **bog‘ II** leksema bilan shaklan bir xil bo‘lib qolgan. **Bog‘ II** leksemadagi qadimgi turkiy tilga xos **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi o‘sha

davrlardayoq yo‘qolgan va bu unli hozirgi o‘zbek adabiy tilida o unlisiga aylangan.<sup>52</sup>

O‘zbekcha “ot” ma‘nosidagi **toy I** leksemasi bilan tojik tilidan o‘zlashgan “bog‘lam” ma‘nosidagi **toy II** leksemasi va tojik tilidan o‘zlashgan “sabzavot” ma‘nosidagi **turp I** leksemasi bilan o‘zbekcha “qoldiq to‘pon” ma‘nosidagi **turp II** leksemalari ham yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan omoifodalar sirasiga kiradi.

### 3. O‘zlashgan leksemalarning o‘zaro omonim bo‘lishi

O‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan leksemalar ham tovush o‘zgarishlari tufayli o‘zaro omonimiya hosil etadi. Bunday omoifodalar bir tilga yoki turli tillarga mansub bo‘lishi mumkin. Bu hodisa keng ko‘lamli bo‘lib, bir til birligi doirasidan chiqib, boshqa til birliklarini ham qamrab oladi. Quyida o‘zlashgan leksemalar orasidagi omonimiyani tovush o‘zgarishlari va ularning xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etamiz:

So‘zning oxirida unli tovush tushadi:

**par I** (tojikcha) ot, “parranda tanasini qoplab turadigan yumshoq va nafis pat”. *Shahodatxon Xitoydan par yostiqlar olib keldi.*

**par II** (ruscha) sifat, “juft”, “birga ishlatiladigan ikkita bir xil narsaning biri, bittasi”. *Uyda oyoq kiyimi bir necha par: chuvak, mahsi, sandal, kalish, tuflilar.* (G‘afur G‘ulom)

Rus tili va ular orqali boshqa tillardan kirgan atamalar ham o‘zbek tilida keng ishlatiladi. Bunday so‘zlarning ma‘nosini sharhlash, imlosi va ma‘nosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish, matnlar yaratish dars jarayonida katta foyda beradi. Turli sohalar bo‘yicha olinma so‘zlarning ro‘yxatini olish, ularning lug‘aviy ma‘nolari ustida ishlash kabi amaliy ishlar izchillik va o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsagina, bunday so‘zlar talabalarining so‘z boyligini oshiradi, ularning nutqiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, matn yaratish mahoratining oshishiga xizmat qiladi.<sup>53</sup>

**Par II** leksemasi asli lotincha bo‘lib, avval nemis, so‘ngra rus va rus tili orqali o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan (O‘TOIL, 101). O‘zlashish jara-yonida quyidagi tovush o‘zgarishlari ro‘y bergan:

<sup>52</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili lug‘atining turkiy qatlami. – Toshkent: Universitet, 2001. - 83 b.

<sup>53</sup> To‘xliyev B. va b. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. - 79 b.

1) lotinchadan nemis tiliga o'tganda so'z o'rtasidagi unli cho'zilgan: **rar** → **paar**.

2) nemischadan rus tiliga o'tganda so'z o'rtasidagi cho'ziq - a: unlisi qisqarib, so'zning oxirida unli orttirilgan: **raar** → **para**.

3) Ruschadan o'zbek tiliga o'zlashganda so'zning oxiridagi a unlisi tushgan: **para** → **par**.

Bu leksema o'zlashish jarayonida tovush o'zgarishlaridan epenteza – “so'z o'rtasida va oxirida tovush ortishi”, sinkopa – “so'z o'rtasida va oxirida tovush tushishi” kabi hodisalarni bosib o'tgan.

**par III** (ruscha) ot, “namlikning yoki qattiq moddalarning bug'lanishi bilan hosil bo'ladigan gazsimon holat”. *Hammomning pariga tushish inson sog'ligi uchun foydalidir*. Rus tilidan o'zlashgan **par** leksemasining omonim sifatida ko'rsatilgan “bir mavsum davomida tozalash uchun ekinsiz qoldirilgan dala”, “maydon” ma'nolari (SRYA, 443) o'zbek tilida mavjud emas. Par II sifat leksemasi tarkibidagi tovush o'zgarishlari esa omonimiya hodisasini yana bittaga oshirgan.

So'zning boshida undosh tovush almashadi:

**pand I** (tojikcha) ot, “o'gitli gap, nasihat”. *Mana bugun yana bir pand berib, nasihat qilmoqchi bo'lib kelgan edim, tuzuk, ish o'nglanib ketganga o'xshaydi*. (Shuhrat)

**pand II** (tojikcha → fand – “aldash”) ot, “aldamoq, aldab ziyon keltirmoq, firib bermoq”. *Yaxshidan qand yeysan, yomondan – pand*. (Maqol)

Mazkur o'zlashma omoleksemalarning ikkinchisida tovush o'zgarishi ro'y bergan (O'TOIL, 101): so'z boshidagi sirg'aluvchi, lab undoshi **f** portlovchi, jarangsiz lab undoshi **p** ga almashgan.

So'zning oxirida unli tovush tushadi:

**alif I** (arabcha) ot, “arab alifbosidagi birinchi harfning nomi”.

*U anatomiyadan alifni ham bilmaydi*. Bu leksema o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan bo'lib, arab alifbosidagi birinchi harf nomini ifodalaydi. Arab xatida, shuningdek, arab xatiga asoslangan eski o'zbek yozuvida fatxaning cho'ziqligi, shuningdek, hamza belgisining asosi sifatida keng qo'llaniladi (ARS, 23).

**alif II** (ruscha → olifa, yunoncha → alifa – “moy”) ot, “zig'ir yog'dan qizdirib tayyorlangan va bo'yoqchilikda ishlatiladigan moy”.

*Bu bo'yoqqa ko'p alif qo'shib bo'lmaydi*. Bu leksema asli yunoncha bo'lib, o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan. O'zlashish jarayonida so'zning boshidagi o unlisi a unlisiga almashgan va so'zning oxiridagi a unlisi tushgan. Bunday tovush o'zgarishlari natijasi o'laroq omonimiya reallashgan.

## 2.2. Affiksatsiya natijasida hosil bo'lgan omoleksemalar

“Til taraqqiyoti jarayonida uning barcha sohalarida (masalan, leksikasi va grammatik qurilishida) bo'lgani kabi, so'z yasalishi sohasida ham turli o'zgarishlar ro'y beradi.. Hozirgi o'zbek adabiy tilida asli u yoki bu usul bilan hosil bo'lgan so'zlar (ya'ni yasama so'zlar) ko'p miqdorda uchraydi. Lekin ularning yasalishi tarixiy bo'lishi yoki hozirgi so'z yasalishiga oid bo'lishi mumkin. So'z yasalishining tahlilida bu ikki hodisani, ya'ni sinxron (hozirgi) va diaxron (tarixiy) so'z yasalishini farqlash kerak”.<sup>54</sup>

“O'zbek tilida so'zlar affiksatsiyasi ham omonimiyani yuzaga keltiradi. Bunda bir necha hodisani kuzatish mumkin. Omoifoda tarkibidagi so'zlardan yangi so'z yasaladi va yasama so'z hisobiga yana omonimiya vujudga keladi. Ba'zan uning komponentiga bir xil affikslar, ba'zan esa har xil affikslar qo'shilishi mumkin. Shuningdek, yasama so'z boshqa bir so'z bilan tovush tarkibi jihatidan teng bo'lib qoladi va hokazo”.<sup>55</sup>

Affiksal omoleksemalarning muayyan qismini “asos + affiks” dan iborat leksemalar tashkil etadi. Bunday omoleksemalar haqida gap borganda, avvalo, asos bilan affiks e'tiborga olinishi kerak. Grammatik tuzilishi va xususiyatlariga ko'ra ularni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Tub va yasama so'zlar omonimiyasi. Bunda omoleksemalardan biri tub, ikkinchisi yasama bo'ladi.

2. Yasama so'zlar omonimiyasi. Bunda omoleksemaning barcha komponentlari yasama bo'ladi. Quyida ana shunday affiksal omoleksemalarni ko'rib chiqamiz:

<sup>54</sup> Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 24 b.

<sup>55</sup> Mirtojiyev M. So'zlarning shakliyi munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 289 b.

### 1. Tub va yasama soʻzlar omonimiyasi

**burch I** ot, “ado etilishi, bajarilishi majburiy boʻlgan vazifa, majburiyat”. *Vatanni dushmandan himoya qilish jangchining muqaddas burchi.* (Uygʻun, “Hayot qoʻshigʻi”)

Bu soʻzning oʻziga xos xususiyati mavjud boʻlib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Shuningdek, bu soʻz yasama emas, tub soʻz hisoblanadi, yaʼni qismlarga ajralmaydi (OʻTIL, 56).

**burch I** omoleksemasi iymon – eʼtiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bogʻliq (OʻME, II, 261).

**burch II** (bur – “aylantir” + (u)ch) ot, “biror narsaning ikki tomoni kesishgan joy, burchak”. *Hovlining chap burchiga oshxona qurilgan.* Bu ot “aylantir”, “eg” maʼnosini anglatgan **bur** feʼlidan – **uch** ot yasovchi qoʻshimcha bilan yasalgan (ESTYA, II, 274): **bur** + **uch** → **buruch** → **burch**. Keyin-chalik, ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qolgan, yaʼni tovush tushishi roʻy bergan.

**sana I** (arabcha) ot, “biror voqea sodir boʻlgan yil, oy, kun va shu haqdagi yozuv”. *Men abjad hisobini bilganim uchun u sheʼrdagi tarix moddasini hisoblab koʻrdim. Haqiqatan, undan oʻsha yilning sanasi boʻlgan hijriy 1303 chiqardi.* (Sadriddin Ayniy, “Esdaliklar”) Bu soʻz asli arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, maʼnoli qismlarga ajralmaydi. Oʻzbek tilining morfem lugʻatida tub soʻz sifatida aks etgan.<sup>56</sup>

**sana II** (son – “miqdor” + a) feʼl, “miqdorini aniqla”, “hisobla”. *Yerdan topib olsang ham sanab ol.* (Maqol) Bu feʼl qadimgi turkiy tildagi **sa** – “hisobla” feʼlidan – **n** qoʻshimchasi bilan yasali (Devon, III, 265; DS, 478), keyinchalik “adad”, “miqdor” maʼnosini anglatgan **san** otiga –a qoʻshimchasi qoʻshilgan (Devon, III, 290; DS, 483; PDP, 419).

Koʻpgina adabiyotlarda **sana II** leksema **son+a** → **sana** tarzida izohlansa-da, biroq turkiy tilning tarixiy, etimologik manbalari bu soʻzning **son** + **a** ekanligini tasdiqlamaydi (Masalan, Devon, PDP, OʻTML, OʻTEL va b).

**qiron I** (qyr – “yoppasiga oʻldir” + an) ot, “koʻplab oʻldirish, qirgʻin”.

*Qor qalin yogʻib, sovuq.*

*Haddidan oshib ketdi.*

*Don topib yeyolmasdan,*

*Qushlarga qiron yetdi.* (Uygʻun)

Bu soʻz qadimgi turkiy tilda **qyr** tarzida talaffuz qilingan va “tigʻli asbob bilan kes”, “tarashla” maʼnolarini anglatgan. Oʻzbek tilida keyinchalik **ы** unlisining qattqlik belgisi yoʻqolgan: **qyr** → **qir**.

Soʻzning keyingi **qiron** shakli **qir** feʼliga –an ot yasovchisini qoʻshish bilan hosil qilingan va “yoppasiga oʻldirmoq”, “koʻplab oʻlish” maʼnolarini bildiradi. Tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida **a** unlisi o unlisiga almashgan (KRS, 493; SSTN, II, 51; OʻTEL, 551): **qyr** + **an** → **qyran** → **qiran** → **qiron**.

**qiron II** (arabcha) ot, “davlat, mamlakat”. *Qaysi qiron qaysi qiron bilan urushdi?* (Oybek, “Qutlugʻ qon”)

**qiron III** (arabcha – “birlashish”, “duch kelish”) ot, “ikki planetaning yoki ikki voqea-hodisaning duch kelishi”. *Umarshayx Mirzo sohibqiron Amir Temur sulolasidan edi.* (P.Qodirov, “Boburnoma”)

Bu leksema arabcha boʻlib, asli **qiran (un)** shaklida yozilgan (ARS, 634). Oʻzbek tiliga **qiron** shaklida, tovush almashinishi bilan oʻzlashgan. Arab tilidagi “bir-biriga qoʻshdi” maʼnosini anglatuvchi **qarana** feʼlidan hosil qilingan (ARS, 634). Oʻzbek tilining 2006-2008 yillarda nashr etilgan, yangi izohli lugʻatida **qiron II** leksemasining “birikish”, “birikma”, “nikoh”, “toʻy” maʼnolari qayd etilgan, **qiron III** leksemasi aks etmagan. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 5 jildli, 300-bet)

Arabcha *sohib* va *qiron* soʻzlarining qoʻshilishi natijasida tojik tilida *sohibqiron* soʻzi yasalgan (TRS, 366, 489). *Amir Temurga sohibqiron unvoni berilishining oʻziga xos tarixi bor.*

Yuqorida koʻrilgan omoleksemalarning biri tub, ikkinchisi yasama boʻlib, soʻz yasalishi jarayonida maʼlum tovush oʻzgarishlari – tovush almashishi, tovush tushishi yoki ortishi roʻy bergan. Tovush oʻzgarishlari natijasida yuzaga kelgan yasama soʻz bilan tovush oʻzgarishiga uchragan tub soʻzning talaffuz etilishi va yozilishi bir xil boʻlib, omonimiyani yuzaga chiqargan.

### 2. Yasama soʻzlar omonimiyasi

Affiksasiya natijasida yuzaga kelgan omoleksemalarda soʻz yasalishi jarayonida muayyan tovush oʻzgarishlari yuz berishi mumkin.

<sup>56</sup> Gʻulomov A., Tixonov A., Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tili morfem lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1977 - 210 b.

Bunday omoleksemalarni tovush o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan omoleksemalardan farqlash lozim. Chunki, bu yerdagi tovush o'zgarishi so'z yasalishi bilan bog'liq holda ro'y beradi. Bunday o'rinda, avvalo, so'z yasalishi, so'ngra tovush o'zgarishi asosga olinadi. Quyida shu xildagi omoleksemalarni tavsiflaymiz:

**Bir xil asos va bir xil affiks:**

**betla I** (bet + la) fe'l, "botinib, yuzma-yuz uchrashmoq", "jur'at qilmoq". *Suvonjon darchasi boqqa qaragan uyga kirishga yuragi betlamay, bir dam turib qoldi.* (S.Anorboyev, "Oqsoy") Bu fe'l bet – "uyat", "andisha" ma'nosidagi otga – la fe'l yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (O'TEL, 47). Ayrim lug'atlarda bet + la + moq tarzida berilgan (O'TML, 44).

**betla II** (bet + la) fe'l, "sahifalarga raqam qo'yib chiqmoq", "sahifalamoq". *Muharrir qo'lyozmani qaytadan betlab chiqdi.* Bu so'z esa bet – "sahifa" ma'nosidagi otga -la fe'l yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilingan. **Betla I, II** omoleksemalarida har xil ma'noli bir xil asos va bir xil affikslar ishtirok etayapti.

**o'sma I** (o's + ma) ot, 1) "uzun, cho'zinchoq to'q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub, ikki yillik o'tsimon o'simlik". *Qish boshlanishida hamma tok ko'msa, Malikaxon o'smasini ko'mar, chillada ham uning hovlisida o'sma bahordagidek ko'karib yotardi.* (Saida Zunnunova, "Gulxan")

2) "shunday o'simlik bargidan siqib olinib, qosh va kipriklarni bo'yash uchun ishlatiladigan qora-yashil rangli suyuq bo'yoq". *Uning hozirgina qo'ygan o'smasi chakkasiga oqib tushgan edi.* (Hakim Nazir, "So'nmas chaqmoqlar")

Bu leksema o's – "katta bo'l" ma'nosidagi fe'lga –ma ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilingan (O'TOIL, 173).

**o'sma II** (o's + ma) ot, "odam yoki hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan, odatda zararli shish". *Kasalning a'zosida o'sma paydo bo'libdi.*

Bu ot qadimgi turkiy tildagi "rivojlan" ma'nosini anglatgan o's fe'lga –ma ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilingan, keyinchalik o' unlisining yumshoqlik belgisi barham topgan (ESTYA, I, 553): o's + ma → o'sma.

**Bir xil asos va har xil affiks:**

**bosma I** (bos + ma - ot yasovchi) ot, "balandga yuk ko'tarish uchun xizmat qiladigan qurilma". *Loyni bosma bilan yuqoriga ko'tarib chiqardik.*

**Bosma I** leksemasi "og'irlik yoki kuch bilan siq" ma'nosini anglatgan. Qadimgi turkiy tilda bu fe'l ba:s tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, II, 74), ana shu asosga –ma ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil bo'lgan.

**bosma II** (bos + ma - sifat yasovchi) sifat, "bosmaxonada bosilgan, chop qilingan". *Kutubxonamizda ko'plab bosma asarlarni o'qishingiz mumkin.* Bu leksema bos fe'lga –ma sifat yasovchini qo'shish bilan yasalgan. Bu omoleksemalarda –ma affiksi birinчисida ot yasovchi, ikkinчисida sifat yasovchi bo'lib kelayapti.

**qiziq I** (qizi + q - ot yasovchi) ot, "harakat ko'tarilgan, qizigan payt yoki holat". *Hamma yoqda suv, hamma yoqda daraxt, - dedi O'ktam keng nafas olib, bu yerlarda saraton qizig'i ham bilinmasa kerak.* (Oybek, "Oltin vodiyan shabadalar")

Bu so'z o'zbek tilida "isib, kuydiradigan holatga yet" ma'nosini anglatuvchi **qyzy** fe'lga -q ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan yasalgan, keyinchalik unilarning qattqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, 539): **qyzy + q → qyzyq → qiziq.**

**qiziq II** (qizi + q - sifat yasovchi) sifat, "kishini ajablantiradigan, qiziqish uyg'otadigan". *Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak.* (Abdulla Qahhor, "Ming bir jon") Bu sifat leksema **qyzy** fe'lga -q sifat yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilingan. O'zbek tilida, keyinchalik **ы** unilarning qattqlik belgisi barham topgan (O'TML, 335).

"Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasovchi affikslar, aniqrog'i, so'zning morfem strukturasi so'z yasovchi sifatida ajraladigan affikslar juda ko'p. Lekin ularning hammasi ham yangi – yangi so'zlar yasalishida qatnashavermaydi. Ulardan ayrimlari hozirda ham yangi so'zlar yasalishida qo'llanayotgan bo'lsa, ba'zi affikslar esa so'z yasash vazifasini deyarli yoki butunlay to'xtatgan. Hozirgi o'zbek adabiy tili so'z yasalishi tahlilida birinchi tipdagi, ya'ni so'z yasash vazifasi

davom etayotgan affikslar yordamida soʻz yasalişini yoritish muhimdir”.<sup>57</sup>

**yopiq I** (yop + iq - sifat yasovchi) sifat, “oʻtish yoki kirish-chiqish joyi toʻsib, bekitib qoʻyilgan”, “berk”. *Kechasi... Margʻilon darvozalari yopiq boʻladi.* (Abdulla Qodiriy, “Oʻtgan kunlar”) Bu soʻz “berkit” maʼnosini anglatuvchi **yap** feʼliga **-yiq** sifat yasovchi qoʻshimchani qoʻshish bilan yasalgan (KRS, 209; ESTYA, IV, 128). Oʻzbek tilida, keyinchalik **a** unlisi **o** unlisiga almashgan va oxirgi boʻgʻindagi unlining qattqlik belgisi barham topgan: **yap+ yiq** → **yaryiq** → **yoryiq** → **yoriq**.

**yopiq II** (yop + iq - ot yasovchi) ot, “otning ustiga yopiladigan mato”. *Sayslar ... otlar ustidagi yopiq-larni va toʻqim-larni, haligi tol daraxti ostiga yozganlar.* (Sadridin Ayniy “Esdaliklar”)

**Yopiq I, II** affiksal omoleksemalarida asoslar bir xil, lekin soʻz yasovchi qoʻshimchalar har xil boʻlganligi tufayli biridan sifat, ikkinchisidan ot yasalayapti.

**yorugʻ I** (yaru + q - ot yasovchi) ot, “nur”, “yogʻdu”. *Maksim chiroq yorugʻida kitobning muqovasini ochishi bilan esankirab qoldi.* (Said Ahmad “Hukm”)

Bu soʻz “yorugʻ holatga kel” maʼnosini anglatgan **yaru** feʼliga **-q** ot yasovchi qoʻshimchani qoʻshish bilan hosil boʻlgan (Devon, III, 22; PDP, 385). Oʻzbek tilining keyingi taraqqiyot bosqichlarida **q** undoshi **gʻ** undoshiga, **a** unlisi **o** unlisiga almashgan (OʻTEL, 173): **yaru + q** → **yaruq** → **yarugʻ** → **yorugʻ** → **yorugʻ**.

**yorugʻ II** (yaru + q - sifat yasovchi) sifat, “nurli”, “yoritilgan”. *Oyning oʻn beshi qorongʻi boʻlsa, oʻn beshi yorugʻ.* (Maqol) Bu soʻz **yaru** feʼliga **-q** sifat yasovchi qoʻshimchani qoʻshish bilan yasalgan (DS, 243). Turkiy tillar dyevonida bu sifat aks etmagan. Boshqa lugʻatlarda **yaruq** soʻzining ikkinchi maʼnosi sifatida uchraydi (DS, 244). Bu sifat leksema ham **yorugʻ I** ot leksema singari tovush oʻzgarishlarini boshidan kechirgan.

#### **Har xil asos va bir xil affiks:**

**qovuq I** (qab + uq) ot, “siydik pufagi”. *Qovugʻi boʻsh oʻquvchiga dars paytida ham tashqariga chiqib kelishga ruxsat beriladi.* Qadimgi

turkiy tilda bu soʻz asli “oʻrov”, “xalta” maʼnosini anglatgan **qab** otiga kichraytirish maʼnosini ifodalovchi **-uq** qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilingan (Devon, III, 160). Keyinchalik **b** undoshi **v** undoshiga almashgan (Devon, III, 179). Oʻzbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: **qab + uq** → **qabuq** → **qavuq** → **qovuq**.

**qovuq II** (qav + uq) ot, “chaqmoq uchqunidan oʻt oldirish uchun ishlatiladigan maxsus pilik”. *Kishi Otabekni oʻtqizgach, tokchadan sopol lagan bilan qovuqni olib, chaqmoq surtdi. Sham yoqildi.* (Abdulla Qodiriy, “Oʻtgan kunlar”). Bu soʻz **qav** otiga **-uq** qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan (Devon, III, 169), “chaqmoq chaqib yondiriladigan pilik” maʼnosini anglatgan, oʻzbek tilida, keyinchalik uning tarkibida quyidagicha tovush oʻzgarishlari roʻy bergan: **qav + uq** → **qavuq** → **qovuq**.

Affiksal yasaliş natijasida yuzaga kelgan omoleksemalarda soʻz yasaliş jarayonida quyidagicha tovush oʻzgarishlari ham kuzatiladi:

a) yasama soʻzning ikkinchi boʻgʻinida tovush tushadi: **buruch** → **burch**.

b) yasama soʻz oʻzagida tovush almashadi va oxirgi boʻgʻinidagi unli qattqlik belgisini yoʻqotadi: **yaryiq** → **yoryiq** → **yoriq** → **yoriq**;

v) yasama soʻzning oʻzagi va oxirgi boʻgʻinida tovush almashadi: **yaruq** → **yoruq** → **yorugʻ** → **yorugʻ**;

g) yasama soʻz oʻzagidagi unli va undosh tovushlar almashadi: **qabuq** → **qobuq** → **qovuq**;

d) yasama soʻzning oʻzagidagi unli almashadi: **qavuq** → **qovuq**;

ye) yasama soʻz tarkibidagi unlilar qattqlik belgisini yoʻqotadi: **qyzyiq** → **qiziq**;

j) yasama soʻz oʻzagidagi unlining qattqlik belgisi barham topadi va ikkinchi boʻgʻindagi unli tovush almashadi: **qyran** → **qiran** → **qiron** va hokazo.

<sup>57</sup> Hojiyev A. Oʻzbek tilida soʻz yasalişini. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1989. - 35 b.

### III BOB.

#### MA'NO TARAQQIYOTI NATIJASIDA HOSIL BO'LGAN OMOLEKSEMALAR SEMANTIKASI

So'z ma'nosini semalar asosida tahlil etishga keyingi paytlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki bunday usuldagi tahlil so'z semantikasiga aloqador juda ko'p hodisalarning mohiyatini to'g'ri belgilashga imkon beradi.<sup>58</sup> Semalar sememaning mundarijasini tashkil etadi. Masalan, *atrof* leksemasining sememasi *hamma* va *tomon* semalaridan; *kasal* leksemasining bir sememasi *organizm*, *faoliyat* va *buzilmoq* semalaridan; *kuchaymoq* leksemasining bir sememasi *kuchli*, *daraja* va *olmoq* semalaridan tarkib topgan.

So'z ma'nolarini tahlil etishga doir ayrim rus tilshunoslarining ilmiy qarashlariga murojaat etamiz:

"Sema leksik ma'noning eng kichik bo'lagidir. So'zlarning ma'no komponentlari tarkibini aniqlashda sememaning barcha parametrlari bilan ma'no qirralarini hisobga olish zarur".<sup>59</sup>

Tilshunos olim L.M.Vasilyev leksemalarning minimal birligi sifatida semalarning o'ndan ziyod turi borligini qayd etadi. U semalarni nafaqat leksik ma'no nuqtai nazaridan, balki til birliklari va til sathlarining barcha semantik ko'rsatkichlari bo'yicha semik tahlil etish zarur deb hisoblaydi. Til birliklarining har bir uzvida sememalar mavjud bo'lib, morfemadan boshlab, matn darajasigacha hammasida ma'no komponentlari bor. Til sathlari uch yarusli bo'lib, ularning har biridagi sathlar va sathlararo semantik munosabatlarni yuzaga chiqarish va tahlil etish semalar asosida amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydi.<sup>60</sup>

O'zbek tilshunosligida sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari sema deb ataladi. Jumladan, *daraxt* leksemasining sememalar asosida ma'no bo'laklariga bo'linishi yetti tarkibiy qism - semaga ajratiladi:

1) "predmet"; 2) "o'simlik"; 3) "yerdagi o'suvchi"; 4) "tanali"; 5) "ildizli"; 6) "shoxli"; 7) "bargli".<sup>61</sup>

<sup>58</sup> G'oyibov S. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. - 203 b.

<sup>59</sup> Новиков Л.Н. Семантика русского языка. – Москва: 1982. - 130 с.

<sup>60</sup> Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: 1990. С. 90 - 107

<sup>61</sup> Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi. – Toshkent: 1995. - 58 b.

Professor Sh.Rahmatullayev semema tarkibidagi semalarni asos va hosila semalarga ajratib talqin etadi:

"Shuni ta'kidlash lozimki, otning sifatlashuvi, sifatning otlashuvi kabi sintaktik hodisa natijasida emas, balki ot asosida sifatning, sifat asosida otning yuzaga kelishi (semantik - grammatik hodisa) natijasidagina omoleksemalar paydo bo'ladi. Masalan, *Yaxshiga yondash*, *yomondan qoch* gapida *yaxshi*, *yomon* sifat leksemalari otlashgan, lekin otga ko'chgan emas. Ot leksema bajaradigan vazifada sifat leksema kelgani sababli. sintaktik vazifaga bog'liq holda, sifat leksemaga nutqda predmetlik semasi qo'shiladi, otlashish yuz beradi. Predmetlik semasi bunday sifat leksemaning doimiy semantik komponenti bo'lmaydi.

Bir turkum sememasi asosida boshqa bir turkum sememasi yuzaga kelishi uchun turkumlik semasi ("predmet", "belgi", "harakat" kabilar) bu sememalarning semalar tarkibiga til bosqichida birkutilgan bo'lishi kerak. Aks holda bir turkum leksemasining boshqa bir turkum leksemasi kabi (o'rnida) ishlatilishi hodisasi yuz beradi, bunda yangi semema ham, yangi leksema ham yuzaga kelmaydi.

Bir turkum sememasi asosida boshqa bir turkum sememasi yuzaga kelganda, kategorial (turkumlik) semasidan tashqari, sememalarning leksik semalari tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar voqe bo'ladi. Masalan, *issiq I* sifat leksemasi asosida *issiq II* ot leksemasi yuzaga kelgan. Bunda: 1) "belgi" kategorial semasi "predmet" kategorial semasiga almashgan; 2) sifat leksema semalari tarkibidagi "o'lchov", "ortiq" semalari tashlangan; 3) "harorat" semasi yana ham abstraktlashish tomon taraqqiy qilgan, ana shu abstrakt sema ot leksemaning semantik mundarijasini tashkil etadi. Demak, sifat leksema semalari tarkibidagi "harorat" predmetlik semasi aktuallashib, qolgan semalarning so'nishi yo'li bilan ot leksema yuzaga kelgan".<sup>62</sup>

Agar bir omoifodaga birlashuvchi leksemalar, ayni paytda, har xil turkumga oid bo'lsa, u holda omonimiya hodisasini payqab olish osonroq. Masalan:

**alvon I** (ar.) sifat, 1) "qizil tusli, qirmizi".

*Bunda gulning eng asllari,*

<sup>62</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. B.11-12.

*Baxmal gilam, alvon poyondo.* (H.Olimjon) 2) “xilma-xil”, “turli - tuman”. *Ostimda o'ynaydi yuz alvon otim.* (M.Alaviya)

**alvon II** (←1) ot, “siding'a qizil ip gazlama”. *Yovariq bo'yidagi yozlik oshxona ustunlariga uzun alvon tortilgan.* (I.Rahim, “Ixlos”)

**Alvon:** 1) “rang, bo'yoq”; 2) “bo'yoq kukuni”, 3) “taom, ovqat”, “adabiy janr”, 4) “nav, har xil ko'rinish”.<sup>63</sup>

O'zbek tilining izohli lug'atida **alvon** omoleksemasining belgi ma'nosi hosila ma'no sifatida berilgan bo'lsa-da (O'TIL, 2 tomlik, 139), aslida uni shu leksemaning bosh ma'nosi deb qarash to'g'riroq. Chunki mazkur leksemaning dastlabki belgi ma'nosi “turlicha rang, bo'yoq”, ya'ni xilma-xillikni o'z ichiga oladi. Keyingi predmet ma'nosida esa, asosan, qizil rang saqlanib qoladi, zero, **alvon II** (mato) qizil rangli bo'ladi, turlicha emas.

Demak, ma'no taraqqiyoti natijasi biror belgining nisbatan ortishiga va boshqa bir belgining nisbatan kamayishiga ham olib keladi. **Alvon I** “qizil rangli” ma'nosini bildiradi, so'z turkumiga ko'ra sifat. Son bilan qo'llanganda ham belgi ma'nosini saqlab qoladi. Masalan: *Bir uyadan necha alvon qush uchadi.* **Alvon II** ot, “siding'a qizil mato”. Nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Ma'no taraqqiyoti natijasida bunday ikki xil turkumga ajralish bu leksemalarni omonim deyish uchun asos beradi. Mazkur omoleksemalarning biri ikkinchisidan o'sib chiqqan, lekin ular bir turkum doirasidan chiqib, boshqa turkumga o'tgan. Bu esa omonimiya hodisasini yaqqol ko'rsatib turibdi, ya'ni ularga ikkita alohida so'z deb qarash kerak. Biroq yaqinda nashrdan chiqqan “O'zbek tilining izohli lug'ati” (5 tomlik, 1- tom, 68- bet)da **alvon** leksemasi polisemantik so'z sifatida izohlangan.

Agarda bir omoifodaga birlashuvchi leksemalar bir xil turkumga oid bo'lsa, u holda omonimiya hodisasini payqab olish qiyinroq bo'ladi, chunki polisemiya hodisasiga ham o'xshab ketadi. Masalan:

**tirsak I** ot, 1 “qo'lning bilak suyagi bilan yelka suyagi qo'shilgan, bukilib, burchak hosil qilgan joyi, bo'g'imi”. *Nazokat tirsagini stolga qo'ydi-da, chiroyli panjalari bilan yuzlarini silab, noz va erkalik bilan so'z boshladi.* (Sh.Rashidov, “Bo'rondan kuchli”)

<sup>63</sup> Баранов Х. Арабско-русский словарь. – Москва: 1958. - 939 с.

**tirsak II** (←1) ot, “tilda paydo bo'ladigan so'galsimon bo'rtiq, chiqiq”. *Tiliga tirsak chiqibdi.*

**Tirsak:** 1) “yelka suyagi bilan panja va kaft suyaklarini birlashtirib turuvchi ikkita suyakning tutashgan joyi”; 2) “kiyim yengining shu joyidagi qismi”.<sup>64</sup> **Tirsak I** ot, odam a'zolaridan biri, ya'ni qo'l suyaklarining tutashgan joyi va uzunlik o'lchovi ma'nolarini ifodalaydi, nima? so'rog'iga javob bo'ladi. **Tirsak II** ot, odam a'zolarida paydo bo'ladigan dumaloq bo'rtiq, chiqiq ma'nosini bildirib, ot turkumiga kiradi. Bu ikki omoleksema *ma'nolariga ko'ra* o'zaro bog'liq va o'xshash. Leksemalarning tashqi ko'rinishidagi o'xshashliklar:

- ikkinchi leksemaning “dumaloq”, “bo'rtiq” ma'nolari birinchi leksemada ham mavjud. Qo'l suyaklarining burchak hosil qilib, tutashgan joyida ham dumaloq bo'rtiq bo'lib, qo'lni uzatganda, u yaqqolroq ko'rinadi;

- qo'ldagi bo'rtiqning yuza tuzilishi tildagi tirsakning yuza tuzilishi singari g'adir-budirlikka ega;

- **tirsak I**, **tirsak II** leksemalari odamning sezgi organlari sifatida axborot uzatish vazifasiga ko'ra ham o'zaro o'xshash, ya'ni har ikki tirsakka agar biz tashqi ta'sir bersak, ular bosh miyaga deyarli bir xil uzatiladi.

Ma'nolarning yuqoridagicha o'zaro munosabati o'xshash sememalar taraqqiyoti natijasida omonimiya yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur leksemalar ayni bir turkumga oid bo'lganligi sababli, ularning o'zaro farqli jihatlari, ya'ni sememalardagi farqli belgilari nisbatan kamroq. Shunday bo'lsa-da, **tirsak I** va **tirsak II** leksemalari kishi tanasidagi ikkita har xil a'zo bo'lganligi sababli omoleksema hisoblanadi va bu leksemalarning biri ikkinchisidan o'sib chiqqan. Ular o'zaro tashqi tomondan o'xshash, lekin har biri alohida-alohida predmet ma'nolarini ifodalaydi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, avval o'zaro farqli belgilari ko'proq bo'lgan, har xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalarni, so'ngra farqlab olish qiyinroq bo'lgan, bir xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalarni, undan keyin xuddi shu tartibda o'zlashgan omoleksemalarni tahlil qilamiz.

<sup>64</sup> Ожегов С. Словарь русского языка. – Москва: 1953. - 289 с.

### 3.1. Har xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalar

**yo'rg'a I** sifat, 1) "mayda qadam tashlab, tez yuradigan", (ko'pincha hayvonlar haqida). *Men mingan yo'rg'a ot go'yoki qayiq.* (H.Po'lat); 2) "yengil tabiatli, yomon yo'lga kirgan". (ko'chma ma'noda) *Bu qora yer yutkurning yo'rg'a chiqarishini yetti uxlab tushida kim ko'ribdi.* (Hamza, "Paranji sirlari") Bu so'z qadimgi turkiy tilda "sath bo'ylab harakatlan" ma'nosini anglatuvchi **yo'rg'a** fe'lidan - **g'a** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Keyinchalik, ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, o'zbek tilida **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan: **yo'rg'a** + **g'a** → **yo'ryg'a** → **yorg'ä**.<sup>65</sup>

**yo'rg'a II** (←I) ot, "beshikning bir tekisda, oson tebranishi uchun uning orqa va oldi oyoqlari ostiga ko'ndalang o'rnatilgan yoysimon, yog'och moslama". *Mana bu beshikning yo'rg'asi yaxshiroq.*

**Yo'rg'a I** leksema qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, sifat turkumiga kiradi, ya'ni ko'pincha hayvonlar yoki parrandalarga xos belgini (aniqrog'i, harakatning sub'yektiga xos belgini) ifodalaydi. **Yo'rg'a II** predmet ma'nosini bildirib, ot turkumiga mansub. Har ikkala leksema uchun umumiy bo'lgan bosh ma'no "harakatlanish" ma'nosi hisoblanadi, ya'ni bu ikki leksema ana shu nuqtada o'zaro bog'lanadi. Bundan tashqari, **yo'rg'a I, II** omoleksemalarida o'zaro shakliy bog'lanish ham mavjud:

**Yo'rg'a II** leksema beshikning oyoq qismini bildiradi va birinchi leksema bilan bog'liq. Aytish mumkinki, **yo'rg'a I** leksemaning ma'no taraqqiyoti unga shakliy moslangan **yo'rg'a II** leksemaning maydonga kelishida zamin bo'lgan. Bunday hodisa jarayonida omoleksemalar ma'no jihatdan kengayishi yoki aksincha, torayishi ham mumkinligi yuqorida ta'kidlandi. Xususan, **yo'rg'a II** leksema ma'nosiga ko'ra **yo'rg'a I** leksemadan torroq va aniqroq. Bu o'rinda belgi semasi asosida predmet semasi voqe bo'lgan.

**ortiq I** ravish, 1) "belgili miqdordan, me'yordan ziyod: oshiq, ko'p". *Yig'ilishga yuzdan ortiq kishi keldi.*; 2) "keragidan oshiq, haddan ziyod". *Ortiq darajada qayg'urmoq.*; 3) "yaxshi, afzal, a'lo" (chiqish

kelishigi bilan, faqat qiyoslashda). *Uning sendan ortiq joyi yo'q.*; 4) "ortiqcha, behuda, o'rinsiz". *Yomonning bir qilig'i ortiq.* (Maqol)

Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "me'yordan ko'p bo'l" ma'nosini anglatgan **art** fe'luga -(u)q so'z yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan yasalgan, keyinchalik **u** unlisi **ы** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: **art** + **uq** → **artuq** → **artyiq** → **artiq**.<sup>66</sup>

**ortiq II** (←I) ot, 1) "badanda yoki biror a'zoda bo'rtib, o'sib chiqqan joy" (ko'pincha tug'ma bo'ladi). *O'ng qoshi ustidagi kichkina ortiq ham quruq qolmadi, qop-qora xol bo'lib, tiniq yuzda "mana men" deb o'z rassomini quvontirdi.* (Oydin, "Ko'ngil to'ldimi, yaxshi yigit")

**Ortiq I** leksemasi ma'no tarmoqlanishiga ega bo'lib, belgi, uning darajasi, miqdori kabi ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Ularning ichida biror belgi yoki xususiyatning kerakli darajadan oshib ketishi bosh ma'no hisoblanadi. **Ortiq II** odam yoki hayvon a'zolaridan birining belgili miqdordan oshiqqligini bildiradi. **Ortiq I** omoleksemasining belgi va uning miqdoriga xos sememasi shu belgining kerakli miqdordan oshiqqligini bildiruvchi predmetga tomon taraqqiy etgan. Ikkala leksema ham bosh ma'no orqali o'zaro bog'lanadi, u ham bo'lsa "biror belgili miqdordan ortib borish", ya'ni "harakatning belgisi" ma'nosidir. Mazkur omoleksemalarning o'zagi bir xil, ya'ni **ort** - bo'lib, u birinchi leksemada ajratilib (**ort** + **iq** tarzida) ham qo'llanadi, ikkinchi leksemada esa o'zak ajratilib qo'llanmaydi. Birinchi leksemaning ma'no taraqqiyosi ravish leksemadan ot leksemaning paydo bo'lishiga, omonimiyaga olib kelgan va ayni paytda, ikkinchi leksemada ma'no toraygan.

**paxmoq I** sifat, 1) "tartibsiz o'sib ketgan, o'siq, hurpaygan" (soch, soqol, yung va b. haqida). *Paxmoq sochli qiz.*; 2) "yungli yoki soch-soqoli o'siq, baroq". *Junlari o'siq, paxmoq qo'ylar bo'yinlarini cho'zganicha suv to'latilgan oxurlarga intiladi.* (S.Anorboyev, "Harakatda barakat")

**paxmoq II** (←I) ot, "bir tomoni tukli, ip gazlama; bumazey". *Paxmoqdan chaqaloqqa ko'ylakcha tikdim.*

<sup>65</sup> Qarang: Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. - Toshkent: Universitet, 2000. - 257 b.; Drevneportskiy slovar. - L.: 1969. S. 55 - 57.

<sup>66</sup> Bu haqda qarang: Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. - Toshkent: Universitet, 2000. - 194 b.; Drevneportskiy slovar. - L.: 1969. - 274 s.; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. - М.: 1974. Т. IV. - 225 с.; Qoshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. - T.: 1960. T. III. - 189 b.; Юдахин К. Киргизско-русский словарь. - М.: 1965. - 261 с.

**Paxmoq:** 1) "qalin, o'siq junli"; 2) "taralmagan, sochlari o'siq"; 3) junlari, sochlari o'siq"; 4) "junli, notekis mato".<sup>67</sup>

**Paxmoq I** leksemaning "o'siq", "notekis", "hurpaygan" singari ma'nolari bosh ma'no hisoblanib, biror predmet yoki belgining odatdagidan boshqacharoq ekanligini bildiradi, qanday? so'rog'iga javob bo'ladi. **Paxmoq II** ma'no taraqqiyoti asosida birinchi leksemadan o'sib chiqqan bo'lsa-da, boshqa turkumga xos ma'no ifodalaydi va birinchi leksemaning belgi-xususiyatlarini o'zida mujassam etgan predmetni, ya'ni tukli, notekis ip gazlamani bildiradi. Leksemaning taraqqiyoti natijasida bunday ikkita har xil leksemaning vujudga kelishi omonimiya voqe bo'lganligidan dalolat beradi. Ikkinchi leksemaning yuzaga kelishi ma'no taraqqiyotining metonimiya (yunoncha meta - "almashtirmoq", onoma - "nom", ya'ni qayta nomlash demakdir.) usuliga asoslangan, ya'ni o'zaro bog'liqlik asosida ma'no bir leksemadan boshqasiga ko'chgan.

**po'rsildoq I** sifat, "ko'pchib, bo'rtib turgan bilqillama, yumshoq".  
*Po'rsildoq bug'doy non.*

**po'rsildoq II** (←I) ot, "teridagi qavariq, shish; qavarib, quruqshab, yorilgan joy". *Gorchichnik qo'yilgan joyda hosil bo'lgan po'rsildoqlar yorilibdi.*

**po'rsildoq III** (←II) ot, "dukkaklilarga mansub, hosili pufakka o'xshash buta". *Har - har joyda o'sib turgan po'rsildoqlar ko'zga tashlanadi.*

Omoifodadagi birinchi leksema sifat turkumiga kiradi va ko'pchib, bo'rtib turgan, yumshoq singari belgilarni ifodalaydi. Bu leksema ho'l mevalarga nisbatan ishlatilganda, ko'pincha, "pishgan", "yetilgan" kabi ma'nolarni aks ettiradi. Chunki mevalar pishib yetilgandan keyingina yumshash, ko'pchish belgilari namoyon bo'ladi. Ikkinchi leksema asosan odam yoki hayvonot organizmiga nisbatan (ko'proq badanga, teriga nisbatan) qo'llanadi. Odamlar, hayvonlarning badanida, terisida biror tashqi yoki ichki ta'sir tufayli paydo bo'lgan shish, qavariq kabilarni bildiradi. Bu leksemada belgi, atama, nom ma'nolari mujassamlangan. Shulardan atama, nom ma'nosi belgi ma'nosiga

<sup>67</sup> Ожегов С. Словарь русского языка. - М.: 1953. С. 291 - 321. Keyingi sahifalarda takrorlanayotgan lug'atlarning nomini qisqartirib, betini ko'rsatish bilan cheklanamiz.

qaraganda torroq, ya'ni ma'lum xususiyatga ega bo'lgan kasallikning nomini ifodalaydi. Uchinchi leksema ot turkumiga xos bo'lib, o'simlikning bir turini bildiradi. Bu o'simliklarning shunday turiki, unda **po'rsildoq I** ga xos belgilar, albatta, uchraydi. Shu bois, ma'lum belgi xususiyatlar asosidagi predmetning nomi yuzaga kelgan. Bunday misollarimiz biror belgi nomidan boshqa bir belgi yoki predmet nomi va aksincha, biror predmet nomidan boshqa bir predmet yoki belgi nomi kelib chiqishi hodisasini yana bir bor tasdiqlaydi.

**to'zg'oq I** sifat, "to'zg'igan, to'zg'in". *Zarralar to'zg'oq holda bo'lsa, quruq tuproq deyiladi.* (M. Bahodirov, "Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulot-lar") Bu so'z qadimgi turkiy tilda "osmonga ko'taril" ma'nosini anglatgan **toz** - fe'liga eski o'zbek tilida "takror" ma'nosini ifodalovchi -g'a qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. Keyinchalik, bu so'z shakliga -q sifat yasovchi qo'shimchasi qo'shilgan va q undoshi oldidagi a unlisi ä unlisiga almashgan: **toz + g'a → tozg'a + q → tozg'aq → tozg'äq** (DS, 579).

**to'zg'oq II** (←I) ot, "lux, qamish va sh.k. o'simliklarning to'zg'uvchan, parsimon popugi, hosili". *Qoqi o't to'zg'og'i uchib yuribdi.* Lug'atlarda "qazg'oq", "to'zg'oq", "ayg'oq", "toyg'oq" singari yasalishlarni uchratamiz.<sup>68</sup>

**To'zg'oq I** sifat leksemasi biror narsaning holatini, tarkibini, tuzilishini, belgisini bildiradi. **To'zg'oq II** ot leksemasi esa birinchi leksemaning "belgi", "xususiyat" ma'nolari asosida hosil bo'lgan, ya'ni shunday belgi-xususiyatga ega bo'lgan predmetning nomini anglatgan. Aslida bu leksema ba'zi bir o'simliklarning mevasi, hosilini ifodalagan, u boshqa birorta nomga ega bo'lishi mumkin edi. Muhimi, uning boshqa o'simlik mevalariga nisbatan o'ziga xos belgiga (tez va oson to'zg'ib ketishga) ega ekanligi mazkur belgi asosida nomlanishiga olib kelgan. Har ikki leksemaning o'zagi bir xil - **to'zg'oq**. Ikkala leksema uchun ham umumiy ma'nolar - "ajral", "sochil", "tarqal", "har tomonga tartibsiz sochil" kabilar. Bu o'rinda belgi ma'nosidan predmet ma'nosi, ya'ni sifat leksemadan ot leksema o'sib chiqqan.

**chuvak I** sifat, "qotmadan kelgan, oriq, qotma". *U o'rta yoshli, chuvak, soqoliga oq oralagan, qotma, abjir kishi edi* (H.Nazir).

<sup>68</sup> Тихонов А., Кунгиров Р. Обратный словарь узбекского языка. - Самарканд. 1968.

**chuvak II** (←1) ot, “yozlik yengil oyoq kiyimi”, “shippak”. *Uyda oyoq kiyimi bir necha par: chuvak, mahsi, sandal, kalosh, tuflilar* (G'.G'ulom).

**Chuvak I** leksema biror predmet yoki odamga xos belgini ifodalaydi. O'zbek tilining ba'zi shevalari (Surxondaryo viloyati)da bu so'z **chumak** shaklida ham ishlatiladi. Masalan: *Beti chumakday (ya'ni oriq, uzunchoqroq degani) bir kishi sizni so'rab keldi. Chuvak I* leksemasi odatda biror shaxs yoki predmetning ingichkaroq qismi yoki bo'lagi ma'nosini bildiradi. Shu nuqtai nazardan **chuvak** va **chumak** leksemalari ma'no jihatdan o'zaro o'xshash. **Chuvak II** predmet yoki buyumning nomini, oyoq kiyimining bir turini anglatadi.

Yuqoridagi leksemalarda ma'no taraqqiyoti o'zaro shakliy o'xshashlikka asoslangan. Chunki **chuvak** oyoq kiyimining tashqi tuzilishi, ko'rinishi oriq, qotma odamning tashqi ko'rinishiga o'xshaydi, shuningdek, bu poyabzalning o'ziga xos jihati, uning boshqa oyoq kiyimlaridan ixcham va yengil ekanligidadir.

**Chuvak I** leksemasidan **chuvak II** leksemasining o'sib chiqishi ma'no taraqqiyotining metafora (yunoncha metaphora – “ko'chirish” demakdir) usuliga asoslangan, ya'ni o'zaro o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan.

**Yupqa I, II** omoleksemalarida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da (1981) bir so'zning ma'nolari sifatida, ya'ni polisemem leksema sifatida qayd etilgan. “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da (1984) esa omoleksemalar sifatida o'z aksini topgan. Matbuotda e'lon qilingan ayrim maqolalarda ham omoleksemalar sifatida talqin qilinadi.<sup>69</sup>

**Yupqa I** leksema sifat turkumiga mansub, biror predmet yoki voqea-hodisaga xos bo'lgan belgini bildiradi. **Yupqa II** ot leksemasi kishilar iste'mol qiladigan taomning nomini anglatadi. Bu ikkala leksema uchun umumiy ma'no “ingichkalik”, “yupqalik”, “noziklik” kabilardir. Lekin bunday belgining darajalanishi ham nisbiydir. Masalan, **yupqa – yupqaroq – juda yupqa**. Bu o'rinda **yupqa II** ot leksemasi **yupqa I** sifat leksemasining bosh ma'nosi, ya'ni belgi ma'nosidan o'sib chiqqan. Chunki **yupqa II**, ya'ni taomni tayyorlash

<sup>69</sup> Rahmatullayev Sh. Lug'at boyligini o'rganish va o'rgatishda qayta baholash zarur bo'lgan ba'zi masalalar // O'zbek tili va adabiyoti. 1990. – № 3. – 31 b.

uchun xamir yupqa, ingichka qilib yoyiladi. Aks holda bu taomni tayyorlash qiyin bo'ladi. Birinchi leksemaning ma'no taraqqiysi natijasida ikkinchi bir leksema paydo bo'lib, omonimiyani yuzaga chiqargan. Belgi semasidan predmet semasi o'sib chiqqan.

**ilmoq I** (il + moq) fe'l, 1) “biror narsani mix, qoziq va sh.k.larga osib qo'ymoq”. *Yigit.. boshidan qalpog'ini olib, qoziqqa ildi.* (A.Qodiriy, “O'tgan kunlar”); 2) “ilmoq va sh.k.ga tushirib tortmoq”. *Qovug'idan iplarni ignaning orqasi bilan ilib oldik.* (A.Hamdani); 3) “otilgan yoki yuqoridan tushayotgan narsani yerga tushirmay tutmoq, tutib olmoq”. *Bolalar qo'llarini cho'zib, sapchib, sochqilarni ilib oldilar.* (Tog'ay Murod, “Yulduzlar mangu yonadi”); 4) “kiymoq”. *U kovushini mahsisining uchiga ilib, hovliga tushar ekan, xotiniga qayta ta'kidladi* (H.G'ulom. “Mash'al”).

**ilmoq II** (←1) ot, 1) “ilib olish, ilib ko'tarish uchun ishlatiladigan, temirdan yoki daraxtning butog'idan yasalgan xonaki ayri asbob”; “ilgak”. *Ikki azamat yigit temir ilmoqlar bilan zanjirni ko'tarib, kema burniga qo'ydi* (Mirkarim Osim, “Karvon yo'llarida”); 2) “eshikning berkitish moslamasidagi ilib qo'yiladigan qism”. *Keyin chuqur tin olib, orqasiga o'grildi-da, qo'lini solib, panjara eshik ilmog'ini tushirdi* (Saida Zunnunova, “Olov”); 3) “gapning zamiridagi kinoya, shama yoki g'araz”.

– *Mingboshi bu qochirimdan hech bir ilmoq sezmedi, balki bu qochirig uni yana ham ochib yubordi, - dedi Shokirjon* (Sh.Rizo, “Qor yog'di, izlar bosildi”).

**Ilmoq I** fe'l leksemasi biror narsani osib qo'ymoq, tortib olmoq, tutib olmoq ma'nolarini anglatadi. **Ilmoq II** leksemasi esa shunday maqsadlarda ishlatiladigan asbob ma'nosida qo'llanadi. Birinchi maqsadlarda ishlatiladigan asbob ma'nosida qo'llanadi. Birinchi leksema o'zak va qo'shimchaga ajraladi, ya'ni il – o'zak, -moq – fe'lning noaniq shaklini ifodalovchi qo'shimcha. Ikkinchi leksema esa o'zak va qo'shimchaga ajralmaydi. Lekin birinchi leksema o'zagidagi ma'no ikkinchi leksemaning yuzaga kelishida asos bo'lgan. **Ilmoq I, II** leksemalaridagi ma'no taraqqiyoti o'zaro bog'lanishga ega, ya'ni leksemalaridagi ma'no taraqqiyoti o'zaro bog'lanishga ega, ya'ni keyingi leksema birinchi leksemaga bog'liq holda undan o'sib chiqqan. Bu yerda so'z ma'nolari metonimiya yo'li bilan taraqqiy qilgan. Birinchi leksemaning harakat (fe'l) ma'nosidan keyingi predmet, nom (ot) ma'nosining yuzaga kelishi omonimiya hodisasini reallashtirgan.

**quymoq I** (quy+moq) fe'l, 1) "suyuqlikni bir idishdan boshqa idishga tushirmoq, solmoq". *Grafindan stakanga suv quymoq.*; 2) "sochmoq, tarqatmoq". *Boshidan zar quymoq.*; 3) "qattiq, shiddat bilan yog'moq". *Yomg'ir yoz bo'yi rosa quydi.*; 4) "suv bermoq, sug'ormoq". *Ekinlarga suv quymoq.*; 5) "tayyor qolipga erigan narsa solib, buyum tayyorlamoq".

**quymoq II** (←1) ot, "tuxumga un chalib yoki unsiz yog'da qovurib tayyorlangan ovqat". *O'g'limning o'qishdan kelishiga qarab, quymoq pishirib qo'yaman.*

Ma'no tarqqiyoti natijasida yuzaga kelgan omoleksemalar har xil so'z turkumiga oid bo'lishi bilan bir qatorda, ularning biri yasama (o'zak va qo'shimchaga ajraladi) va ikkinchisi tub (o'zak va qo'shimchaga ajralmaydi) bo'lishi ham mumkin. Bunday omoleksemaga yuqoridagi *ilmoq* va *quymoq* leksemalari yaqqol misoldir.

O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'atida ham **ilmoq**, **quymoq** omoleksemalarining yuqoridagi ma'nolari xuddi shunday izohlangan bo'lsa-da, lekin o'zak-negiz haqida qiyosiy fikr bildirilmagan.

**Quymoq I** fe'l leksema suyuqlikni biror narsaga quyish, sochish, sug'orish singari ma'nolarni ifodalaydi.

**Quymoq II** ot leksema tuxumga un chalib, yog'da qovuriladigan ovqat ma'nosini bildiradi. Lekin shu taomni tayyorlashda suyuqlikni biror idishga quyish, ya'ni shunday harakat ma'nosi bosh ma'no sifatida saqlanib qolgan. Bu yerda ham ikkinchi leksemaning yuzaga kelishi metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishiga asoslanadi. Harakat ma'nosidagi fe'l leksemadan predmet ma'nosidagi ot leksema o'sib chiqqan. Har ikki leksemaning hosila ma'nolari o'zaro bosh ma'no orqali bog'langan. Ma'nolar bir turkum doirasidan chiqib, ikkinchi turkumga o'tgan. Oqibatda yangi ma'noli omoleksema paydo bo'lgan.

### 3.2. Bir xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalar

Bir turkumga mansub bo'lgan omoleksemalar manbalarining birida quyidagicha izohlanadi:

"Bir tomondan, bitta predmetga xos belgi bir so'z bilan atalishi mumkin. Boshqa predmetda xuddi shunday belgilardan biri yoki shunga o'xshash belgi bo'lishi mumkin. Va shu ikkinchi predmet belgi

jihattan mos bo'lgan birinchi predmet nomi bilan ataladi. Natijada, bir xil talaffuz qilinadigan, o'xshash belgilarga ega bo'lgan, lekin har xil predmetni anglatuvchi so'zlar paydo bo'ladi".<sup>70</sup>

**bo'yin I** ot, 1) "gavdaning bosh bilan tanani birliktiruvchi qismi". *Bola bo'yni uzun otni yetaklab keldi.*; 2) "ba'zi asboblarning ingichka qismi". *Dutorning bo'ynidan ip bog'langan.*

Bo'yin so'zi "kishi yoki narsaning tik yo'nalishdagi ko'lami" ma'nosini anglatuvchi **boy** otidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi – (**ы**)n qo'shimchasi bilan hosil qilingan (Devon, III, 183; ESTYA, II, 181), keyinchalik, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: **boy** + **ын** → **боуын** → **boyin**. Qadimgi turkiy tilda bu so'z **boyun** tarzida ham talaffuz qilingan. (DS, 110; O'TEL, 74).

**bo'yin II** (←1) ot, geogr. "suv bilan ajralib qolgan quruqlik qismlarini bir-biriga qo'shadigan tor, uzun yer".

**Bo'yin** – "bo'yin umurtqasi"; "bo'yniga olmoq, aybiga iqror bo'lmoq".<sup>71</sup>

**Bo'yin I** va **bo'yin II** leksemalari o'zaro omonim, lekin ular bir turkum ichidadir.

**Bo'yin I** leksemasining birinchi "gavdaning bosh bilan tanani birliktiruvchi qismi" ma'nosi bosh ma'no bo'lib, undan **bo'yin II** leksemaning "suv bilan ajralib qolgan quruqlik qismlarini birlashtiradigan, nisbatan torroq yer" ma'nosi o'sib, omoleksema holatiga yetgan. Odam yoki jonivorning bo'yni ham ikkita a'zo, ya'ni tana bilan boshni birlashtirib turadi. Bu ikkala leksema bir xil, ya'ni ot turkumiga mansub, biroq ular ikkita alohida so'z deb qaralishi lozim. Chunki so'zdagi ma'no taraqqiy etib, bir predmet nomidan ikkinchi bir shunga o'xshash predmet nomiga ko'chib, geografik atamani ifodalagan. Ular anglatgan ma'nolarni bir leksemaga birlashtirib bo'lmaydi. Bu o'rinda ma'no taraqqiyotining metaforik usuli reallashgan. O'xshashliklar predmetlarning tashqi ko'rinishi va vazifasiga ko'radir.

**dovon I** ot, 1) "tog' yoki tepalikning oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi", "oshuv". *Mashina dovon tepasiga ko'tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi.* (S.Ahmad, "Qadrdon dalalar"); 2) ko'chma, "keyingi ishlarga yo'l ochib beradigan katta, ulkan ish, qiyin marra".

<sup>70</sup> Галкина-Федорук Е. М. К вопросу об омонимах в русском языке // Русский язык в школе, 1954. – № 3. – 14 с.

<sup>71</sup> Azizov O., Rizayeva Z. O'zbekcha-ruscha lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 45 b.

*Oila qurish naqadar yuksak dovon ekanini Mahkam endi birinchi marta his qilmoqda edi.* (P.Qodirov, "Uch ildiz")

Bu ot eski o'zbek tilidagi "tog'dan oshib o't" ma'nosini anglatgan **daba** – fe'liga – **n** ot yasovchisini qo'shish bilan hosil bo'lgan (KRS, 180; ESTYA, III, 112). Keyinchalik, **b** undoshi **v** undoshiga, **a** unilari ä unililariga almashgan (O'TEL, 93): **daba+n** → **daban** → **davan** → **dävän**.

**dovon II** (←1) ot, "ustunlarga o'rnatilib, ustidan tosh bog'lanadigan yog'och g'altak, moslama". *Dovon yordamida tomning ustini suvadik.*

**Dovon I, II** leksemalari ayni bir turkumga, ya'ni ot turkumiga mansub. Birinchisi tog'dan oshib o'tadigan yo'l, yerning tog' bilan tutashgan joyi singari ma'nolarni anglatadi. **Dovon II** leksemasining vujudga kelishida bir tomondan shakliy o'xshashlik asos bo'lgan, chunki birinchi leksemaning balandlikdan, tog' yoki tepalikdan oshib o'tish joyini bildirishi ikkinchi leksemaning ma'no-mohiyati bilan o'xshash. Ikkinchi leksemaning semantik tarkibida baland ustunlar bo'lib, ular biror narsani oshirib o'tkazish vazifasini bajaradi. Bu ikki leksema uchun umumiy bo'lgan bosh ma'no "biror to'siqdan oshib o'tish" ma'nosidir. **Dovon I** leksemasidan **dovon II** leksemasining o'sib chiqishi ma'no ko'chishining metaforik usuliga asoslangan.

**yoqa I** ot, 1) "suv havzasi yoki chuqurlik bo'ylab ketgan yer"; "sohil", "qirg'oq"; "bo'y"; "lab". *Uyimiz daryo yoqasida joylashgan.*; 2) "chet", "chekka"; "had". *Yo'lning ikki yoqasida teraklar shovillaydi, bulbullar sayraydi.* (H.G'ulom, "Mash'al"); 3) ko'chma, "biror xavfli, halokatli voqea-hodisaning boshlanishiga, sodir bo'lishiga yaqin qolgan payt, holat". *Sodiq ham o'lim yoqasida.* (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar")

**yoqa II** (←1) ot, "kiyimning bo'yin o'rni uchun ochilgan qismi va unga birlashtirib tikilgan mato". *Tik yoqali kostyum tiktirdim.*

Bu ot qadimgi turkiy tildagi "yaqinlash" ma'nosini anglatgan **yaq** – fe'lidan<sup>72</sup> (DS, 237) – **a** qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, IV, 83). O'zbek tilida birinchi bo'g'indagi **a** unlisi ä unlisiga, ikkinchi bo'g'indagi **a** unlisi ä unlisiga almashgan.: **yaq + a** → **yaqa** → **yaqä**.

<sup>72</sup> Каранг: Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.: 1951. – 384 с.; Кошгарний М. Девону лугатит турк. – Т.: 1960. Т. III. – 70 б.

Mahmud Qoshg'ariy lug'atida "qirg'oq" ma'nosi keltirilmagan (O'TEL, 176).

**Yoqa I** leksema tabiatdagi biror joyning nomini, shuningdek, biror xavfli vaziyat yoki holatni bildirib, nima? so'rog'iga javob bo'ladi, ot so'z turkumiga mansub. **Yoqa II** leksemasi kiyimning bo'yin qismiga birlashtirib tikilgan qismni bildiradi. Har ikkala omoleksema ot turkumiga mansub bo'lib, birinchi leksemaning ma'nolari o'zaro bog'lanadi, chunki ulardagi "biror narsaning cheti", "chekkasi", "tugallanmasi", "holati", "qismi" kabi ma'nolar o'zaro umumiylikka ega. Bundan tashqari, ba'zi misollarda (Masalan, *Daryoni yoqalab borasiz*) "yoqa" va "chet", "chekka" semalari deyarli teng keladi. Bu o'rinda daryoning bo'yiga nisbatan chekkasi nazarda tutilgan.

Ko'rinib turibdiki, **yoqa II** leksemasi birinchi leksemadan o'sib chiqqan va mustaqil, alohida ma'noga ega bo'lgan. Bir qaraganda bu leksemalar o'zaro o'xshashlik asosida taraqqiy etgan ko'rinadi. Aslida esa ularda metonimik yo'l, ya'ni ma'no taraqqiyotining o'zaro bog'liqlik usuli belgilovchidir.

**ora I** ot, 1) "ikki narsa yoki nuqta o'rtasidagi masofa". *Moskva bilan Toshkent orasi 3500 kilometr.*; 2) "narsalar o'rtasidagi joy, bo'shliq, maydon". *Supalarning oralariga, atrofiga anvoi gullar ekilgan.* (A.Qahhor, "Asror bobo"); *Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday.* (Oybek, "Qutlug' quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday"); 3) "qator", "saf", "davra", "to'da". *O'ramizdan yaqin do'stimiz qon*; 4) "kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, aloqa". *ketdi.* (Hamza); 4) "kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, aloqa". *Hokimlar bilan oramiz ham yomon, ham yaxshi.* (S.Ayniy, "Jallodlar")

Bu ot qadimgi turkiy tildagi "ma'lum nuqtadan uzoqlashmoq" ma'nosini anglatgan **ar** – fe'lidan (DS, 50) – **a** qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, I, 163), o'zbek tilida so'z boshidagi **a** unlisi ä unlisiga, so'z oxiridagi **a** unlisi ä unlisiga almashgan: **ar + a** → **ara** → **ärä** (O'TEL, 256).

**ora II** (←1) ot, "qamariya yil hisobidagi shavval va zulhijja oralig'idagi oy", "ora oyi", "zulqada".

**Ora I** ikki nuqta orasidagi joy, vaqt, munosabat kabi ma'nolarni o'zida mujassamlagan. **Ora II** leksemasi ikkita oy (vaqt) orasidagi oyni bildiradi. **Ora I** va **ora II** leksemalari nima? so'rog'iga javob bo'ladi va ot turkumiga kiradi. Bu omoleksemalar uchun umumiy bo'lgan

ma'nolar ikki nuqta, narsa yoki vaqt orasidagi masofa, joy kabilardir. Birinchi leksemadagi ana shu sema ikkinchi leksemaning nomi bo'lib qolgan. Shuningdek, ikkinchi leksemaning cheklash, chegaralash ma'nolari ham mavjud bo'lib, ular ma'lum sayyoralarining harakati bilan bog'liq, ya'ni bir oy deganda 28-31 kun orasidagi vaqt ko'zda tutiladi.

Demak, **ora II** o'ying nomi leksemasi ma'no taraqqiyotining keyingi bosqichi bo'lib, u ayni holatda metonimiya usulida hosil bo'lgan. Mazkur omoleksemalarning semalaridagi hosila ma'nolar taraqqiyoti ikkinchi leksemaning birinchi leksema bilan omonim bo'lishiga olib kelgan.

**Ora I** leksemasi ba'zi so'zlar bilan ishlatilganda, **aro** tarzida ham qo'llanadi. Masalan, *xalqaro*, *davlatlararo* kabi. Bunday holatlarda umumiy sema saqlansa-da, biroq omonimiya hodisasi uchun shakliy bir xillik asosga olinishi sababli **ora** va **aro** leksemalari omonim hisoblanmaydi.

**pardali I** sifat, 1) "parda tutilgan, parda bilan to'silgan, ajratilgan". *Hamdamforma hovlining orqasiga o'tib, yovonga qarab ochiladigan oq pardali bir derazani tirnog'ining orqasi bilan bir-ikki chertdi.* (S.Ayniy, "Qullar"); 2) "organik pardaga ega bo'lgan, parda bilan qoplangan". *G'oz pardali panjalari bilan suzardi.*; 3) "mustaqil pardalardan, qismlardan iborat bo'lgan". *To'rt pardali sahna asarini tomosha qildik.*; 4) ko'chma, "ochiq-oydin ifodalanmay, shama, qochirim bilan aytilgan, niqoblangan". *Sening bu pardali gaplaringdan hech narsani tushunolmayotirman* (S.Ayniy, "Doxunda").

**pardali II** (←1) sifat, musq. "tovush notalarini belgilovchi parda bog'langan" (torli cholg'u asboblari haqida). *Dutor pardali cholg'u asbobi hisoblanadi.*

**Pardali I** leksemasi biror narsa bilan tutilgan, to'silgan kabi ma'nolarni anglatib, sifat turkumiga kiradi. Ayni paytda **pardali II** leksemaning "parda bog'langan" ma'nosi bilan o'zaro o'xshash.

Birinchi leksemaning bosh va hosila ma'nolarini tahlil qilamiz. **Pardali deraza** deganda biror narsa bilan to'silgan deraza nazarda tutiladi. Bundan tashqari, parda muayyan maqsad bilan, ya'ni nimadandir to'sish, bekitish uchun tutiladi. Bunday o'rinlarda parda niqob vazifasini o'taydi. Xususan, *pardali gap* deganda bu ma'no yorqinroq namoyon bo'ladi. *To'rt pardali sahna asari* deganda esa to'rt

qism, to'rt bo'lak tushuniladi. Lekin har bir qismda alohida parda ochilib yopiladi, ya'ni qismlar bir-biridan ajratiladi.

*G'ozning pardali panjasi* deganda ham panjadagi pardalar nimadandir himoya qilish vositasi bo'lishi mumkin. Chunki pardali panjalar odatdagi panjalardan farq qiladi. Ko'rinadiki, omoifoda tarkibidagi ikkinchi leksema birinchi leksemadan hosila sifatida o'sib chiqqan. Undagi *pardali* so'zi biror metall yoki teri vositasida to'silgan, ajratilgan notalarni anglatadi.

**Pardali I, II** leksemalari o'zaro tashqi jihatdan o'xshash, shuningdek, ularning hosila ma'nolarida ham yuqoridagicha ichki bog'lanish ko'rinadi. Ikkala leksema ham grammatik jihatdan bir xil:

**parda** – o'zak, - li so'z yasovchi qo'shimcha. Bundan kelib chiqadiki, o'zaklar va qo'shimchalar o'zaro omonim holatda. Omonimiya hodisasining voqe bo'lishida leksemalardagi o'zaro o'xshashlik, shuningdek, leksik ma'no taraqqiyoti asos bo'lgan.

**suyulmoq I** fe'l, 1) "belgili darajadan suyuqroq bo'lmoq". *Loyga suvni ko'p quyavermang, suyulib ketadi.*; 2) fiz. "siqilib yoki erib suyuq holga kelmoq" (gaz yoki qattiq jismlar haqida). Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "suyuq holatga o't" ma'nosini anglatgan **suyu** – fe'lidan "o'zlik" ma'nosini ifodalovchi – I qo'shimchasi bilan hosil qilingan: **suyu + I** → **suyul**.<sup>73</sup> **Suyulmoq II** fe'l, "siylagan, hurmat-izzat qilgan yoki erkatatgan sari haddan oshmoq, chegaradan tashqari ish qilmoq". *Suyulib ketgan oshiqning tantiligi tutib ketdi* (I.Ibrohimov, "Yo'lakdagi muhabbat").

**Suyulmoq I** fe'li biror moddaning belgili darajadan suyuqlashishini bildiradi. Bunda suyuqlashish har xil yo'l bilan, ya'ni har xil tashqi yoki ichki ta'sir tufayli ro'y berishi mumkin: suvni ko'proq qo'shish, issiqlik berib eritish, siqib ezish va buzilish, aynish evaziga suyuqlashish kabilar.

**Suyulmoq II** leksemasi fe'l turkumiga mansub bo'lib, kishilarga nisbatan ishlatiladi. Birinchi leksema biror modda tarkibidagi molekular harakatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi leksema esa kishilar xatti-harakatining o'zgarishi bilan bog'liq. Har ikki leksemada harakatning muayyan me'yori buziladi. Masalan, "suyulib ketgan oshiq" kabi o'rinlarda insonlarning noodatiy harakati,

<sup>73</sup> Магазиник Д.А. Турецко-русский словарь. – Москва: 1945. - 553 с.

odob-axloq chegarasi (me'yori)ning buzilishi kabilar nazarda tutiladi. Ikkala leksema ham bir xil: **suyul + moq** tarzida.

**Suyulmoq II** leksemasi **suyulmoq I** leksemasidan ma'no ko'chishi yo'li bilan o'sib chiqqan. Ma'no ko'chishiga olib keluvchi sabab har ikki leksema ifoda etgan harakatning o'zaro o'xshashligi va umumiyligi deyish mumkin. Yuqoridagi misol leksik ma'no taraqqiyotining metafora usuliga asoslangan. Metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlaridan uchinchisiga mos keladi:

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi:<sup>74</sup> **savalamoq** (nimani) – **savalamoq** (kimni) va hokazo.

**uyalamoq I** “Uya qurmoq”, “in qurmoq”. *Qo'ltig'imda ari uyalasa chidayman-u, lekin qallig'imning cho'lga borishiga chidolmayman* (A.Hasanov, “Chiroqlar”).

**uyalamoq II** “Yotgan joyidan turolmay qolmoq, turishga majoli kelmay qolmoq” (hayvonlar haqida). *Qora qushlar aylanganiga birorta cho'loq qo'y uyalab qolib ketganmi, degan edim* (P.Qodirov, “Qora ko'zlar”).

**Uyalamoq I** leksemasi odatda tabiatdagi jonivorlar: qushlar, hasharotlar va hayvonlar haqida bo'lib, ularning nasl qoldirish, ko'payish uchun o'zlariga uy (uya) qurishi ma'nosini anglatadi.

**Uyalamoq II** tabiatdagi jonivorlar haqidagi fe'l bo'lib, uning birinchi leksemadan farqli tomoni shuki, u deyarli faqat hayvonlarga nisbatan qo'llanadi, ya'ni hayvonlarning biror notekis joyga tushib qolib yoki yiqilib qolib, u joydan chiqolmay, o'rnidan turolmay qolishi kabi ma'nolarni anglatadi. Ikkinchi leksema, birinchi leksemadan harakatdagi o'zaro o'xshashlik asosida o'sib chiqqan. Chunki hayvon tasodifan tushib qolgan chuqurlik va uning shunday holatdagi harakati qushlar yoki boshqa jonivorlarning uyasini eslatadi, ya'ni xuddi uyaga kirib qolgandek bo'ladi. Ikkinchi omoleksema hosila semalar asosida taraqqiy etgan va omonimiyani yuzaga chiqargan.

“Ba'zi so'zlarning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida ham omonimlar yuzaga keladi”.<sup>75</sup>

Masalan: - kun ishlaydi, tun dam oladi;

**Kun:** - kun chiqdi;  
- kun ko'rmoq kabi.

**eshmoq I** fe'l, 1) “aylantirib, burab, tovlab pishiq qilmoq, yigirmoq”. *Yigit belbog'ini eshib-eshib bog'ladi.*; 2) ko'chma, “o'miga qo'ymoq, qoyil qilmoq”. *Goho Yusuf amakim qo'liga dutorini olardi-da, shunday eshib chalaridiki, yuragimizni suv qilib yuborardi.* (U.Ikromov, “Unutilmas xotiralar”)

Bu so'z qadimgi turkiy tildagi “bura” ma'nosini anglatgan **ig** – fe'li oxiridagi **g** undoshi **y** undoshiga almashinib, hosil bo'lgan **iy** – shakliga (ESTYA, I, 230) “ko'p marta” ma'nosini ifodalovchi – (**i**)**sh** qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan (ESTYA, I, 396); keyinchalik, **y** undoshi talaffuz qilinmay, yonma-yon kelgan **i** unilari bitta cho'ziq **i:** unlisiga birlashgan, so'ngra, bu unlining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan va **e** unlisiga almashgan: (**ig** → **iy**) + **ish** → **iyish** → **i:sh** → **ish** → **esh** (O'TEL, 471).

**eshmoq II** (←I) fe'l, “eshkak bilan qayiqni harakatga keltirmoq; eshkak urmoq, tortmoq”. *Labi cho'chchaygan kichkinagina sanitar qiz eshkak eshardi.* (Asqad Muxtor, “Davr mening taqdirimda”)

**Eshmoq II** fe'lining o'zagi **esh** bo'lib, qadimgi turkiy tildagi “kovla” ma'nosini anglatgan **esh** fe'lining hosila ma'nolaridan biri asosida yuzaga kelgan (DS, 185; ESTYA, I, 315).

**Eshmoq I** leksemasi biror narsa (tola yoki ip)ni aylantirib, burab, yigirish, pishitish kabilarni anglatadi. Shuningdek, mubolag'a, qochirim kabilarda biror voqelikni bo'rttirib ko'rsatish, alohida ta'kidlash uchun ko'chma ma'noda qo'llanadi. **Eshmoq II** suvda qayiqni harakatlantirish uchun qilingan maxsus yog'och moslamalarni burab, aylantirish ma'nosini ifodalaydi. Ikkala leksemada ham o'zak **esh** turkiy so'z bo'lib, “o'rtoq”, “hamdam”, “yo'ldosh”, “sherik” singari ma'nolarda ishlatiladi. Shuningdek, “juft” ma'nosini, masalan, “bir esh mahsi” deganda va bola tug'ilgandan so'ng, tushadigan qobiqning qoldig'i – “yo'ldosh” ma'nolarini bildiradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida **esh** leksemasi faqat ot leksema sifatida tasvirlangan (O'TIL, II, 457). **Eshmoq I, II** leksemalarining ma'nolaridagi umumiy nuqtalardan biri, har ikki leksemada birdan ortiq tola yoki ipni (yoki eshkakni) qo'shib harakatlantirishning nazarda

<sup>74</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 1992. – 82 b.  
<sup>75</sup> Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. – Toshkent: 1960. – 19 b.

tutilishidir. Harakatdagi o'zaro o'xshashlik asosida ma'no taraqqiy etgan.

Ma'lumki, so'z ma'nosining ko'chishi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va boshqa usullar orqali yuz beradi. **Eshmoq I, II** omoleksemalarining voqe bo'lishi ma'no ko'chishining yuqoridagi metafora usuliga asoslangan.

**qiyiq I** ot, 1) "mato, qog'oz va sh .k.dan odatda uchburchak shaklda qiyib olingan parcha yoki ortib qolgan qiyindi, qiyqim". *Deraza oynalariga turli shakldagi qiyiq qog'ozlar yopishtirilgan.* (Oybek, "Quyosh qoraymas"); 2) "bir tomoni baland, bir tomoni past", "qiya", "qiyg'och", "qiyshiq". *Kumush ayvon ustuniga suyangach, qora qiyiq qoshlarini chimirib, ko'cha - yo'lak tomonga qaradi.* (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar"); 3) ko'chma, "xato, noto'g'ri, qing'ir". *Qildan qiyiq qidiradi.* (Maqol) *Agapovning seni mensimay, piching qilib, gapingdan qiyiq topib o'tirishi bejiz bo'lmas kerak.* (I.Rahim, "Ixlos")

Bu so'z asli "yotiq holda kes" ma'nosini anglatgan **qyuy** felidan – **ы**q qo'shimchasi bilan yasalgan (DS, 440), keyinchalik o'zbek tilida – **ы** unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan: **qyuy + ыq → qyuyыq → qiyiq** (O'TEL, 542).

**qiyiq II** (←I) ot, "odatda belga bog'lash uchun atrofiga gul tikilgan to'rt burchak mato"; "belbog', qiyiqcha". *Qozi qishda beqasam to'n ustidan shohi qiyiq bog'lar, yozda esa pilta yoqali oq yaktakni belbog'siz kiyardi* (I.Rahim, "Ixlos").

**Qiyiq I** leksema biror shaklda qiyib olingan mato, qog'oz kabi ma'nolarni ifoda etadi, ot turkumiga kiradi. Uning "qiya", "qiyshiq", "qisiq", "qaysar", "qing'ir" kabi belgi ma'nolari esa hosila, ko'chma ma'nolardir. Masalan, *Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi.* (Maqol)

Hozirgi kunda leksik ma'nolar bosh ma'no va hosila ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ (nomlovchi) ma'no va figural (majoziy) ma'no deb bir necha nuqtai nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisaga har xil yondashuvni ko'rsatadi.<sup>76</sup>

**Qiyiq II** leksema ot turkumiga mansub bo'lib, ma'lum shakldagi matoni yoki uning parchasini, bo'lagini ifoda etadi. **Qiyiq I, II**

<sup>76</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 1992. – 89 b.

leksemalarining umumiy jihati shuki, ikkala leksema ham muayyan shaklda (uchburchak yoki to'rtburchak) qirqib olingan, ya'ni shaklan o'zaro o'xshash bo'ladi. Masalan, to'rtburchak shaklida qirqib olingan belbog' yoki ro'mol (ro'mol ham ba'zi shevalarda qiyiq deb yuritiladi) bog'langanda ko'proq uchburchak holatda bo'ladi. Ularning asos semalari ayni bir turkumga mansub. Hosila semalari esa asos semalardan farq qiladi. Masalan, "qiyiq ko'z", "qiyiq qosh", "qiyiq bola" kabi belgi semalarini ot turkumiga kirita olmaymiz. Til taraqqiyotining muayyan bir bosqichida mazkur hosila semalar ham alohida sifat leksema bo'lishi mumkin. Ayni paytda **qiyiq I** va **qiyiq II** omoleksemalarining yuzaga kelishi ma'no ko'chishining metonimiya usuliga asoslangan.

**qirov I** ot, 1) "yerning yoki narsalarning betida hosil bo'ladigan yupqa, qorsimon zarralar". *To'lin oyning yorug'ida, o'simliklar bargida paydo bo'lgan qirov yangi yoqqan qor kabi yarqirab ko'rinardi.* (S.Ayniy, "Esdaliklar"); 2) "kuzgi qirov tushadigan payt"; "kech kuz". *Polizlardagi oq qirovga asralgan qirqma qovunlar ham uzildi.* (S.Ahmad, "Qadrdon dalalar"); 3) "soch (soqol)da paydo bo'lgan oq tolalar". *O'spirinning yonida chekka sochiga qirov tushgan o'ttiz besh yoshlardagi qoracha yigit yon daftarchasiga nimanidir yozayotgan edi.* (Hakim Nazir, "Odamning qadri")

**qirov II** (←I) ot, "yangi charxlangan pichoq, xanjar va sh.k. asboblarning damida qolgan metall zarralari". *Pichoqning qirovini to'kmoq.*

**qirov III** vet. "mollarning tilida qipiqsimon bo'rtiqlar paydo qiladigan kasallik". *Sigiringiz qirov bo'libdi.*

Qadimgi turkiy tilda bu ot asli **qyrag'u** tarzida talaffuz qilingan (M.Qoshg'ariy, Devon, I, 417), keyinchalik **g'u** tovushlari **v** tovushiga almashgan.<sup>77</sup> O'zbek tilida **v** undoshi oldidagi **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: **qyrag'u → qyrav → qyräv** (O'TEL, 550).

Har ikki leksema - **qirov I** va **qirov II** ot turkumiga mansub bo'lib, biror harakat natijasida yoki biror harakatdan so'ng hosil bo'ladigan, saqlanib qoladigan zarralar ma'nosini bildiradi. Birinchi bo'ladigan, saqlanib qoladigan zarralar ma'nosini bildiradi. Birinchi leksema bug'lanib, sovish natijasida paydo bo'ladigan yupqa, oq

<sup>77</sup> Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санктпетербург: 1969. Т. II. – 48 с.

qorsimon zarrani bildirsa, ikkinchisi metall buyumlarga ishlov berilganda paydo bo'ladigan yupqa metall zarrani bildiradi. Bu qorsimon va metall zarralari tuzilishiga ko'ra o'zaro o'xshash, shuningdek, ular uzoq vaqt saqlanib turmaydi. Masalan, **qirov I** leksemasining denotati, ya'ni oq, qorsimon zarra tezda erib ketgani singari, **qirov II** leksemasining denotati metall zarra ham tezda, ya'ni o'sha metall buyum ishlatilishi bilan to'kilib, tushib ketadi.

**Qirov I, II, III** omoleksemalarining yuzaga kelishi shakliy o'xshashlikka asoslangan. Bu fikrimizni xalq og'zaki ijodiyotiga doir ayrim ilmiy izlanishlar ham tasdiqlaydi:

“Xorazm xalq qo'shiqlaridagi lug'aviy birliklarning adabiy tilda qo'llanuvchi va boshqa ma'noni bildiruvchi lug'aviy birliklar bilan shaklan o'xshashligi natijasida ham omonimlar paydo bo'ladi: **alam** – “qayg'u, g'am”, **kunda** – “to'nka”, kabi. Bu so'zlar sheva leksikasidagi arab tilidan kirgan **alam** – “bayroq” va tojik tilidan kirgan **kunda** – “omoch” so'zlari bilan qo'shiqlarda omonim hosil qiladi”.<sup>78</sup>

**Qirov III** mollarning tilida paydo bo'ladigan qipiqsimon kasallikning nomi bo'lib qolgan, chunki bunday kasalga chalingan mollarning tilida ham oq, qorsimon bo'rtiqlar yuzaga keladi. Bu yerda bir narsa – hodisaga xos belgi nomining ikkinchi bir narsa – hodisaga o'zaro o'xshashlik asosida ko'chishi (metafora) tufayli omoleksemalar paydo bo'lgan.

### 3.3. Har xil turkumdagi o'zlashgan omoleksemalar

O'zbek tili lug'at boyligining ma'lum bir qismini chet tillardan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.

“Turli tillardan o'zlashtirilgan so'zlar o'zbek adabiy tilida omonimiyani yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, italyancha **banka** (pul bilan muomala qiluvchi tashkilot) so'zi bilan polyakcha **banka** (silindrsimon idish) so'zi omonim holatda”.<sup>79</sup>

Tahlil qilishni odatdagidek, o'zaro farqli belgi – xususiyatlari ko'proq bo'lgan, har xil turkumdagi o'zlashgan so'zlardan boshlaymiz.

<sup>78</sup> Мадрохимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка. Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент: 1978. - 292 с.

<sup>79</sup> Mirtojiev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. - 269 b.

**omil I** (arab.) ot, “ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k. ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab; faktor”. *Otabekning ma'naviy padari bo'lgan Hasanali ota uning maxfiy dardining asli omilini izlaydir.* (A. Qodiriy, “O'tgan kunlar”)

**omil II** (arab. ←I) sifat, “biror ishni yaxshi egallagan; usta, mohir, omilkor”. *Birini ikkiga chaqib, ikkini to'rt qilishga omil ota qizini (Tannoixonni) ishlagani qo'ymagan edi.* (Q. Maxsumov, “Muhabbat qo'shig'i”)

**Omil:** 1) “faktor”, “sabab”;  
2) gram. “bosh bo'lak”.<sup>80</sup>

**Omil I** leksema “sabab”, “asos” kabi ma'nolarni bildiradi, ot turkumiga kiradi. **Omil II** leksemasi biror ishni yaxshi egallagan, mohir, usta kabi ma'nolarga ega va sifat turkumiga mansub. Birinchi leksemaning “bosh”, “asos” kabi predmetlik semasi ma'no taraqqiyoti natijasida “usta”, “omilkor”, “uddaburon” singari belgi semalarini ham qamrab olgan. Oqibatda ikkita har xil turkumga xos omoleksemalar shakllangan. Har ikki leksema arab tilidan o'zlashgan. Arab tilida ham ushbu so'zlarning bosh sememasi, ya'ni “asos”, “sabab” ma'nolari mavjud.

**original I** (rus.←lat.) ot, “asl nusxa; biror asar yoki narsaning bevosita muallif yoki ixtirochi tomonidan yaratilgan nusxasi, asli”. *Hofiz asarlarining originali bilan tanishishga ham imkon berish niyatida, kitob fors va o'zbek tillarida nashrga tayyorlandi.* (Sh.Shomuhamedov, “Hofiz”)

**original II** (ruscha – “originalный”) sifat, “boshqalarga o'xshamay-digan, o'ziga xos, ajoyib, qaytarilmaydigan, betakror”. *Kirish zali original portretlar bilan bezatilgan.*

Mazkur omoifoda tarkibidagi birinchi leksema biror narsaning asl nusxasini, ya'ni aslini ifoda etadi va ot turkumiga kiradi. Ikkinchi leksema o'zida “boshqalarga o'xshamaydigan”, “o'ziga xos”, “ajoyib”, “takrorlanmas” kabi semalarni mujassamlaydi va sifat turkumiga kiradi. **Original I, II** leksemalari rus tilida ham xuddi shunday ma'nolarni anglatadi (SRYA, 411).

<sup>80</sup> Баранов Х. Арабско – русский словарь. – Москва: 1958. - 693 с.

Birinchi leksemaning predmetlik semasidan ma'no taraqqiyoti asosida belgi semasi, ya'ni sifat leksema o'sib chiqqan. Bu yerda ma'no ko'chishining konversiya usuli reallashgan.

Konversiyada kategorial o'zgarish yuz beradi: so'z turkumi o'zgaradi, shu bilan bog'liq ravishda so'zning sintaktik holati ham o'zgaradi.<sup>81</sup> Ot turkumi asosida sifat yoki aksincha sifat turkumi asosida ot leksemaning paydo bo'lishi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

**personal I** (rus. ←lat.) ot, "korxonalar, muassasa xodimlari yoki ularning ixtisosiga ko'ra bir guruhi". *O'qituvchilar personalining ro'yxati tuzib chiqildi.*

**personal II** (rus. ← "personalный") sifat, "biror kishiga tegishli, uning o'zi uchun belgilangan, shaxsiy" (O'TIL, I, 582).

**Personal** (lat.personalis): "shaxsiy".<sup>82</sup> Bu omoleksema "Rus tilining izohli lug'ati"da ikkita alohida so'z, ya'ni ot va sifat leksema tarzida berilgan (SRYA, 464). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa omonim deb qayd etilgan (O'TIL, I, 582).

**Personal I** leksemasi ruscha bo'lib, uning bosh ma'nosi shaxslarning ixtisoslashgan guruhini anglatadi, ot turkumiga kiradi. **Personal II** ana shu bosh ma'nodan o'sib, taraqqiy etgan belgi, yani sifatdir. Bu yerda ma'no torayishi asosidagi ko'chim yuz bergan. Umumjamoaga xos nomdan shaxsga tegishli belgi nomi paydo bo'lgan.

"Til doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgan ochiq tizimdir. Davrlar o'tishi bilan til tizimidagi ayrim birliklar eskirishi, yangisining kirib kelishi yoki oldingidan yangi ma'no va vazifaga o'tishi, ayrimlarida ma'no kengayishi yoki aksincha, torayishi mumkin".<sup>83</sup>

**fyedal I** (rus.←lat.) ot, "feodalizm davridagi kishilar tabaqasi; dehqonlarni ekspluatatsiya qiluvchi katta yer egasi, помещик". *O'tmish jamiyatlar quldor va qullarga, feodal va krepostnoylarga bo'lingan.* (Gazetadan)

**feodal II** (ruscha – "feodalный") sifat, "feodalizmga, feodallarga xos" (O'TIL, II, 298). *Feodal tuzum yemirilib, kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi.* Bu sifatning ma'no taraqqiyoti

o'zbek adabiy tilida omonimiyani vujudga keltirgan, chunki rus tilida **feodal II** sifat leksema omonimiya hosil etmaydi (SRYA, 787).

Birinchi leksema ot bo'lsa-da, jamiyatning feodal tabaqasini belgi asosida aks ettirgan. **Feodal I** leksemasining semema tarkibida belgi semasi ham mavjud bo'lgan. Yuqoridagi misollar vositasida biz boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning o'zaro omonimiya hosil etishi, bunda so'zlarning turkumlik kategoriyasi, shuningdek, sintaktik vazifasining ham o'zgarib ketishini ko'rib chiqdik. Ko'rinadiki, ularda biror ma'no qurshovining barham topishi emas, balki ma'no qurshovining o'sishi, taraqqiy etishi, natijada yangi sememaga ega bo'lishi yuz bergan. Bu esa so'z ma'nolarining bo'linishi, uzilishi, barham topishi kabi nazariy qarashlarga asos qoldirmaydi, aksincha, so'z ma'nolarining o'sib, taraqqiy etishi haqida so'z yuritishni taqozo etadi.

### 3.4. Bir xil turkumdagi o'zlashgan omoleksemalar

"Omonimiyaning eng janjalli tomoni uni polisemiya bilan farqlash masalasidir",<sup>84</sup> - deb ta'kidlanadi manbalarning birida. Haqiqatan, agar omoleksemalar bir xil turkumga oid bo'lsa, ularni polisemantik so'zlardan ajratib, farqlab olish ancha murakkab. Faqat semik tahlil asosidagina aniqlik kiritish mumkin bo'ladi. Masalan:

**kurs I** (rus. ←lat.) ot, 1) "o'quv yurtlarida fan yoki uning biror qismining ma'lum hajmdagi tizimli bayoni; shunday bayondan iborat bo'lgan darslik". *Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi o'quv kursi.*; 2) "oliy va maxsus o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonining har bir yili, bir yillik bosqichi". *Men - birinchi kurs talabasiman.*; 3) "davolanishning tugal bir doirasi". *Elektr bilan davolanish kursi tugallandi.*

**kurs II** (rus. ← lat.) ot, 1) "kema, samolyot va sh .k.ning tutgan yo'li yoki olgan yo'nalishi". *Janob kapitan, kemani Bektosh kursidan adashtirmasang, yelkangdan o'q yeysan.* (Asqad Muxtor, "Qoraqalpoq qissasi"); 2) "pul yoki qimmatbaho qog'ozlarning davlat tomonidan belgilanadigan qiymati" (O'TIL, I, 407). *Amerika dollarining kursi ko'tarildi.*

<sup>81</sup> O'zbek tili grammatikasi. - Toshkent: Fan, 1975. T. I. - 46 b.

<sup>82</sup> Краткий словарь иностранных слов. - Москва: 1987. - 369 с.

<sup>83</sup> Mirzoqulov S.M. Qarindosh tillardan tarjima asarlar tilining leksik-semantik tadqiqi.: Filol. fan nomzodi dis. ... avtoref. - T.: 2000. - 22 b.

<sup>84</sup> Mirtotiyev M. O'zbek tilida polisemiya. - Toshkent: Fan, 1975. - 29 b.

**Kurs I, II** omoleksemalari bir xil turkum, ya'ni ot turkumida bo'lsa ham, ular ma'no tolalari qurshoviga ko'ra, alohida so'zlardir. Birinchi leksemaning "o'quv jarayoni hajmi, tugal bayoni" ma'nolari bilan ikkinchi leksemaning "yo'nalish, harakat yo'li" ma'nolarini bir sememaga birlashtirib bo'lmaydi. Chunki ularga alohida hodisalarni anglatuvchi, mustaqil so'zlar deb qarash kerak. Masalan, o'quv kursi bilan pulning kursi qiymati ma'nolari bir so'z emas, balki biri ikkinchisidan o'sib chiqqan omonim so'zlar hisoblanadi.

**marka I** (rus. ←nem.) ot, 1) "pochta haqi va boshqa xil davlat yig'img'larini to'lashda ishlatiladigan, narxi yozilgan, biror tasvir tushirilgan qog'ozcha". *Konvertida pochta markasi bo'lishi kerak.*; 2) "mol, tovarga qo'yilgan tamg'a". *Bu aroqning aksiz markasi bor.*; 3) "biror buyum yoki mahsulotning navi, xili". *Po'latning yangi markasi yaratildi.*

**marka II** (rus.← nem ) ot, "Germaniya va Finlyandiyaning pul birligi", "chegara hududi" (O'TIL, I, 447). *Markaning kursi qancha bo'ldi?*

**Marka I** ot leksema bo'lib, pochta to'lovi va boshqa yig'img'lar belgisi, tovarning savdo belgisi, biror mahsulotning turi, navini ko'rsatuvchi belgi, umuman, doimiy hujjat bo'la oladigan qog'oz hisoblanadi. Uning rus tilida *Germaniyaning muayyan hududi, chegarasi* ma'nolari ham mavjud. Rus tili izohli lug'atida ham bu so'z omoleksema tarzida tasvirlangan (SRYA, 229).

Tilning ma'lum bir taraqqiyot bosqichida ushbu qog'oz, hujjat so'zi zaminida pul birligining nomi, atamasi – **marka II** vujudga kelgan.

**Marka I, II** leksemalari uchun bosh ma'no "davlat qog'ozi" ma'nosidir. Chunki har ikki so'z shu bosh ma'nodan shakllangan va ikkinchi omoleksema mustaqil ot, nom darajasiga o'sib yetilgan.

Ma'lumki, arab tilidan turkiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ko'pgina lug'aviy birliklarning kirib kelishi, uning sabablari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda atroflicha fikr bildirilgan.<sup>85</sup> Arab tilidan o'zlashgan

<sup>85</sup> Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.: 1945.; Акылбекова З. Арабизмы // Источники формирования тюркских языков Средней Азии и Южной Сибири. – Фрунзе: 1966.; Usmonov S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojikcha va arabcha so'zlar // Navoiyga atnug'on. – Т.: 1968. – B. 109 - 120.; Begmatov E. O'zbek tili leksikologiyasi. – Т.: Fan, 1981. – B. 111 - 124.; Jumaniyozova M.X. Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi. Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – Т.: 1999. – 11 b.

quyidagi leksemalar ham ma'no taraqqiyotining muayyan, o'ziga xos yo'lini bosib o'tgan:

**me'da I** (arab.) ot, "ovqat hazm qilish a'zolaridan biri, oshqozon". *Sakkiz-to'qqiz oylab qovun ko'rmagan me'daga odatdan tashqari ko'p tiqilgan yangilik o'z ishini qiladi.* (A. Qodiriy "Obid ketmon")

**me'da II** (arab. ←I) ot, "terida oq yoki rangli dog'lar hosil qiladigan kasallik" (O'TIL, I, 462). *Bu bemor me'da bilan og'rigan.*

**Me'da** so'zining arab tilida 1) "oshqozon"; 2) med. "gastrit" singari ma'nolari mavjud (ARS, 969).

**Me'da I** leksemasi arab tilida oshqozon, oshqozon kasalligi, oshqozon suvi ma'nolarida ishlatilgan. ot turkumiga kiradi, nima? so'rog'iga javob bo'ladi. **Me'da II** o'zbek tilida terida oq dog'lar hosil qiluvchi kasallik nomi sifatida qo'llanadi. Shu ikkinchi ma'no arab tilidagi oshqozon kasali (gastrit) bilan bog'liq. Agar oshqozonda biror dard bo'lsa, terida oq dog'lar paydo bo'ladi va aynan shunday oshqozon bilan bog'liq bo'lgan teri kasalligini "me'da" deb atashadi. Me'da lekse-lan bog'liq bo'lgan teri kasalligini "me'da" deb atashadi. Me'da lekse-masining medisina termini sifatidagi keyingi ma'nosi teri kasalligining nomini bildirsa-da, kelib chiqishi oshqozon bilan bog'liqdir. **Me'da II** leksemasiga leksik ma'no taraqqiyotining mahsuli deb qarash kerak.

**sano I** (arab.) ot, "Xudoning, payg'ambarlarning sha'niga aytilgan maqtov so'zlar; madhiya, madh, hamd".

*Otang bormi, onang bormi elingda,*

*Olohning sanosi bormi tilingda?* ("Ravshan" dostonidan)

**sano II** (arab. ←I) ot, "tropika va subtropikada o'sadigan, dukkakkillar oilasiga mansub, ko'p yillik shifobaxsh o't, buta va daraxtlarning umumiy nomi, ularning bargi" (O'TIL, II, 19) *Sanodan surgu dori sifatida foydalanish mumkin.*

**Sano** so'zining arab tili lug'atida quyidagicha ma'nolari aks etgan: 1) "yarqirash", "nur taratish, jilolanish". 2) "buyuklik, yuksaklik" (ARS, 475).

**Sano I, II** leksemalari misolida ma'no taraqqiyotining odatdagi usulini, ya'ni ot leksemadan ot leksema o'sib chiqishini ko'ramiz, biroq birinchi so'z *maqtov, madh* singari mavhum ma'no ifoda etsa, ikkinchi so'z aniq ma'no: *shifobaxsh o't, buta, daraxt* ma'nolarini bildiradi. Birinchi leksema tarkibidagi hosila ma'nolar taraqqiy etib, tabiatdagi o'simlikning nomini qurshab olgan. Bu yerda ma'no taraqqiyotining

mavhumlikdan konkretlikka qarab borganini ta'kidlash lozim. So'z ma'nolari o'zaro bog'liqlik asosida yangi so'z, mustaqil leksema hosil etmoqda.

Agar biz mazkur leksemaning arab tilidagi ma'nolariga nazar tashlasak, u holda omonimiyani yuzaga chiqargan hosila semalarni yaqqolroq ko'ramiz. Ular "yarqirash", "nur taratish" va "buyuklik" semalari-dir. Chunki hamdu sano buyuklarga aytiladi, ular nur taratguvchidir. Shuningdek, **sano II** o'simligi ham yarqiroq, nur sochuvchi bo'lishi kerak. Ana shu umumiy belgilar ma'no taraqqiyotining asosi bo'lgan.

**sarf I** (arab.) ot, "biror maqsad uchun xarj bo'lgan pul, mablag' miqdori, xarajat, chiqim". *Eh-he, paxtamizga qancha pul sarf bo'ldi, buni tushunish kerak.* (Oybek, "Qutlug' qon")

**sarf II** (arab. ←I) ot, esk. "morfologiya" (O'TIL, II, 25).

**Sarf** so'zining lug'atda 1) "xarajat qilmoq", "chiqim qilmoq"; 2) "tarqatmoq" (bilet); 3) "to'lamoq" (pul); 4) gram. "turlamoq, tustlamoq"; 5) "mahkamlamoq, berkitmoq" (eshik haqida) kabi ma'nolari mavjud (ARS, 549).

**Sarf I, II** omoleksemalari arab tilining izohli lug'atida ham bir necha komponentli omonim so'zlar sifatida tavsiflangan, biroq ushbu lug'atda **sarf II** – "morfologiya" ma'nosi uchramaydi. Anglashiladiki, mazkur leksemaning arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashuvi jarayonida ma'nolar taraqqiy etgan. Natijada tilshunoslikning bir bo'limini ifodalovchi yangi ma'noli so'z, atama paydo bo'lgan. Aslida **sarf** so'zining hosila ma'nolari tarkibida grammatik semalar – "turlamoq", "tustlamoq" mavjud edi. Xuddi shu semalardan yangi asos semema yuzaga kelgan.

Shunga o'xshash hodisalarni tildagi parafrazalarda ham ko'rish mumkin:

"Ta'kidlash lozimki, parafrazalardagi ma'nodoshlik leksik sinonimiyadagi kabi leksemalarning bosh ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki parafrazalar tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nolaridan hosil bo'ladi"<sup>86</sup>. **Sarf I, II** leksemalari arab tilida harakat ma'nosini ifoda etgan. Mazkur fe'l asosida o'zbek tilida otlar paydo bo'lgan. Ular so'zlardagi leksik ma'no taraqqiyotining bir til doirasida cheklanib qolmasligini, so'zlarning turlicha shakl va usullarda doimo harakatda, o'sishda ekanligini ko'rsatadi.

<sup>86</sup> Umirov E.I. O'zbek tili parafrazolari: Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – Toshkent: 1996. -12 b.

## IV BOB.

### OMONIMIYA VA POLISEMIYA HODISALARINING O'ZARO MUNOSABATI

#### 4.1. So'zlarda leksik ma'no taraqqiyoti muammosi

Tildagi tushunchalar so'zlar vositasida anglashiladi. Biroq so'z ma'nolari ko'pqirrali bo'lib, tilda, shuningdek, nutqda turli xil munosabatlarni ro'yobga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan til hodisalari va qonuniyatlari bilan nutq hodisalari va qonuniyatlari o'zaro farqlanadi. So'zlar qanchalik ko'p ma'noli bo'lmasin, ular matnda yoki nutq jarayonida aniq bir ma'noda ishlatiladi. Ana shu ma'no leksik ma'no hisoblanadi.

"Leksik ma'nolar to'g'ri ma'no va ko'chma ma'nolarga guruhlanadi. Leksemaning bosh leksik ma'nosi odatda to'g'ri ma'no bo'ladi. Masalan, *tosh* leksemasining bosh leksik ma'nosi – "qattiq tog' jismi". Bu-to'g'ri ma'no ham. Hosila ma'no odatda ko'chma ma'no bo'ladi. Masalan, *tosh* leksemasining *tosh nok* kabi bog'lanishdagi "qattiq" ma'nosi shu leksemaning "qattiq tog' jismi" ma'nosiga nisbatan hosila ma'no, shuning bilan bir vaqtda ko'chma ma'nodir.

Ma'noni ko'chirish asosida yotgan obraz so'nishi, unutilishi mumkin. Shunga qaramay, bunday ma'no ko'chma ma'no deb qaralaveradi. Masalan, *tog'ning beli*, *qozonning qulog'i*, *choynakning burni*, *stolning oyog'i* kabi qo'llanishda ko'chirish asosida yotgan obraz so'ngan, bunda *bel*, *quloq*, *burun*, *oyoq* so'zlari kishi a'zolarini eslatib turmaydi"<sup>87</sup>.

Leksik ma'noni namoyon qiluvchi asosiy vosita leksik qurshovdir.<sup>88</sup> "Har bir leksik ma'noning qurshovi alohida bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi. Ajratilgan leksik ma'nolarning qurshovlarini, albatta, qiyoslab ko'rish kerak. Agar qurshovlar bir-birini takrorlamasa, leksik ma'noni to'g'ri belgilagan bo'lamiz. Leksik ma'noni belgilashda

<sup>87</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. - 91 b.

<sup>88</sup> Qurboniyozov G. Turkiy tillarda so'z ma'nolarini qiyoslab o'rganish haqida // Til va adabiyot ta'limi. 1998. – № 2. - 47 b.

semalardan kelib chiqish lozim. Bunda umumiy, keng miqyosli semantik komponent arxisema deyiladi”.<sup>89</sup>

Tildagi leksemalar bir ma'noli, ko'p ma'noli, shuningdek, boshqa xil ma'no munosabatlariga ham ega bo'lishi mumkin. O'zbek tilining lug'at boyligida aksariyat so'zlar ko'p ma'noli birliklardir. Bu esa tilimizning tejamkorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Til tabiiy ravishda ixcham, qisqa ifodaga ega, ya'ni har bir ma'no uchun alohida bir so'z emas, balki bir so'z bilan bir necha ma'nolar qamrab olinadi. Bular, albatta, tilning ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti natijasidir.

So'z ma'nolarining turli-tumanligi dunyo olimlarini, jumladan, o'zbek tilshunoslarini ham azal-azaldan qiziqtirib kelgan hodisalardan. Bir necha asrlardan buyon olimlarimiz aynan so'zlarning ma'no munosabatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borganligi haqida uzoq va yaqin tariximiz guvohlik beradi.<sup>90</sup> Ammo ko'p ma'noli birliklar va omonimlarni o'zaro farqlab olish, ularning yuzaga kelish yo'llari xususidagi ziddiyatli fikrlarning hamon saqlanib qolayotgani, ayniqsa, bir lug'atda polisemik leksema sifatida tasvirlangan ayni bir so'zning boshqa bir lug'atda omoleksema deb berilishi kabi holatlar leksik ma'no taraqqiyotini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida ayrim mulohazalarni keltiramiz:

“Faktlarga murojaat qilaylik: 1959-yilda nashr etilgan “O'zbekcha – ruscha lug'at”da *issiq, sovuq, chaqmoq* so'zlari quyidagi tartibda berilgan:

**issiq** I теплота; жар, жара, зной; // тёплый; горячий, жаркий, знойный; // тепло, жарко.

**sovuq** I холодный; морозный, свежий (о погоде), холодно. свежо; // холод, мороз, холода.

**chaqmoq** I колоть, раскалывать, грызть.

**chaqmoq** II пилёный (или кусковый) сахар.

**chaqmoq** III молния.

<sup>89</sup> Rahmatullayev Sh. Leksik ma'noni komponentlab tahlil qilish tajribasidan // O'zbek tili va adabiyoti, 1978 – № 4. – 57 b.

<sup>90</sup> Qarang: Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. – T.:1960. T. I-III.; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – T.: 2000. T.16.; Attuhfatuz zakiyati fillug'atit turkiya. – T.: 1968.; Kamolov F. Leksikologiya va semasiologiya // Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.; Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.; Numonov A. va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.; Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

Lug'atning 1988 yilgi nashrida ham mazkur so'zlarning shu tartibda berilishi aynan saqlangan. Misollardan ko'rinadiki, *issiq, sovuq* so'zlarining bosh ma'nosi ham sifat, ham ot, ham ravish shakllarida bir ma'no doirasida berilgan, chunki lug'atdagi tik parallel chiziqlar so'zning boshqa so'z turkumiga xosligiga ishoradir. *Chaqmoq* so'zi esa fe'l, sifat va ot turkumlari doirasida mustaqil so'z sifatida qaralib, omonim tarzida talqin etilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da esa *issiq va sovuq* so'zlarining ot va sifat turkumida kelishi mustaqil ma'no sifatida arab raqami bilan ajratilib, ot, sifat kabi leksikografik belgilar vositasida ko'rsatilib, *chaqmoq* so'zi esa omonim tarzida uchta lug'at maqolasini tashkil etgan. Natijada, bunday so'zlar goh omonim tarzida, goh tik parallel chiziq bilan, ba'zan esa bir lug'at maqolasi ichida ko'p ma'noli so'z sifatida talqin etilib, arab raqamlari bilan ma'nolarga ajratib ko'rsatish kabi sub'yektiv holatlar kelib chiqqan. Lekin biror turkumdagi so'zning boshqa so'z turkumi vazifasida, boshqa kategoriyada qo'llanishini omonimiya hodisasidan farqlash lozim. Chunonchi sifatning ot yoki ravish vazifasida qo'llanishi bir so'z doirasidagi grafik hodisadir, binobarin, ularni omonimiya hodisasiga daxldor deb bo'lmaydi”.<sup>91</sup> Aynan shunday fikrlarni rus tilshunosligida ham ko'rish mumkin.<sup>92</sup>

Shu o'rinda semasiologiya sohasidagi keyingi ba'zi ilmiy tadqiqotlarga to'xtalib, **polisememiya** va **polisemiya** terminlarining ilm- fanda qo'llanilishiga aniqlik kiritsak:

“Avvalo, polisemiya termini xususida fikr bildiramiz. Bu termin asli so'zning bittadan ortiq leksik ma'noli bo'lishi hodisasini nomlash uchun yaratilgan, keyinchalik, boshqa lingvistik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi ham shu termin bilan nomlanib ketdi. Semasiologik tadqiqotlarning keyingi rivoji, ayniqsa, semasiologik hodisalarni aniq chegaralash, ta'riflash, nomlash uchun jalb qilingan semema, sema kabi terminlarning ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi polisemiya terminining zaminini biroz bo'shashtirib qo'ydi. Chunki bu termini yasashda qatnashgan sema qismi asli grekcha (sema) – “belgi”

<sup>91</sup> Aliqulov T., Ravshanov M. Lug'atlarda omonimlarning berilishi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990. – № 2. – B. 51-54.

<sup>92</sup> Qarang: Чаусова Н. Г. Вопросы омонимии в средней школе // Русский язык в школе. – Москва: 1988. – № 4. – С. 26 - 28.; Виноградов В. В. О грамматической омонимии в современном русском языке // Русский язык в школе. – М.: 1940. – № 1. – С. 1 - 12.; Шендельс Е. И. О грамматической омонимии // Иностранцы языки в школе. – М.: 1955. – № 6. – С. 15 - 20.

ma'nosini ifodalaydi, hozirgi semasiologiyada ana shu ma'nosiga muvofiq ("ma'no tarkibida qatnashadigan komponent"ni anglatuvchi termin sifatida) ishlatilmoqda. Polisemik (ko'p semali) termin so'zning (leksemaning) ko'p ma'noliligini atashdan ko'ra, leksik ma'no tarkibidagi komponentni atash uchun mos bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, leksik ma'no yangi nom oldi: **semema** deb yuritiladigan bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlangan ikki terminning (semema, sema) qabul qilinishi polisemiya terminini qayta baholashga undaydi, shakllanib borayotgan yangi terminlar tizimiga moslashtirishni taqozo qiladi. Fanda yuz bergan ana shu aniq o'zgarishni hisobga olsak, bittadan ortiq sememasi bor til birligini polisemem til birligi deb, shunday hodisani esa polisememiya deb nomlashimiz to'g'ri bo'ladi".<sup>93</sup>

Yuqoridagi mulohazalarga e'tibor qilsak, o'z-o'zidan ayon bo'ladiki, ko'p ma'noli so'zni polisemik so'z deb, shunday hodisani esa polisememiya emas, aksincha, polisemiya deb atash kerak bo'ladi. Chunki, birinchidan, polisemik so'zda leksik ma'no, ya'ni semema bitta bo'ladi, semalar, ya'ni ma'no komponentlari esa ko'p bo'ladi. Aslida semema tushunchasi leksema tushunchasiga yaqindir. Demak, bunday so'zlarni polisemik so'zlar deb atash voqelikni to'g'ri aks ettiradi. Ikkinchidan, til tabiiy ravishda har bir hodisani qisqa, ixcham va aniq ifodalashga intiladi. Ushbu nuqtai nazardan ham ko'p ma'nolilik hodisasini polisemiya (polisememiya emas) deyish maqsadga muvofiqdir.

So'zning ma'nosi til, nutq va tushuncha masalalariga ham aloqador. U biror narsa, belgi yoki hodisa bo'lsa-da, ayni paytda, kishi ongida ma'lum tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Ma'no, shuningdek, so'zning tovush tizimi bilan uzviy bog'liq. Tildagi tovushlarning istalgan holda yoki tartibsiz joylashuvi ma'no hosil etmaydi. Demak, so'zning ma'nosi uning tovush tizimi bilan birga yashaydi.

O'zbek tilida **e'tiqod**, **oqibat**, **iymon** kabi so'zlar turli xil jilvalanib, juda keng ko'lamlil ma'naviy-ruhiy tushunchalarni o'zida qamrab oladi. Bunday chuqur ma'noli so'zlar o'zbek xalqining ko'p

<sup>93</sup> Rahmatullayev Sh. Lug'at boyligini o'rganish va o'rgatishda qayta baholash zarur bo'lgan ba'zi masalalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1990. № 3. - 30 b.

ming yillik tarixi va milliy ma'naviyati bilan bog'liqdir. Shu sababli ularni boshqa tillarga ma'naviy tarjima qilib bo'lmaydi. Masalan, birgina **e'tiqod** so'zining "*Allohni tanish*", "*Allohni sevish*", "*ishonish*", "*ko'ngil qo'yish*", "*sig'inish*", "*hurmat qilish*", "*ruhlantirish*", "*tabarruk, muqaddas deb bilish*", "*pok bo'lish*", "*bilib olish*", "*tushunib olish*", "*anglab yetish*", shuningdek, **oqibat** so'zining "*natija*", "*munosabat*", "*o'zaro hurmat*", "*uzoqni ko'zlab ish qilish*", "*e'tibor*", "*birdamlik*", "*qiyomatlik*", "*muomala*", "*xotima*", "*nihoya*", "*shafqat*", "*mehr*" kabi **iymon** so'zining "*Alloh visoliga yetishish*", "*ilmli bo'lish*", "*to'g'rilik*", "*poklik*", "*ma'naviy poklik*", "*samimiylik*", "*ruhiy sog'lomlik*", "*ruhning tozaligi*", "*mo'tabarlik*", "*burchlilik*", "*vazifani ado etish*" singari bir necha o'nlab ma'nolari mavjudki, bunday polisemiya faqat o'zbek tiligagina xosdir.

So'zning yangi ma'noga ega bo'lishi tilning muayyan ichki yoki tashqi imkoniyatlari va qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Yangi ma'no hosil bo'lishi murakkab jarayonlardan biri bo'lib, mutaxassislar bu to'g'rida hanuzgacha bir fikrga kelgan emas. Ayrim manbalarda yangi ma'noning yuzaga kelishi til hodisasi deb baholansa, boshqalarda nutq vaziyati asos qilib ko'rsatiladi. Umuman, so'z ma'nolarining yuzaga kelishi xususidagi qarashlar turlicha. So'z ma'nolari va ularning yuzaga kelish qonuniyatlari tilshunoslikning semasiologiya bo'limida o'rganiladi. Bu bo'limda polisemiya va omonimiya hodisalari haqida ham bahs yuritiladi.

#### 4.2. Omoleksemalarning boshqa ma'no birliklaridan farqlanishi

Ijtimoiy hayot, ilm-fan, texnika va tafakkur taraqqiysi tabiiy ravishda tildagi so'zlar va ularning ma'nolarini ham rivojlantiradi, yangi ma'nolarning qo'shilishiga olib keladi. Masalan, bir so'zining "*miqdor son*", "*o'lchov*", "*qism*", "*taxmin*", "*imkoniyat*", "*qat'iyat*", "*birdamlik*", "*hamkorlik*", "*qiyos*", "*tafsilot*", "*yolg'iz*", "*ortliqlik*", "*kamlilik*", "*tezlik*", "*ehtiyot*", "*nav*", "*uddaburolik*", "*doimiylik*",


“oqibat”, “tasodif”, “sir”, “tasalli”, “shart” kabi ma’nalari ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.<sup>94</sup>

1-chizma

Lekin ushbu misolda **bir** soʻzining ma’nalari koʻchim asosida turli tushunchalarni ifodalagan va bu tushunchalar oʻsha matn yoki oʻsha vaziyat bilan bogʻliqdir. Demoqchimizki, yuqorida sanalgan ma’nolar **bir** soʻzining doimiy, ya’ni til bosqichida birlashtirilgan ma’nalari emas. Bunday hollardagi polisemiya hodisasi omonimiyani yuzaga chiqarmaydi, balki nutq vaziyati, matn talabi bilan bogʻliq holda ayni bir soʻzning ma’nalari koʻchadi, turlanadi. Lekin batamom farqlanuvchi yangi ma’noli soʻz (leksema) yuzaga kelmaydi. Sintaktik nuqtai nazardan xuddi shunday holatni biz **yaxshi** va **yomon** leksemalarida ham kuzatamiz:


“*Yaxshiga yondash, yomondan qoch*” oʻzbek xalq maqolini misol qilib olsak, unda **yaxshi** va **yomon** sifat soʻzlari shunday sifatga ega boʻlgan kishilar ma’nosida, ya’ni ot oʻrnida qoʻllangan, xolos. Bu sifat leksemalar nutqda vaqtinchalik ot vazifasini bajarib turibdi. Til kategoriyalari nuqtai nazaridan ular butunlay ot (predmet) boʻlib qolgan emas, balki morfologik jihatdan sifat soʻzlarning otlashishi yuz bergan. Bu soʻzlarning ot boʻlib qolishi uchun ularning predmet ma’nosi turkum semasi sifatida leksema tarkibida mavjud boʻlishi kerak edi. Ayni paytda **yaxshi** va **yomon** sifat soʻzlari nutq vaziyati talabi bilan ot turkumi oʻrnida ishlatilgan, biroq yangi leksema yoki semema paydo boʻlgan emas. Bir turkum semasi asosida boshqa bir turkum semasi vujudga kelganda, odatda, bosh va hosila semalar hamda ularning oʻziga xos taraqqiy etishi kuzatiladi. Sememalar tarkibida jiddiy oʻzgarish – alohida leksik qurshovlar shakllanadi. Tilda bunday yoki aksincha vaziyatlar roʻy berib turadi.

Yuqoridagi fikrlarimizni amaliy chizmalarda tasvirlaymiz:



2-chizma

**Bir turkum leksemasining boshqa bir turkum oʻrnida kelishi:**



Koʻrinadiki, turli xil ma’no koʻchimplari (metonimiya, metafora, vazifadoshlik, sinekdoxa, kinoya, majoz, istiora, sifatlash, oʻxshatish, jonlantirish va hokazo) orqali, shuningdek, soʻzning sintaktik vazifasi, matn (nutq) vaziyatiga koʻra, soʻzlarning ma’nosi oʻzgarishi yoki boshqa ma’nolarda qoʻllanishi mumkin. Ammo bunday vaziyatlar tilda

<sup>94</sup> Hozirgi oʻzbek adabiy tili (Gʻ. Abdurahmonov tahriri ostida) – T.: 1966. T. I. - 152 b.

doimo yangi ma'noli so'zning paydo bo'lishiga olib kelavermaydi. Ko'pincha bir so'zning ma'no turlarini, polisemiyaning hosil etadi. Ularni yangi ma'noli leksemaning paydo bo'lishi, ya'ni omonimiya hodisasi bilan adashtirib yubormaslik lozim.

"Polisemiyaning yondosh hodisalardan farqlanuvchi belgilarini aniqlab chiqish zarur.. Polisemantik so'z strukturasi ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa ham, uni mukammal deb bo'lmaydi. Polisemiyaning yuzaga keltiruvchi hodisalarga tilshunoslikda ko'p urinilgan bo'lsa ham, u bir yoqlama bo'lib qolgan".<sup>95</sup>

Darhaqiqat, so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tilda birgina ma'noni bildiruvchi so'zlar monosemem leksemalar deb ataladi, ya'ni yunoncha **mono** – "bir", **sema** – "belgi" demakdir. Monosemiyada bir shaklga barcha vaziyatlarda birgina ma'no to'g'ri keladi:

{	F	– monosemiya	F – shakl S – sema
	S		

Odatda, ilm-fan, texnika va hunar sohalariga oid terminlar monosemem leksemalar hisoblanadi. Masalan: **chumchuq**, **kesim**, **izoh**, **fonendoskop**, **choynak** kabilar.

Polisemiya (yunoncha **poly** – "ko'p", **sema** – "belgi") hodisasida esa bir necha ma'no tolalarining bir bosh ma'noga birlashib turishini ko'ramiz:

{	sema (1)	– polisemiya
	sema (2)	
	sema (3)	
	sema (4)	
	sema (5)	

Tilda polisemiya hodisasining o'ziga xos tomonlarini yuzaga chiqarish maqsadida, polisemantik so'zlarni tahlil qilib, ularning omoleksemalardan farqlanishini chizmalar vositasida ko'ramiz. O'zbek

<sup>95</sup> Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. -13 b.

tilidagi **aziz**, **bahs**, **bet**, **gunoh**, **kuch**, **ko'z**, **ko'k**, **yo'l**, **ish**, **mash'al**, **nola**, **nur**, **qo'l** kabi so'zlar polisemem leksemalardir. Masalan, **aziz** so'zi **hurmatli**, **qadrli**, **ulug'**, **muqaddas** kabi belgi ma'nolarini ifoda etadi va sifat turkumiga kiradi.

**Aziz** so'zining leksik ma'no qurshovlari quyidagicha:

1) "qadrli", "qimmatli", "hurmatli", "muhtaram". *Farzand aziz, odobi undan aziz.* (Maqol); *Jondan aziz mehmon; Azizim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang.* (Abdulla Qahhor, "Og'riq tishlar")

2) "ulug'", "a'lo", "bebaho". *O'zbekiston – aziz Vatanim!; Non-rizqu ro'zimiz, shuning uchun u azizdir; Bu tig' sen uchun eng nodir xotiralar bilan hog'langan. Shuning uchun aziz tutasan.* (Oybek, "Navoiy");

*Salom, mening aziz dugonalarim.*  
*Azizim, lobarim, chevarim qizlar.*  
(Zulfiya, "Qizlarga")

3) "qimmatli", "g'animat", "qutlug'", "tabarruk".  
*Aziz asrimizning aziz onlari,*  
*Aziz odamlardan so'raydi qadrin.*  
(G'afur G'ulom, "Vaqt")

4) "kamchil", "taqchil". *Bu yerda suv juda aziz.* (O'TIL, I, 30)

**Aziz** leksemasi yuqoridagicha ma'no qirralariga ega bo'lsa-da, ularning barchasi bir bosh ma'noga birlashadi, polisemem leksema hisoblanadi.

**Bahs** so'zi ilmiy, adabiy va boshqa mavzulardagi munozara, tortishuv, fikr ma'nolarini bildirib, ot turkumiga kiradi. Bu polisemem leksemaning ma'nolari ham bir bosh ma'noga birlashadi, ya'ni hosila ma'nolar taraqqiyoti polisemiyaning yuzaga chiqqan, ularni alohida semema deb qarab bo'lmaydi. Uning leksik ma'nolari quyidagicha:

1) "fikir", "munozara", "musobaqa". *Turli mavzularda bahs yuritildi; Terma jamoalar karate bo'yicha bahslashadilar.*

2) "o'zinikini ma'qullash", "tortishish". Masalan, *Vaqt g'animat o'rtoqlar, bahs bilan vaqtни o'tkazmaylik* (Asqad Muxtor, "Opa-singillar").

3) "fanda ma'lum bir masalaga oid bo'lim". *Mexanika bahsi; Nur haqidagi bahsning o'zi ularning ko'nglini allaqachon yoritib yuborgan edi* (Said Ahmad, "Qadrdon dalalar").

**Bet** polisemem leksemaning ma'nolari quyidagicha:

1) "odam boshining oldingi qismi", "yuz", "aft". *Uning betidagi quyuuq qora qoshi, qorachig'i, yirikdan kelgan o'ynoqi ko'zlari Elmurodga Muharramni eslatdi* (Shuhrat, "Shinelli yillar").

2) "yuzning yonoqdan iyakkacha bo'lgan ikki tomonidan har biri". *Ikki beti qip-qizil olmaday.*

3) "biror narsaning sirti, yuzi". *Yerning beti sergib, tobga kelishi bilan chigit ekila boshlaydi.*

4) "sahifa". *Gazetaning to'rtinchi beti.*

5) "chet", "qirg'oq", "sohil". *Salorga yaqinlashganda, suvning narigi betidan xotinlarning tovushi keldi.* (Oydin)

6) "uyat", "or-nomus". *Elga qo'shilganning ko'ngli to'q, eldan ajraganning beti yo'q.* (Maqol)

Yuqorida **bet** so'zining ma'nolarini misollarda ko'rdik. Ushbu ma'nolar turli munosabatlarni yuzaga chiqarib, turli belgi va qirralarni o'zida mujassamlaydi. Biroq tamoman yangi semema hosil qilmaydi. Bu o'rinda ma'no taraqqiyotining polisemiya bosqichini yaqqol ko'rish mumkin. Chunki bir necha semalar bir bosh sememaga birlashgan. Tildagi ma'no taraqqiyoti yangi leksema (semema)ga hali o'sib yetilmagan. Agar ma'no taraqqiyoti yangi leksema (semema) hosil qilsa, u holda omonimiya hodisasi haqida gapirish o'rinli bo'ladi.

Fors tilidan o'zlashgan **gunoh** - polisemem leksemasining ma'nolari ham bir bosh ma'noga birlashgan.

**Gunoh** (tojikcha) leksemasining ma'nolari:

1) "shariat qonunlari, hayot qonunlariga xilof amal yoki xatti-harakat"<sup>96</sup>. *Allohga shak keltirish gunohdir.*

2) "odobsizlik", "ayb". *Men qizni oqlab, butun gunohni uning xo'jayiniga, berahmlilik qilgan kishiga qo'ymoqchiman* (Abdulla Qahhor).

**Kuch** so'zining leksik ma'nolari:

1) "odam yoki jonivorlarning jismoniy harakat qilish qobiliyati". *Esing borida el tani, kuching borida yer tani.* (Maqol);

*Bir parcha kuygan qora non uchun,*

*Yoshlik chog'ingdan o'z kuching sotib.*

(Hamza, "Ishchilar uyg'on").

2) "jismlarning o'zaro mexanik ta'sir etish qobiliyati", "mexanik o'lchov". *Markazdan qochma kuch; Butun olam tortishish kuchi; Ot kuchi.*

3) "ta'sir qilish darajasi", "ta'sir". *Dorining kuchi. Bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi.* (Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar")

4) "biror ishni amalga oshirish imkoni", "imkoniyat", "qurb". *Uning hovli sotib olishga ham kuchi yetadi.*

5) "biror sohaning ishlovchilari, yaratuvchilari", "biror faoliyat, voqea-hodisa manbai". *Paxta yig'im-terimida xotin-qizlar-katta kuch; Safimizga yosh kuchlar qo'shildi.*

6) "harbiy qo'shin turi". *Qurolli Kuchlar; Harbiy Havo kuchlari.*

7) "qonun yoki qarorning qo'llanishi, joriylanishi". *Qaror o'z kuchini yo'qotadi; Qonun kuchga kirdi.*

Misollarda **kuch** so'zining quvvat, qobiliyat, o'lchov, qurb, harakat, qo'llash singari ma'nolarda ishlatilishini tasvirladik. Shuning uchun ham **kuch** so'zi polisemem leksema hisoblanadi. **Kuch** leksemasining bosh ma'nosi o'z dominantligini saqlab qolgan, ya'ni dominant semema bitta. Shuningdek, **ko'z** so'zi dumaloq shakldagi. ko'rish vazifasini bajaruvchi muhim bir a'zo (organ) hisoblanadi. Nutqimizda *odamning ko'zi, qushning ko'zi, daraxtning ko'zi, ishning ko'zi, uzukning ko'zi, buloqning ko'zi, qalbning ko'zi* deb ishlatilsa-da, ular asosan bir bosh ma'noga birlashadi.

**Ko'z** so'zining leksik ma'nolari:

1) "tirik mavjudotning ko'rish organi, ko'z gavhari"<sup>97</sup>. *Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.* (Maqol); *Otamiz keksa bo'lsalar ham, ko'zlari yaxshi ko'radi.*

<sup>96</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - Toshkent: 2002. T. III. - 130 b.

<sup>97</sup> Azizov O., Rizayeva Z. O'zbekcha-ruscha lug'at. - Toshkent: O'qituvchi, 1989. - 98 b.

2) "nazar", "nigoh", "qarash". *Yo'lchi atrofiga ko'z yugurtirib, qizga tomon ikki-uch qadam bosdi.* (Oybek, "Qutlug' qon")

3) "Ko'rish qobiliyati". *Bir vaqtlar do'ppi tikdim, ko'rpa qavidim, endi unday ishlarga ko'zim o'tmaydi.* (Oybek, "Qutlug' qon")

4) "narsalarning biror belgi, doira yoki boshqa shaklda ajralib turgan qismi". *Derazaning yoki ko'zoynakning ko'zi; Taxtaning ko'zi.*

5) "biror narsani bilib, tushunib olish". *Ko'zim endi ochildi.*

6) "farzandi, yaqin kishisi".

*Ko'z oldida o'g'il-qizlari,*

*Nevarasi, ko'zi qorasi.*

(Hamid Olimjon)

7) "egallik qilishga intilmoq". *Birovga ko'z olaytirmoq.*

8) "tashik", "dumaloq". *Ignaning ko'zi; Uzukning ko'zi; (O'TIL, I, 410).*

**Ko'k** polisemem leksemasining ma'nolari:

1) "tiniq osmon rangiday", "moviy", "zangori".

*Ko'kda yulduz uchsa nogahon,*

*Bitdi derlar qaysidir taqdir.* (Abdulla Oripov)

2) "giyoh", "maysa", "ko'kat". *Yomg'ir yog'ib, yerda o'to'lanlar ko'rina boshladi, hayvonlarning og'zi ko'kka tegdi.* (M. Muhammadjonov)

3) "kashnich, shivit kabi ovqatga qo'shib yeyiladigan ziravor o'simliklar". *Ko'k solib, qatiqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi.* (Asqad Muxtor, "Opa-singillar")

**Ko'rinadiki, ko'k** so'zi osmon, ko'klam, ko'k rang, yashil rang, qoramtir rang kabi ma'no qirralariga ega. Ma'no qirralari orasida semik jihatdan o'zaro bog'liqlik mavjud. Bu ma'no tolalari kelib bir asosga tutashadi, yangi ma'noli so'z hosil etmaydi. Shundan kelib chiqib, **ko'k** so'zini ma'no taraqqiyotining polisemiya bosqichida deb qarashimiz ilmiy jihatdan asosli bo'ladi.

**Yo'l** polisemyem leksemasining ma'nolari: 1) "kishilar yoki transport qatnashi uchun belgilangan uzun yer yoki osmon bo'lagi, qatnov uchun xizmat qiladigan sath"<sup>98</sup>. *Avtomashinalar qatnaydigan yo'l; Somon yo'li.*

<sup>98</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 190 b.

2) "kema yoki samolyotlar qatnashi uchun belgilangan chiziq, trassa". *O'zbekiston havo yo'llari.*

3) "harakat yo'nalgan tomon". *Mashina o'z yo'lida davom etdi.*

4) "safar qilish yoki biror yoqqa borish". *Yo'lga chiqsang, yo'ldoshing bo'lsin* (Maqol).

5) "bosib o'tiladigan masofa". *Besh chaqirim yo'l.*

6) "chiziq", "chiziq tortilgan". *Yo'l-yo'l beqasam to'n.*

7) "qator", "satr". *Mening yozganimni sen uyat qilmasang, men ham sening yozganingni uyat qilmayman. Lekin shart shuki, mening ikki yo'limga javob bo'lsin.* (Abdulla Qodiriy, "Mehrobdan chayon")

8) "egat", "qator", "jo'yak". *Bir yo'l paxta ekilgan.*

9) "kishi hayotida yoki faoliyatida bosib o'tilgan bosqichlar". *Yusuffon qiziqning ijodiy yo'li juda murakkab, rang-barangdir.* (T. Obidov)

10) "usul", "yechim", "chora-tadbir". *Bu masalani ikki yo'l bilan hal qilish mumkin; Huquqiy tafakkurni o'stirish yo'llari biz uchun juda muhim.*

11) "xatti-harakat", "yurish-turish". *Yomon yo'lga kirib ketmoq; Yo'ldan urmoq.*

12) miqdor son bilan birga qo'llanib: "marta", "karra" ma'nolarida ishlatiladi. *Bir yo'l ko'rindi ko'zguda yuzdan olib niqob* (Xurshid Davron).

Ushbu leksemaning o'ndan ziyod ma'nolari bo'lsa ham, polisemem leksema hisoblanadi. Gap shundaki, yo'l so'zining barcha hosila ma'nolari bir bosh ma'noga birlashib turibdi. Ayni paytda yo'l so'zining ma'no qurshovlari tildagi leksik ma'no taraqqiyotining ko'p qirrali va uzluksiz ekanligini ko'rsatadi. (O'TIL, I, 352)

**Ish** so'zining leksik ma'nolari:

1) "insonning yaratuvchilik yoki ijodiy faoliyati", "mehnat".

*Ilmiy ish; Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.* (Maqol)

2) "xizmat", "lavozim". *Yaxshi ishga joylashmoq.*

3) "mehnat natijasida erishilgan mahorat, hunar". *Yormat Yo'lchining ishidan kamchilik topib, o'z mahoratini unga ko'rsatish umidida bir muddat kuzatib turdi. Lekin Yo'lchining ishida hech qanday kamchilik ko'ra olmadi.* (Oybek, "Qutlug' qon")

4) "biror soha", "kasb-hunar". *Lug'atchilik – qiyin ish.*

5) "izlanish", "mashg'ulot". *O'zi ustida tinmay ishlaydi. O'qituvchi ishni to'xtatib, o'quvchilarga nazar soldi.*

6) "zaruriyat", "ehtiyoj". *Sizda bir ishim bor.*

7) "tashvish", "qiyinchilik". *Kishining boshiga bir ish tushganda, darrov birovdan kengash va yordam so'raydi.* (Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar")

8) "burch", "vazifa". *Mahalla-ko'yni tanish – bizning ishimiz.*

9) "ma'muriy organlarda ko'riladigan proses". *Jinoiy ish qo'zg'atmoq.*

10) "holat", "ahvol". *Xo'sh, polvon ishlar qanaqa? - Ish chatoq.*

11) "mexanikada kuchning ta'sir o'lchovi"<sup>99</sup>. *Bajarilgan ish kattaligi.*

**Ish** polisimem leksemasi o'zida *xizmat, lavozim, soha, hunar, ehtiyoj, tashvish, muammo, burch, vazifa, holat, ahvol* singari ma'no qirralarini mujassam etgan. Bunday ma'no qirralarining yuzaga kelishida nutq vaziyati, matn va turli ma'no ko'chimlarining ham hissasi bor. Masalan, "*Er boshiga ish tushsa*" degan jumlaning olsak, bu yerda **ish** so'zi "tashvish", "muammo", "ko'ngilsizlik", "kulfat", "balog'qazo" kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi, ya'ni shunga xizmat qiladi. Lekin **ish** so'zining bunday vaziyatlarga xizmat qilishi doimiy saqlanmaydi, ya'ni istalgan nutq vaziyatida (tilda) shu ma'no reallashmaydi. Shuning uchun ham ularga bir so'zning ma'no ko'chimplari deb qarashimiz maqsadga muvofiqdir (O'TIL, I, 343).

**Mash'al** (arabcha) leksemasining ma'nolari:

1) "uchiga latta yoki boshqa yonuvchi narsa o'ralgan. o't yoqish uchun ishlatiladigan tayoq". *Mash'al yoqmoq; Hokimning odamlari mash'allarni yondirib, qo'rg'onning ichini va tevaragini yorug'lantirib, bir qismlari qo'rg'onga bostirib kirdilar.* (Sadriddin Ayniy, "Esdaliklar")

2) "yo'l ko'rsatib turadigan yoki namuna bo'ladigan mayoq". *Alisher Navoiy merosi yo'llarimizni yorituvchi mash'aldir.*

**Mash'al** leksemasining mayoq ma'nosi ko'chim asosida yuzaga kelgan. Mash'al, ya'ni yonib turuvchi narsa o'zidan nur, yorug'lik chiqarib, atrofnii yoritadi. Xuddi shu kabi ayrim buyuk shaxslar yoki ularning fikrlari, ilmiy qarashlari, asarlari ham kishilarga yo'l

ko'rsatadi, ruhiy ozuqa beradi. Ana shunday o'zaro o'xshashlik asosida ko'chayotgan ma'no polisemiya (ko'p ma'nolilik) hodisasini reallashtirgan (ARS, 407; O'TIL, I, 453).

**Nola** (tojikcha) leksemasining ma'nolari:

1) "g'am-alam, hasrat ifodalovchi ovoz, fig'on, faryod".

*Ingrab, o'ksib qolgan onasiz,*

*Ko'kka, yerga sig'mas nolasi.*

(H. Po'lat)

2) "yolvorish, iltijo ifodalovchi, mungli tovush". *Xudoga nola qilib, farzand so'ramoq.*

**Nola** so'zining yuqorida keltirilgan har ikkala ma'nosi bitta sememaga tutashadi. Mazkur leksema tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida polisemem leksema sifatida taraqqiy etgan. **Nola** leksemasi tarkibida *tovush, ovoz, ohang* semalarini o'zida birlashtirib turuvchi bitta dominant semema mavjud. Shuning uchun bu o'rinda omonimiya hodisasi emas, balki polisemiya hodisasi xususida fikr yuritiladi (O'TIL, I, 508).

**Nur** (arabcha) leksemasining ma'nolari:

1) "yorug'lik manbaidan taralgan va ingichka tola ravishda tasavvur etiladigan ziyo, yog'du".

*Quyosh, nuring sochaver mo'l-mo'l,*

*Bahor, ketma bizning bog'lardan.*

(Oybek)

2) "yorug'lik energiyasi, ziyo". *Elektr nuri; Giyoh yashnar nur bilan.* (Quddus Muhammadiy)

3) "haqiqat, baxt-sodat, erkinlik, ma'rifat ramzi". *Bilim nuri; Mehr nuri yog'ar doim, yuzingizdan, ustozlar.* (Qo'shiqdan)

4) "Musbat yoki manfiy zarralar, elektromagnit tebranishlar oqimi". *Rentgen nuri.*

5) "ko'z (ko'rish organi) ning quvvati, ko'rish qobiliyati". *Ko'zingda nur, belingda quvvating borida mehnat qilib, kelajakka intilishing kerak.* (O'TIL, I, 513)

**Qo'l** so'zining leksik ma'nolari:

1) "odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi". *Qo'lini ko'ksiga qo'ymoq; Men bu mol-dunyoni, yer-suvni*

<sup>99</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: 2002. T. IV. -307 b.

qo'lim bilan topgan emasman, aqlim bilan topganman. (Abdulla Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")

2) "hayvonning oldingi oyoqlari". *Qo'yning qo'li singan ekan.*

3) "barmoq". *Besh qo'l baravar emas.* (Maqol)

4) "har kimning o'ziga xos yozuv usuli, yozuvi, xati". *Qutidor qizining maqsadiga tushunib, ikki turli qo'lni darrov payqab oldi:*

– *Vijdonsiz, iblis, deb qo'ydi.* (Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar")

5) "kishining o'z qo'li bilan yozilgan ismi yoki familiyasi, imzo". *Omborchi: "Bo'ta qo'l qo'ymagan qog'ozni qog'oz demayman", – deb katta ketvordi.* (Said Ahmad, "Hukm")

6) "har kimning o'ziga xos xatti-harakati, ish uslubi". *Bu ishda uning qo'li bor.*

7) "ixtiyor, izn". *Zavod ham qo'ldan ketadigan bo'ldi.*

8) "imkoniyat". *Xotin o'z qishlog'iga – ellikboshining qo'li yetmaydigan Naymanga ketgan ekan.* (Abdulla Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")


9) "bandi qilmoq", "hibsga olmoq", "qamamoq". *Bir guruh terrorchilar chegarada qo'lga olingan.* (O'TIL, II, 634)

Qo'l so'zi nutq vaziyatiga qarab, *barmoq, oyoq, xat, yozuv usuli, xatti-harakat, ixtiyor, imkoniyat, qamoqqa olmoq* kabi ma'nolarni bildiradi va polisemiya hosil etadi. Bunday ma'nolar qo'l so'ziga doimiy komponent sifatida birlashtirilgan emas, balki matndan kelib chiqqan holda, ma'lum vaqt davomida shu tushunchada ishlatilib turadi. Shu o'rinda til va nutq hodisalarini alohida baholash hamda tahlil qilish talab etiladi.

Nutq jarayonidagi muayyan hodisalar tildagi mazkur so'zga doimo mos kelavermasligi mumkin, bunday vaziyatlarda polisemiya hodisasi haqida so'z boradi, yangi leksema hosil bo'lmaydi. Bir leksemaning ko'chim asosida turli ma'nolarda ishlatilishi yuz beradi.

So'zlarda leksik ma'noning turli shakllarini chizmalarda tasvirlaymiz.

### Polisemem leksemaning ma'no xususiyatlari:



Yuqorida polisemiya hodisasi va uning ma'no xususiyatlarini ko'rib chiqdik, endi ma'no taraqqiyoti natijasida omonimiyaning yuzaga kelishini ko'ramiz.

Omonim so'zda bosh va hosila ma'nolar mavjud bo'ladi va ikki yoki undan ortiq bosh ma'no (markaz) hosil etadi. *Oy, kun, bosh, yupqa, dam* kabilar ma'no taraqqiyoti natijasida biri ikkinchisidan o'sib chiqqan omoleksemaalardir. Masalan:


**yupqa I** sifat, "yon ko'lami ingichka". *Kun sovib..., ariqdagi suv yupqagina muz bilan qoplendi.* (H. G'ulom, "Binafsha atri")

**yupqa II** (←I) ot, "xamirni yupqa yoyib, qizdirilgan qozonda har ikki tomonini ag'darib pishirib, to'rtburchak shaklida tayyorlanadigan taom". *O'qishda toliqib qolmasin deb, doim somsami, uch-to'rtta yupqami pishirib qo'yaman.* (Oydin, "Do'ndiqdan ham yosh ekan")

**Yupqa I** sifat leksemi qadimgi turkiy tildagi “yon ko‘lamini *ingichka qilib yoy*” ma‘nosini anglatgan **yub** fe‘lidan –**qa** qo‘shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik **q** undoshi ta‘sirida **b** undoshi **p** undoshiga, **a** unlisi â unlisiga almashgan: **yub + qa → yubqa → yupqâ** (ESTYA, IV, 242; Devon, III, 41; O‘TEL, 187). **Yupqa II** ot leksemi esa ma‘no taraqqiyoti natijasida **yupqa I** sifatidan o‘sib chiqqan: “belgi” → “shunday belgiga ega narsa”.


Yuqoridagi omoleksemalar polisemiya hodisasining natijasi emas, balki ma‘no taraqqiyotining o‘ziga xos yo‘llarini ifodalaydi. Ularni chizmalarda ko‘ramiz.

**Omonim leksemaning ma‘no xususiyatlari:**




5-chizma

**Ma‘no taraqqiyoti natijasida omonimiyaning bir xil turkum ichida voqe bo‘lishi:**



6-chizma

**Ma‘no taraqqiyoti natijasida omonimiyaning har xil turkumlar orasida voqe bo‘lishi:**



Leksik ma‘no taraqqiyoti jarayonida ma‘no kengayishi yoki aksincha, ma‘no torayishi ham yuz berishi mumkin. Har ikkala holatda ham omonimiya yuzaga kelaveradi. Masalan, **bog‘cha** so‘zi oktyabr inqilobiga qadar “bog” (ekinzor) ma‘nosida ishlatilgan, so‘ngra yangi ma‘noda, ya‘ni “yosh bolalar tarbiyalanadigan joy” ma‘nosida qo‘llana boshlagan.

XI asrgacha **un** soʻzi “tovush” maʼnosida, **arigʻ** soʻzi “toza” maʼnosida, **koʻk** soʻzi “osmon” maʼnosida, **tugma** soʻzi feʼl maʼnolarida ishlatilgan boʻlsa, keyinchalik, maʼno kengayishi sababli yangi maʼnolar qoʻshilgan

**Osh, urugʻ, alvon** kabi soʻzlarda maʼno torayishi mavjud. Masalan, **osh** soʻzi dastlab barcha taomlarni, **urugʻ** soʻzi butun bir jamoani, **alvon** soʻzi turli rang maʼnolarini anglatgan. Hozirgi kunda koʻpincha **osh** – “palov”, yaʼni taomning birgina turi; **urugʻ** – “nasl”, “don”; **alvon** – “qizil rang” yoki shunday rangli mato maʼnolarida qoʻllanadi.

Omonimiya har bir davrda ham asosiy soʻz bazasida yangi soʻzlar yasashga xizmat qiluvchi muhim xususiyatga ega boʻlgan hodisadir. Omonim soʻzlar oʻzbek tili zahirasining katta boʻlimlaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu hodisaga til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq, oʻzgarib, oʻsib, soʻzni yangi-yangi maʼnolar bilan boyituvchi xususiyat sifatida qaralmogʻi va oliy va oʻrta maxsus taʼlim, xalq taʼlimi muassasalarida oʻzbek adabiy tili fanini oʻqitishda bunga alohida eʼtibor berilishi kerak. Zero, omonimiya tildagi faqat soʻz maʼnosining taraqqiy etishidagina iborat boʻlgan hodisasi emas, balki soʻzlarda yangi grammatik maʼnolarni yuzaga chiqaruvchi, yangi grammatik kategoriyalarga xizmat qiluvchi, til sathining eng faol qismidir.

Maʼno taraqqiyoti natijasida bir leksemadan boshqa bir leksemaning yuzaga kelishini polisemiya hodisadan ajratib olish uchun birinchi navbatda sememani semalardan farqlab olish zarur. Agar semalar bir semema doirasida boʻlsa, u holda leksema ham bitta boʻladi. Agar semalar ikki alohida semema hosil etsa, u holda leksema ham ikkita boʻladi. Birinchi holatda polisemiya, ikkinchisida omonimiya reallashadi. Semalar faqat polisemem soʻzlarda emas, balki omonim soʻzlarda ham mavjud boʻladi. Shunday ekan, omonimiya hodisasi faqat polisemiyadan oʻsib chiqadi yoki polisemem soʻzda maʼno zanjiri uzilsa, omonimiya paydo boʻladi deb qarash voqelikka ilmiy yondashuv emas. Aslida esa tildagi bu ikki hodisaning ham asosini leksik maʼno taraqqiyoti tashkil etadi. Leksik maʼno doimo rivojlanib, taraqqiy etib boradi, boshqa til hodisalarini roʻyobga chiqarganidek, oʻrni bilan polisemiyaning va oʻrni bilan omonimiyaning roʻyobga chiqaradi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Til – jonli hodisa, shunday ekan, undagi soʻzlar ham doimiy ravishda yangilanib, taraqqiy etib boradi.

Oʻzbek tili – dunyodagi eng boy (bu yerda soʻz zaxirasi, shevalar va maʼno imkoniyatlari koʻzda tutilgan) va purmaʼno tillardan biri, mazkur tildagi polisemiya va omonimiya hodisalari ham buni yana bir karra tasdiqlaydi. Chunki shu ikki hodisaning oʻzigina tilda oʻnlab, hatto yuzlab yangi shakl va maʼnolarni yuzaga chiqaradi.

2. Oʻzbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelishi tilning ichki va tashqi taraqqiyot yoʻllariga asoslanadi. Ular quyidagilardir:

1) tovush oʻzgarishlari oʻzbekcha leksemalar orasida, oʻzbekcha leksema bilan oʻzlashgan leksemalar orasida va oʻzlashgan leksemalarda mavjud. Omoleksemalardagi tovush oʻzgarishlari – unlilarning sifat va miqdoriy oʻzgarishlari, shuningdek, tovush almashinishi, tushishi, ortishi, ikkilanishi kabilardan iborat;

2) maʼno taraqqiyoti oʻzbekcha leksemalar orasida va oʻzlashgan leksemalar orasida mavjud. Har ikki holatda omoleksemalar har xil turkum orasida yoki bir xil turkum ichida boʻlishi mumkin.

Maʼno taraqqiyoti natijasida omonimiyaning yuzaga kelishida soʻz turkumlarining kategorial oʻzgarishi quyidagicha:

I. Har xil turkumda:

- sifat leksema asosida ot leksema;
- ot leksema asosida sifat leksema;
- ravish leksema asosida ot leksema;
- feʼl leksema asosida ot leksema;
- ot leksema asosida ravish leksema.

II. Bir xil turkumda:

- ot leksemadan ot leksema;
- sifat leksemadan sifat leksema;
- feʼl leksemadan feʼl leksema voqe boʻldi;

3) affiksatsiya, yaʼni qoʻshimcha orqali soʻz yasalishi oʻzbekcha leksemalar orasida va oʻzbekcha leksema bilan oʻzlashgan leksemalar orasida mavjud. Bunday omoifodalar grammatik tuzilishiga koʻra, tub va yasama soʻzlar oʻrtasida, shuningdek, yasama soʻzlar oʻrtasida kuzatildi. Soʻz yasalishi jarayoni bilan birgalikda soʻzlarda oʻziga xos

tovush o'zgarishlari – tovush almashinishi, tushishi va ortishi kabilar ro'y beradi.

3. O'zbek tilida leksik ma'no taraqqiyoti ma'no ko'chirlari (meto-nimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya va b.), so'z ma'nolarining kengayishi yoki torayishi, so'zlardagi polisemiya, shuningdek, yangi ma'no va yangi ottenkalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ular leksik ma'noning turli qirralaridir.

4. Tildagi so'zlar bir ma'noli, ko'p ma'noli va omonim (shakldosh) bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zda ma'no qirralari ko'p bo'lsa-da, semema (bosh ma'no) bitta bo'ladi. Shu bois, bunday so'zlarni polisemiya (polisememiya emas) deb atash voqelikni to'g'ri va aniq aks ettiradi.

5. So'zlardagi ma'no taraqqiyoti natijasi o'rni bilan polisemiyaga va o'rni bilan omonimiyaga olib keladi. Tildagi omoleksemalarning bir qismini polisemiya hodisasi yuzaga keltiradi, deb qarash noto'g'ri, chunki bu ikkala til hodisalarining ham manbai bitta, ya'ni leksik ma'no taraqqiyotidir. Ularni farqlab olish quyidagicha amalga oshiriladi:

- so'zning sememasi va semalari doirasi o'zaro farqlab olinadi;

- agar semalar bir sememaga, ya'ni leksik ma'noga birlashsa, polisemiya hisoblanadi;

- so'zda ikkita alohida semema, ya'ni leksik ma'no mavjud bo'lsa (bunda hosila semalarga emas, balki asos semaga tayanish lozim), agar asosiy semik qurshovlar birdan ortiq bo'lsa, omonimiya yuzaga keladi;

- polisemiya ko'p semali bir leksema bo'lsa, omonimiya ko'p semali birdan ortiq leksemadir.

6. Leksik ma'no taraqqiyoti natijasida omonimiyaning yuzaga kelishi har xil so'z turkumlari orasida, shuningdek, bir turkum ichidagi so'zlarda kuzatiladi.

7. Tildagi polisemiya hodisasi ham, omonimiya hodisasi ham ma'no taraqqiyotining mahsulidir. So'zlarda leksik ma'noning turli shakllari ma'no ko'chirlaridan tashqari, nutq vaziyati va matn bilan ham bog'liq. Shu o'rinda til va nutq hodisalarini alohida baholash hamda tahlil qilish talab etiladi. Nutq jarayonidagi muayyan hodisalar tildagi mazkur so'zga doimo mos kelavermasligi mumkin, bunday vaziyatlarda polisemiya hodisasi haqida so'z boradi, ya'ni yangi

leksema hosil bo'lmaydi. Bir leksemaning ma'no ko'chishi – konversiya asosida turli ma'nolarda ishlatilishi yuz beradi.

8. Tilda omonimiya hodisasi uchun birinchi navbatda mustaqil leksik ma'no (semema), so'ngra shakl, ya'ni yozuvdagi bir xillik e'tiborga olinishi kerak. Shakliy bir xillik ikki qismli bo'lib, so'z (o'zak) omonimiyasi – leksik omonimiya va qo'shimchalar omonimiyasi – affiksal omonimiyalardan iborat.

9. Ma'no taraqqiyoti natijasida omoleksemalarning hosil bo'lishida o'zbek tilining o'z qatlam so'zlari o'zga qatlam so'zlariga nisbatan mahsuldordir.

## MONOGRAFIYADA QO'LLANILGAN SHARTLI QISQARTMALAR

1. APC – Баранов Х. Арабско-русский словарь. – Москва, 1958
2. БМУС – Усманходжаев. А. Большой медицинский учебный словарь. – Ташкент, 2013
3. Devon – Qoshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. – Toshkent, 1960-1967
4. ДС – Древнетюркский словарь. – ЛГР., 1969
5. КРС – Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. – Москва, 1965
6. МС – Медицинский справочник. – Москва, 1967
7. МНС – Meditsina hamshirasi spravochnigi. – Toshkent, 1989
8. NAL – Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent, 1972
9. ПДП – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва, 1951
10. СРЯ – Ожегов С. Словар русского языка. – Москва, 1953
11. ССТГН – Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санктпетербург, 1969 – 1971
12. SE – Salomatlik ensiklopediyasi. – Toshkent, 1983
13. ТРС – Магазаник Д.А. Турецко-русский словарь. – Москва, 1945
14. TE – Tibbiyot ensiklopediyasi. – Toshkent, 2016
15. ЭСТЯ – Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва, 1974 – 1989
16. O'ME – O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, – Toshkent, 2000
17. O'TIL – O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. – Moskva, 1981
18. O'TML – G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'urov R. O'zbek tili morfem lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1977
19. O'TOIL – Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1984
20. O'TEL – Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: "Universitet", 2000

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral, 28-son, (6722).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. – www.uza.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmoniga 1-ilova. 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasi. www.lex.uz.ru/docs/3913188/otherlang
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli qarori. – [http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3210647](http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3210647)
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2003. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 22-oktabr, 218-son.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.

### II. O'zbek tilidagi adabiyotlar:

9. Amanturdiyev J. Transformalar – nutq boyligi // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1985. – № 4. – B. 45 - 47.
10. Aliyev A., Nazarov K. O'zbek tili ma'lumotnomasi. – T.: «Fan», 1992. – 88 b.

11. Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn // Mukammal asarlar to'plami. – T.: «Fan», 2000. T. 16. – 335 b.
12. Aliqulov T. Polisemiyalarning hosil bo'lishi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1963. – № 6. – B. 36 - 42.
13. Aliqulov T., Ravshanov M. Lug'atlarda omonimlarning berilishi // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1990. – № 2. – B. 51 - 54.
14. Begmatov E. O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. B. 111 - 124.
15. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: «Fan», 1985. – 24 b.
16. Berdialiyev A. Koordinativ aloqa va uning xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1984. – № 3. – B. 20 - 23.
17. Berdialiyev A. Ergash gapli qo'shma gap konstruksiyalari omonimiyasining ba'zi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1986. – № 6. – B. 72 - 76.
18. Kamolov F. Leksikologiya va semasiologiya // Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: «Fan», 1966. – B. 94 - 101.
19. Kamolov F. O'zbek tili leksikasi (lug'at sostavi, so'z va uning ma'nolariga doir masalalar). – T.: «Fan», 1953. – 45 b.
20. Mamatov A. Frazologizmlarning konnotativ ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1988. – № 2. – B. 63 - 65.
21. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T.: «Fan», 1984. – 16 b.
22. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – T.: «O'qituvchi», 1995. – 232 b.
23. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov T. O'zbek tili. – T.: Fan, 1966. – 267 b.
24. Mirtojdiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – T.: «Fan», 1975. – 139 b.
25. Mirtojdiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. – 312 b.
26. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – T.: «Fan», 1959. – 240 b.
27. Nazarov K., Odilova S. O'zbek tilidan qo'llanma. – T.: Ijod dunyosi, 2002. – 261 b.
28. Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). – T.: «O'qituvchi», 1993. – 124 b.

29. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1995. – 128 b.
30. Nurmonov A. va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: «Fan», 1992. – 234 b.
31. Pinxasov Ya. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. – T.: Fan, 1960. – 128 b.
32. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. – T.: «Fan», 1989. – 142 b.
33. Rasulov R., Suyunov B., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: 2010. – 44 b.
34. Rahmatullayev Sh. Lug'at boyligini o'rganish va o'rgatishda qayta baholash zarur bo'lgan ba'zi masalalar // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1990. – № 3. – B. 30 - 33.
35. Rahmatullayev Sh. Leksik ma'noni komponentlab tahlil qilish tajribasidan // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1978. – № 4. – 57 b.
36. Rahmatullayev Sh. Semema - mustaqil til birligi // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1984. – № 5. – B. 17 - 19.
37. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida tobe bog'lanishning turlari. – T.: Universitet, 1993. – 143 b.
38. Rahmatullayev Sh. Ilmiy tadqiqot asoslari. – T.: Universitet, 2002. – 110 b.
39. Saidov A. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – T.: «Adolat», 1994. – 31 b.
40. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: «O'qituvchi», 1981. – 226 b.
41. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: «O'zbekiston», 1992. – 399 b.
42. Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari: Ilmiy to'plam. – T.: 1966.
43. Usmonov S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojikcha va arabcha so'zlar // Navoiyga armug'on. – T.: «Fan», 1968. – B. 109 - 120.
44. Usmonov S. Hozirgi zamon o'zbek tilida omonimlar va sinonimlar: Ilmiy to'plam. XII chiqish. – T.: TDPI, 1959. – 168 b.
45. Usmonov S. Metafora // O'zbek tili va adabiyoti, – T.: 1964. – № 4. – B. 34 - 39.

46. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: «O'qituvchi», 1980. – 170 b.
47. O'zbek tili grammatikasi. T.I. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. – 610 b.
48. Qodirov M., Dolimov U., A'lamova M. O'zbek tili va adabiyoti. – T.: «O'qituvchi», 1993. – 152 b.
49. Qurboniyozov G. Turkiy tillarda so'z ma'nolarini qiyoslab o'rganish haqida // Til va adabiyot ta'limi. – T.: 1998. – № 2. – B. 47 - 48.
50. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. – T.: «O'qituvchi», 1992. – 160 b.
51. Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – T.: «Fan», 1977. – 168 b.
52. G'oyibov S. O'zbek tili leksikasining stilistik qatlamlari // O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981 – 312 b.
53. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: «O'qituvchi», 1987. – 315 b.
54. G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'urov R. O'zbek tili morfem lug'ati. T.: O'qituvchi, 1977. – 460 b.
55. G'ulomov A.G'. So'zlar hayotidan // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1969. – № 6. – B. 57 - 62.
56. G'ulomov A.G'. O'zbek tilida so'z yasaliş yo'llari haqida // O'zbek tili va adabiyoti instituti asarlari. – T.: 1949. – B. 76 - 77.
57. Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasaliş. – T.: «O'qituvchi», 1989. – 110 b.
58. Hojiyev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T.: «Fan», 1966. – 222 b.
59. Hozirgi o'zbek adabiy tili. G'.Abdurahmonov tahriri ostida. T.I. – T.: 1966. – 390 b.
60. Hozirgi zamon o'zbek tili. Faxri Kamol tahriri ostida. – T.: «Fan», 1957. – 527 b.

### III. Rus tilidagi adabiyotlar:

61. Абаев В.И. О подаче омонимов в словаре // Вопросы языкознания, – М.: 1957. – № 3. – С. 31 - 43.
62. Акобиров С.Ф. О границах и источниках толкового словаря // Тюркская лексикология и лексикография. – М.: 1971. – С. 130 - 152.

63. Акылбекова З. Арабизмы // Источники формирования тюркских языков Средней Азии и Южной Сибири. – Фрунзе: Илим, 1966. – С. 230 - 278.
64. Аракин В.Д. Об омонимах в турецком языке // Советская тюркология, – Баку: 1978. – С. 56 – 57.
65. Арнолд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: 1959. – 351 с.
66. Арсенева М.Т., Строева Т., Хазанович А. Многозначность и омонимия. – Л.: 1966. – 131 с.
67. Аперсян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимическая средства языка. – М.: Наука, 1974. – 171 с.
68. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: Наука, 1957. – 187 с.
69. Будагов Р.А. Сравнительно – семасиологические исследования. – М.: ИМУ, 1969. – 302 с.
70. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: Просвещение, 1979. – 416 с.
71. Василев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: Высшая школа, 1990. – 175 с.
72. Виноградов В.В. О грамматической омонимии в современном русском языке // Русский язык в школе, – М.: 1940. – № 1. – С. 1 - 12.
73. Виноградов В.В. Об омонимах и смежных явлениях // Вопросы языкознания, 1960. – № 5. – С. 3 - 17.
74. Виноградов В.В. Об омонимах в русской лексикографической традиции // Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 164 с.
75. Гаджиева Н.З. Основные пути развития синтаксической структуры тюркских языков. – М.: Наука, 1973. – 311 с.
76. Галкина – Федорук Е.М. К вопросу об омонимах в русском языке // Русский язык в школе, 1954. – № 3. – С. 14 - 15.
77. Григорев В.П. Обсуждение проблемы омонимии // Вопросы языкознания, 1958. – № 2. – С. 162 - 164.
78. Гузеев Ж.М. Лексикографическая разработка многозначных слов и генетически родственных слов в толковых словарях тюркских языков // Советская тюркология, 1982. – № 2. – С. 19 - 33.

79. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. – М.: Акад. наук, 1948. – 276 с.
80. Звегинцев В.А. Семасиология. – М.: МГУ, 1957. – 322 с.
81. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М.: Высшая школа, 1974. – 303 с.
82. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.: Наука, 1960. – 176 с.
83. Кутина Л.Л. К вопросу об омонимах и её отражение в словарях современного русского языка // Лексикографический сборник. 1960. Вып. – № 4.
84. Левит З.Н. Лексикология французского языка. – М.: Высшая школа, 1979. – 160 с.
85. Левковская К.А. Лексикология немецкого языка. – М.: Учпедгиз, 1956. – 247 с.
86. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.: Наука, 1951. – 654 с.
87. Маслов Ю.С. Омонимия в словаре и в языке // Вопросы теории и истории языка, – Л.: Акад. наук, 1963. – 183 с.
88. Мелникова А.И. Пути возникновения и развития омографии в русском языке // Русский язык в школе, 1988. – № 4. – С. 73 - 77.
89. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. – 272 с.
90. Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе: Илим, 1964. – 311 с.
91. Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. – М.: Наука, 1974. – 271 с.
92. Рахматуллаев Ш.У. О преобразовании грамматического строения у именных ФЕ // Научные труды ТашГУ. – Т.: 1963. Вып. 211. – С. 225 - 230.
93. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1960. – 431 с.
94. Ройзензон Л.И., Абрамес И.В. Совмещенная омонимия в сфере фразеологии // Вопросы языкознания, 1969. – № 2. – С. 148 - 152.
95. Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1962. – 365 с.
96. Степанов Ю.С. Основы языкознания. – М.: Просвещение, 1966. – 271 с.

97. Татаринцев Б.И. Омонимы и лексемы // Лексика и морфология тюркских языков. – Новосибирск, 1982. – 168 с.
98. Татаринцев Б.И. Смысловые связи и отношения слов в тувинском языке. – М.: Наука, 1987. – 196 с.
99. Тихонов А.Н. Словообразовательные омонимы в русском языке // Русский язык в школе, 1971. – № 1. – С. 93 - 97.
100. Толмачёва З.А. Образование омонимов путём распада полисемии // Русский язык в школе, 1959. – № 4. – С. 28 - 33.
101. Тышлер И.С. К вопросу о судьбе омонимов // Вопросы языкознания, 1960. – № 5. – С. 80 - 85.
102. Умаров Э.А. Об исторических омонимах «чанг» в тюркских языках // Лексика и морфология тюркских языков. – Новосибирск, 1982. – 172 с.
103. Чаусова Н.Г. Вопросы омонимии в средней школе // Русский язык в школе, 1988. – № 4. – С. 26 - 28.
104. Чариев А. Синтактико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Т.: Фан, 1990. – 92 с.
105. Шенделс Е.И. О грамматической омонимии // Иностранные языки в школе. – М.: 1955. – № 6. – С. 15 - 20.
106. Шумилов Н.Ф. К вопросу о разграничении полисемантизма и омонимии // Русский язык в школе, 1956. – № 3. – С. 11 - 14.
107. Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология. Вып. № II, – Фрунзе: Илим, 1955. – 181 с.

#### IV. Lug'atlar:

108. Azizov O., Rizayeva Z. O'zbekcha - ruscha lug'at. – T.: O'qituvchi, 1989. – 284 b.
109. Attuhfatuz zakiyati fillug'atit turkiya. – T.: Fan, 1968. – 279 b.
110. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – М.: 1966. – 607 с.
111. Баранов Х. Арабско - русский словарь (АРС). – М.: 1958. – 1186 с.
112. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турско - татарских наречий. Т. I - III. – Санктпетербург: 1969 - 1971. – 1674 с.
113. Древнетюркский словарь. ЛГР.: 1969. – 698 с.

114. Краткий словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1987. – 369 с.
115. Магазаник Д.А. Туреско – русский словарь. – М.: 1945. – 704 с.
116. Ожегов С. Словарь русского языка. – М.: 1953. – 848 с.
117. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1984. – 214 b.
118. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: Turkiy so'zlar. – T.: Universitet, 2000. – 600 b.
119. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami. – T.: Universitet, 2001. – 351 b.
120. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974 – 1989. Т. I – IV. – 2439 с.
121. Тихонов А., Кунгуров Р. Обратный словарь узбекского языка. – Самарканд: СамДУ, 1968. – 237 с.
122. Узбекско - русский словарь (под ред. С.Акобиров) – М.: 1959. – 264 с.
123. Юдахин К.К. Киргизско - русский словарь. – М.: 1965. – 912 с.
124. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: 1981. T. I - II. – 1346 b.
125. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: 2006 - 2008. T. I - V. – 3236 b.
126. Qoshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. – T.: 1960 - 1967. T. I – III. – 1392 b.

#### V. Avtoreferatlar:

127. Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1945. – 48 с.
128. Аликулов Т.А. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1966. – 19 с.
129. Аханов К. Омонимы в казахском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Alma - Ata., 1956. – 52 b.
130. Bekdjanova R. Омонимы в киргизском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Frunze., 1967. – 27 s.
131. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fan. doktori dis. ... avtoref. – T., 1997. – 47 b.
132. Гасанов А.А. Омонимия в азербайджанском языке: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Баку., 1980. – 50 с.

133. Джураев Б.А. Структурно – семантическое исследование многозначных слов современного узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1985. – 24 с.

134. Джурабаева М.А. Аффиксальная омонимия в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1975. – 20 с.

135. Jumanioyozova M.X. Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi: Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – T., 1999. – 24 b.

136. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. doktori dis. ... avtoref. – T., 1999. – 61 b.

137. Кузьменко Н.А. Выделение омонимов из семантической структуры английских многозначных слов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1981. – 21 с.

138. Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Т., 1978. – 58 с.

139. Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol. fan. nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 1997. – 29 b.

140. Mirzoqulov S.M. Qarindosh tillardan tarjima asarlar tilining leksik - semantik tadqiqi: Filol. fan. nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 2000. – 27 b.

141. Mirzaqulov T. O'zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmatikasi masalalari: Filol. fan. doktori dis. ... avtoref. – T., 1994. – 56 b.

142. Mirtadjiev M.M. Vozniknoveniye leksicheskix omonimov v uzbekskom yazyke: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – T., 1964. – 20 b.

143. Nishonova N.R. O'zbek tilida "hayvon" arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fan. nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 2000. – 26 b.

144. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya: Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – T., 1996. – 26 b.

145. Ravshanov M. Омонимы в толковом словаре узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1991. – 26 b.

146. Салимгараева Б.С. Омонимы в современном татарском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа., 1972. – 22 с.

147. Safarova R.G. Giponimiya v uzbekskom yazyke (na materiale obshchepotre-bitelnykh zoonimov): Aftoref. dis. ... kand. filol. nauk. – T., 1990. – 44 b.

148. Suyunov B.T. O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari. Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – T., 2009. – 22 b.

149. Suyunov B.T. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Filol. fan. doktori (DSc)dis. ... avtoref. – T., 2023. – 64 b.

150. Umirov I.E. O'zbek tili parafrazalari: Filol. fan. nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 1996. – 27 b.

151. Xolmurotova J.I. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional - uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 2000. – 25 b.

152. Qilichev B. O'zbek tilida paronimiya. Filol. fan. nomzodi dis. ... avtoref. – T.: 1997. – 22 b.

153. Qurbonova M.M. O'zbek tilshunosligida formal - funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini: Filol. fan. doktori dis. ... avtoref. – T., 2001. – 51 b.

#### VI. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar:

154. Abdullayeva R. Ko'chma ma'noda qo'llanuvchi kasallik nomlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2020. 2-son. – B. 111-113.

155. Aliqulov T., Ravshanov M. Lug'atlarda omonimlarning berilishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1990, 2-son. – B. 51-54.

156. Amanturdiyev J. Transformalar – nutq boyligi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1985, 4-son. – B. 45 - 47.

157. Baxronova D. Xorijiy so'z va terminlardan foydalanishda me'yoriy va milliy-assosiativ fikrlash muammolari. – Toshkent: 2011. – 97 b.

158. Даниленко В. Об одной модели терминов-словосочетаний // Научно-техническая терминология. – М.: Наука, 1979. №10. – С. 11-12.

159. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. 5-son. – B. 3-16.

160. Mahmudov N. Ilmiy matnda termin tanosibi va takomili // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2020. 2-son. – B. 3-10.

161. Mahmudov N. Termin, so'z va metafora // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013. 4-son. – B. 5-11.

162. Rasulov R. Termin xususiyatlari // SamDU axborotnomasi, 2005 yil, 2-son.

163. Rahmatullayev Sh. Leksik ma'noni komponentlab tahlil qilish tajribasidan // O'zbek tili va adabiyoti, – Toshkent: 1978, 4-son. – B. 57.

164. Rahmatullayev Sh. Semema-mustaqil til birligi // O'zbek tili va adabiyoti, – Toshkent: 1984, 5-son. – B. 17-19

165. Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari: Ilmiy to'plam. – Toshkent: 1966

166. Usmonov S. Metafora // O'zbek tili va adabiyoti, – Toshkent: 1964. 4-son. – B. 34-39.

167. Xolmanova Z. O'zbek tilshunosligidagi ayrim terminlar haqida // "Lingvist" ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2011. 2-son, – 68 b.

168. Qurboniyozov G. Turkiy tillarda so'z ma'nolarini qiyoslab o'rganish haqida // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 1998. 2-son. – B. 47 - 48.

169. G'ulomov A.G'. So'zlar hayotidan // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1969, 6-son. – B. 57-62.

#### VII. Internet saytlari:

1. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)6. [www.l2news.uz](http://www.l2news.uz)

2. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)7. [www.inbox.uz](http://www.inbox.uz)

3. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)8. <http://online.nd.edu>

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www.multimedia](http://www.multimedia)

6. <http://www.recipe.ru/> - Rossiya davlat tibbiyot tizimiga oid me'yoriy hujjatlar

7. <http://www.med-pravo.ru/> - Rossiya davlat tibbiyot tizimiga oid me'yoriy hujjatlar.

8. <http://catalog.fmb.ru/uzbekistan>

9. <http://translate.google.co.uz>

10. <http://natlib.uz>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I bob. Omoleksemalarning o'rganilish tarixi.....</b>	<b>8</b>
<b>II bob. O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelishi..</b>	<b>21</b>
2.1. Tovush o'zgarishlari natijasida hosil bo'lgan omoleksemalar.....	21
2.2. Affiksatsiya natijasida hosil bo'lgan omoleksemalar.....	33
<b>III bob. Ma'no taraqqiyoti natijasida hosil bo'lgan omoleksemalar semantikasi.....</b>	<b>40</b>
3.1. Har xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalar.....	44
3.2. Bir xil turkumdagi o'zbekcha omoleksemalar.....	50
3.3. Har xil turkumdagi o'zlashgan omoleksemalar.....	60
3.4. Bir xil turkumdagi o'zlashgan omoleksemalar.....	63
<b>IV bob. Omonimiya va polisemiya hodisalarining o'zaro munosabati.....</b>	<b>67</b>
4.1. So'zlarda leksik ma'no taraqqiyoti muammosi.....	67
4.2. Omoleksemalarning boshqa ma'no birliklaridan farqlanishi.....	71
<b>Xulosa va tavsiyalar.....</b>	<b>87</b>
Monografiyada qo'llanilgan shartli qisqartmalar.....	90
Foydalanilgan adabiyotlar.....	91

SUYUNOV BAXODIR TURDIYEVICH

## O'ZBEK TILIDA OMOLEKSEMALARNING YUZAGA KELISH OMILLARI

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2023

Muharrir:	Sh. Kusherbayeva
Tex. muharrir:	Sh. Mirqosimova
Rassom:	U. Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi:	D. Bakirova



E-mail: [tipografiyacent@mail.ru](mailto:tipografiyacent@mail.ru) Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi 25.12.2023.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Times New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 6.75. Nashriyot bosma tabog'i 6,5.

Tiraji 100. Buyurtma № 93.

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»  
bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Foziltepa ko'chasi, 22 b uy.**

ISBN 978-9910-748-22-6



9 789910 748226